

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI



**VOLUME 2
ISSUE 4
2023**

**Impact factor
2023 = 5.99**



TOGETHER WE REACH THE GOAL



*Exact sciences
Natural sciences
Medical sciences
Technical sciences
Economic sciences
Pedagogical sciences
Philological sciences
Philosophical sciences
Humanitarian sciences*

ISSN (E) 2181-2993

www.birunijournal.uz



International Scientific Journal of Biruni

№ 2 (4) 2023

ISSN (E) 2181-2993

“**International scientific journal of Biruni**”. Ilmiy maqolalar to’plami. Uzbekistan:
www.birunijournal.uz. 2023. - 165 b.

ISSN 2181-2993

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Adilbekova, D.B. - t.f.d., professor
(O'zbekiston)

Pulatov, Sh.N. – PhD., dotsent
(O'zbekiston)

TAHRIR KENGASHI:**FALSAFA FANLARI:**

Huseynov, Sakit – Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi falsafa va sotsiologiya instituti professori, fal.f.d., prof. (Ozarbayjon)

FILOLOGIYA FANLARI:

Sayilov, Qalib – Turkiy Jahon Fanlar Akademiyasi direktorlar kengashi raisi, Fil.f.d., prof. (Ozarbayjon)

IJTIMOIIY FANLAR:

Manzarov, Y.X. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti dotsenti, t.f.n., dots.

PEDAGOGIKA FANLARI:

Jumayeva, G.T. – Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD.

HUQUQ FANLARI:

Sharaxmetova, U.Sh. – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, h.f.n., prof.

IQTISODIYOT FANLARI:

Rahimov, A.M. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD.

ANIQ FANLAR:

Metin, Orbay – Amasya universiteti professori, fiz.mat.f.d., prof. (Turkiya)

Kuramboev, Y. – TTA Termiz filiali dotsenti, t.f.d., dots.

Aliqulov, T.A. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Batirov, Z.L. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, t.f.d. (DSc), dots.

Eshmatov, B.E. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Bozorov, O.N. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori, tex.f.n., dots.

Ochilov, Sh.A. – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD., dots.

TEXNIKA FANLARI:

Usmanov, R.M. – Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.,

Haydarov, S.S. – Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, PhD.,

TIBBIYOT FANLARI:

Ibragimov, A.J. – Termiz davlat universiteti O'quv metodik boshqarma boshlig'i, b.f.n., dots.

MUHAMMAD ABU ZAHRA VA ZAH RAT-UT TAFSIR ASARI**Isakdjanov Ramzjon Raximjanovich***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**dotsenti, fal.f.PhD**e-mail: isakdjanov@mail.ru**tel: 90 322 91 74***Pardayev Abdurahim Chori o'g'li***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**stajyor-tadqiqotchisi**e-mail: choriyevich94@mail.ru**tel: 97 140 06 00***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Shayx Muhammad Abu Zahraning shaxsiyati haqida ya'ni bolalik davridan, umrining so'ngiga qadar bo'lgan davr yoritib berilgan. Muhammad Abu Zahra qayerda boshlang'ich ta'limni olganligi, oliy ta'limni qayerda olganligi, mehnat faoliyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Muhammad Abu Zahraning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yozilgan. Ayniqsa Muhammad Abu Zahraning tafsir ilmiga oid qarashlari hamda Zahrat'ut tafsir asarining yozilish tarixi, asar yozilishida foydalanilgan metod va metodikalar haqida alohida-alohida to'xtalib o'tilgan. Muhammad Abu Zahra tafsir ilmi rivojida tutgan o'rni haqida xulosalar keltirilgan. Qur'on va tafsir Abu Zahraning hayotida hamisha bo'lgan. Bu jarayon yoshligida Qur'onni yod olishdan boshlab, vafotigacha davom etgan. U fiqh ilmiga va fiqh darslariga ko'proq vaqt ajratganligi tufayli tafsir ilmidan biroz uzoqlashgan bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan tafsir ilmiga oid konferensiya va majlislar orqali tafsirga bo'lgan qiziqishi va tafsir ilmini o'rganishni davom ettirgan. U kuchli faqih bo'lishidan tashqari, «Livau'l-Islom» jurnalida oyat tafsirlariga yozgan maqolalari va radioda 40 dan ortiq oyat tafsirlariga oid chiqishlari bilan o'zini yetuk Qur'on sharhlovchisi ekanligini isbotlagan. Qozilar Madrasasi Saroyidagi tafsir darslarini o'tishga Abu Zahra tayinlangani tafsir ilmida u kishining tafsirda ilmida ham yetuk olimlardanligining isboti bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Qur'on, sura, oyat, qiroat, tafsir, tafsir ilmi, kalom ilmi, fiqh, sunnat, sahobalar, tobeinlar, mufasssir.*

KIRISH (Introduction)

Muhammad Abu Zahra 1898 yil 29 mart kuni Misrning ilm, iqtisod, savdo va sanoat markazlaridan biri hisoblangan “Mahallatu’l-Kubro” shahrida, islomiy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan va hurmatga sazovor oila bo‘lgan Abu Zahra oilasida tug‘ilgan. U o‘z davrining yuqori saviyali ilmiy madrasalarida ta‘lim olgan. U o‘tkir aql-zakovati, kuchli mulohazalari va izchil fikrlari bilan do‘stlari orasida e‘tiborni tortgan.¹

Hayoti davomida Qur‘on va tafsir ilmlariga oid asarlar, notiqlik san‘antiga oid asarlar, fiqh, usulul fiqh, mantiqqa oid, fuqaho va mujtahidlar hayotiga oid biografik, siyosat va oila tartibi, asosiy inson huquqlari va erkinliklaridan tortib diniy ilm va dinshunoslik sohalariga oid saksonga yaqin juda foydali asarlar yozgan.

Abu Zahra ilmi shaxs bo‘lishi bilan bir qatorda taqvoli, qanoatli, go‘zal axloqli, mutaassiblikdan yiroq, aqidada ahli sunnat, fiqhda esa hanafiy mazhabida bo‘lgan.² Har doim millat va mamlakat manfaatlarini barcha manfaatlardan ustun qo‘ygan. Hatto davlat arboblari ham Qur‘on va Sunnatga zid bo‘lgan amallarda ochiqdan-ochiq qarshilik ko‘rsatgan.³

Muhammad Abu Zahraning bolaligidan umrining oxirigacha uning ilmiy hayoti va faoliyati quyidagicha rivojlandi: Dindor sifatida tanilgan otasi Ahmad Abu Zahra va onasi Hadirexonim tomonidan Qur‘on yod olish uchun yuborilgan va 9 yoshida yodlashni yakunlagan. Maktabda o‘qish va yozishni o‘rgangan⁴. U Islom ilmlari bilan bir qatorda aniq fanlarni ham o‘rgandi (matematika, geografiya).

1913-yilda Mirsning mashhur shaharlaridan biri bo‘lgan Tantaga boradi va “ikkinchi Azhar” nomini olgan Al-Ahmadiyya universitetiga o‘qishga kiradi. Abu Zahra u erdagi uch yillik o‘qish davomida ajoyib yutuqlar va yuqori natijalarga erishadi. Bu bilimlarni o‘ziga yetarli deb, hisoblamay 1916-yilda, shariat sudlari uchun qozilar, kotiblar, advokatlar va muftiylar tayyorlaydigan “Qozilar madrasasi”ga o‘qishga kiradi. To‘qqiz yil o‘qigan ushbu madrasani 1925 yilda “Doktor” unvoni bilan tamomlaydi.

1925 yilda inson huquqlarini himoya qilish va ularga yordam berish maqsadida bir yil davomida stajyor advokat (huquqshunos) bo‘lib ishlaydi. Bu stajyorlik uning

¹ Abdü’l-Müiz Abdülhamid el-Cezzar, “Min a’lâmi’l-Ezher: Muhammed Ebû Zehre”, Mecelletü’l-Ezher, Kahire 1984, c. LVI, sayı. 8, s.1266-1273; Ahmed Fuat Paşa, Mevsûatü a’lâmi’l-fikri’l-İslâmî: Muhammed Ebû Zehre, Kahire 1984, s. 901; Hayreddin Zirikli, el-A’lâm: Kâmûsu terâcim, Dâru’l-İlm li’l-Melayin, Beyrut 1996, VI, 25-26.

² Muhammed Osman Şübeyr, Muhammed Ebû Zehre, İmâmü’l-fukahâi’l-muâsırîn ve’l-müdâfiu’l-cerîu an-hakâiki’d-dîn, Dâru’l-Kalem, Dimeşk 2006, s. 56-80; Saffet Köse, “Muhammed Ebû Zehre”, DİA, TDV, İstanbul 2005, XXX, 480-481.

³ Ebû Zehre, La Conception de la guerre dans l’Islam (Son Bariş Çağrısı), Cemal Aydın (çev.), Şüle Yayınları, İstanbul 1998, s. 1

⁴ Nasır Mahmud Vehdan, Ebû Zehre: Âlimen İslâmiyyen, hayatuhû ve menhecuhû fi buhûsihî ve kütübihî, Şirketi’n-Nas li’t-Tibaa, Kahire 1996, s. 11, 34

shar'iy ilmlarga bo'lgan munosabati va bu ilmlarni sharhlashdagi uslubini shakllantirdi.⁵ Bir yillik huquqshunoslik amaliyotidan so'ng tayyorgarlik bosqichida arab tili va fiqh fanlaridan dars bera boshlaydi, tafsir saboqlarini beradi. Qozilar madrasasiga o'qituvchi etib tayinlanadi va bu vazifani uch yil bajaradi.

Shundan keyin Abu Zahra uchun o'qituvchilik hayoti boshlanadi. 1933-yildan al-Azhar universitetiga qarashli "Usulid-Din" kulliyasining maorif, ritorika, din va mazhablar bo'limida o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Mualliflik hayotini ham bu yerda o'qitgan saboqlari haqida yozgan asarlari bilan boshlagan. Uning "Notiqlik", "Tarihu'l-adil", "Tarihu'd-diyonati" kabi asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan. "Diyonat-ul-qodimiy", "Muhadarat fi'n-Nasroniyya" asarlarini ham shu davrda yozishni boshlagan.

1934-yil 2-noyabrda o'sha paytda I.Fuad universiteti deb atalgan Qohira universitetining huquq fakultetiga notiqlik o'qituvchisi, oradan bir yil o'tib esa islom huquqi fani o'qituvchisi lavozimiga tayinlangan. Keyinchalik Islom huquqi kafedrasini mudiri lavozimida ishlagan.

1934-1942 yillarda Usulid-din fakultetida mehmon ma'ruzachi sifatida ma'ruzalarini davom ettirgan. Abu Zahra Islom tadqiqotlari jamiyati a'zosi edi. 1952-yilda Islom tadqiqotlari institutining tashkil etilishida katta hissa qo'shgan va bu institutda dars berishdan tashqari islom huquqi kafedrasini mudiri vazifalarini ham o'z zimmasiga olgan. Hanafiy va Shofe'iy mazhablari bo'yicha kodifikatsiya komissiyasi rahbari bo'lgan. Abu Zahra 1963-1964 yillarda al-Azhar universitetining Biznes boshqaruvi fakultetida islom huquqi fanidan dars bergan.⁶

MUHOKAMA VA NATIJALAR (Discussion and results)

Abu Zahra o'zining beqiyos sa'y-harakatlari, fidoyiligi, jasorati bilan, bergan saboqlari va yozgan asarlari bilan umrini islomga va musulmonlarga xizmat qilishga bag'ishlagan. 1973 yilning oxirida Iskandariya universitetida va Qohira universitetlarida Musulmon yoshlar jamiyati bilan birgalikda islomga hujum qilganlarga qarshi kurash uchun ko'plab konferensiya va yig'ilishlar uyushtirgan. Bundan tashqari Ijtimoiy ishlar vazirligining "Oila qonuni" loyihasi doirasi ajralish, ko'pxotinlilikni cheklash va oila qurish bo'yicha al-Azhar va Islomshunoslik akademiyasida ma'ruzalar o'qigan.

⁵ Ebû Bekir Abdürrezzâk, Ebû Zehre: İmâmu asrihî, hayâtühû ve eserühü'l-ilmiyyü, Dâru'l-İ'tisâm, Kahire 1985, s. 25-30.

⁶ Enver el-Cündî, "Muhammed Ebû Zehre", A'lâmü'l-karnî'r-rabia aşere el-hicri: A'lâmü'd-da'veti ve'l-fikr, Mektebetü'l-Encelü'l-Misriyye, Kahire 1981, s. 35-49; Saffet Köse, "Muhammed Ebû Zehre: Hayati, İslâm Hukuku ve Diğer Disiplinlerle İlgili Bazı Görüşleri", İslâm Hukuku Araştırmaları Dergisi, 2005, s. 479-496.

1974-yiling aprelida u izlanishlari doirasida diniy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, yangi huquqiy muammolarni hal qilish uchun "Islomning zamonaviy muammolari" deb nomlangan milliy konferensiya o'tkazishga qaror qilgan va konferensiyaga raislik qilish vazifasi bir ovozdan Abu Zahraga topshirilgan.⁷

U yig'ilish joyida izlanishlari doirasida so'ngi ma'ruzalarini qilgandi. Chunki, konferensiyadan so'ng uyiga qaytib, uyining yuqori qavatidagi kutubxonaga chiqadi. Maqsadi, o'zi boshlagan Naml surasining tafsirini davom ettirish bo'lgan. Biroq oradan biroz vaqt o'tib, bir qo'lida tafsir qog'ozlari va birida qaxva finjoni bilan zinadan pastga tushayotganda yiqilgan va tafsir qog'ozlari ustiga sajda holatida turib qolgan.

Bu yiqilish tufayli boshidan yaralangan va juma namozidan o'sha kun oqshomiga qadar hushidan ketishda davom etgan Abu Zahra 1974-yil 12-aprel kuni 77 yoshida vafot etgan. Vafotining ikkinchi kuni 1974 yil 13 aprel shanba kuni al-Azhar universiteti qabristonida dafn qilingan.

Muhammad Abu Zahra ilmni, odob-axloqini, fazilatini o'sha davrning yetuk ustozlaridan olgan. Ustozlari tufayli yuksak axloq, hikmatli diniy ilm, fiqhda teranlik, tafakkurda ulkan martabaga erishdi. Maorif, axloq, huquq va vatanparvarlik borasida o'rnak olgan ustozlaridan ba'zilari quyidagilar: Ta'lim: Ahmad Ibrohim (1955- yilda vafot etgan); Huquq: Muhammad Ahmad Faras as-Sanhuri (vaf. 1977); Axloq: Muhammad Atif Barakat (vaf. 1924); Vatanparvarlik: Abdulvahhob Azzam (vaf. 1959); Adabiyot: Ahmad Amin (vaf. 1954); Fiqh: Ali Muhammad al-Hafif (vaf. 1978) va Abdulvahhob Hallaf (vaf. 1956); Notiqlik: Muhammad Ahmad az-Zavahiriyy (vaf. 1944), Abdulhamit Hasan (vaf. 1976) va S'ad b. Ibrohim Zaglul (vaf. 1927).

Muhammad Abu Zahra Axloqiy, siyosiy, adabiy, fikriy va boshqa ko'plab sohalarda, ayniqsa bilim va jasoratda o'z davrining taniqli olimlaridan biri sanalgan.

Uning ma'rifiy va g'oyaviy dunyoqarashlaridan bahramand bo'lgan turli sohalarda ko'plab shogirdlari bor. Uning g'oyalarini to'g'ridan-to'g'ri va kitoblaridan foydalanib, o'zlashtirishga, tatbiq etishga va tarqatishga harakat qilgan ba'zi shogirdlari quyidagilardir: Tafsir ilmi: Ahmad Sayyid al-Kumiy; Islom tarixida: Muhammad at-Toyyib an-Najjor (vaf. 1991); Huquq: Abdulaziz Muso Amir; Fiqh: Muhammad G'azali (vaf. 1996), Sayyid Kutup (vaf. 1966), Yusuf b. Abdillab al-Kardavi, Zakariya al-Barri, Salah Abu Ismoil, Vahba Zuhayli va Ahmad Fathi Surur.

⁷ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, Dâru'l-Fikri'l-Arabî, Kahire 2002, I, 10-11; X, 5482

Zahratu't tafsir asari haqida

Qur'on va tafsir Abu Zahraning hayotida hamisha bo'lgan. Bu jarayon yoshligida Qur'onni yod olishdan boshlab, vafotigacha davom etgan.

U fiqh ilmiga va fiqh darslariga ko'proq vaqt ajratganligi tufayli tafsir ilmidan biroz uzoqlashgan bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan tafsir ilmiga oid konferensiya va majlislar orqali tafsirga bo'lgan qiziqishi va tafsir ilmini o'rganishni davom ettirgan. U kuchli faqih bo'lishidan tashqari, «Livau'l-Islom» jurnalida oyat tafsirlariga yozgan maqolalari va radioda 40 dan ortiq oyat tafsirlariga oid chiqishlari bilan o'zini yetuk Qur'on sharhlovchisi ekanligini isbotlagan. Qozilar Madrasasi Saroyidagi tafsir darslarini o'tishga Abu Zahra tayinlangani tafsir ilmida u kishining tafsirda ilmida ham yetuk olimlardanligining isboti bo'ladi. Shu bilan birga, 1960 yilda Avqof vazirligi tomonidan Abu Zahra Qur'onning qisqa, ixcham va tushunarli tafsirini tayyorlash va bu tafsirni boshqa tillarda tarjima qilish maqsadida tuzilgan o'ttiz yetti nafar olimdan iborat komissiya raisi etib tayinlangan.

Darhaqiqat, mashaqqatli mehnat natijasida Al-Muhtasar fi Tafsir al-Quran al-Karim tafsiri tayyorlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu Zahraning vafotigacha bo'lgan davrdagi Qur'on tafsiriga oid ilmiy izlanishlari, radio chiqishlari, Qur'on haqidagi tadqiqotlari va maqolalari e'tiborga olinsa, u zotning Qur'on ilmlarini o'rganishda va tafsir sohasi rivojida ham katta hissasi borligi ko'rinadi.

Muallifning Zahratu't-tafsir asarini yozishdagi yondashuvlari

1. Yozma sharhdan

Abu Zahra Qur'on tafsirini yozishdan maqsadini tafsir muqaddimasida aytib o'tgan. Abu Zahraning fikricha:

a. Keng yoki qisqa yozilgan tafsirlar bu sohada muvozanatni ta'minlay olmaydi. Bu esa juda uzun ham emas, qisqa ham bo'lmagan o'rta hajmli tafsirning yozilishiga sabab bo'ldi. Chunki klassik tafsirlarda mazhablar, fiqhiy qarashlar, dramatik tahlillar yoki bahsli masalalar, kelishmovchiliklar va turli qarashlarning batafsil bayoni munozara uslubida tarqalib ketgan. Shuning uchun Qur'onning mo'jizaviy tomoni yashirin bo'lib qolgan. Boshqa tomondan, Qur'onning asl mohiyatini qisqa tafsirlarda ko'rib bo'lmaydi. Tafsir Qur'on ma'nolari atrofida muhokama qilingan bo'lsa-da ma'nolar to'liq ochib berilmagan.

b. Garchi bu Qur'oni Karim tamoyillariga zid bo'lsa-da, tafsirchilarning ma'no bo'yicha kelishib olishlari boshqalarni ham o'zlari bilan birga xato qilishga majbur

qiladi. Masalan, *فَوْقَ بَعْضِهِمْ وَرَفَعْنَا الدُّنْيَاَ الْحَيَاةَ فِي مَعِيشَتِهِمْ بَيْنَهُمْ قَسَمْنَا نَحْنُ رَبِّكَ رَحْمَتَ يَفْسُمُونَ أَهْمَ* Ma'nosi: Yoki ular Robbingning rahmatini taqsimlaydilarimi? Biz hayoti dunyoda ularning oralarida maishatlarini taqsimladik va ba'zilar ba'zilarini xizmatkor qilib olishlari uchun ayrimlarining darajalarini ayrimlaridan ustun qilib qo'yganmiz. Robbingning rahmati ular jamlaydigan narsadan yaxshidir [Zuxruf surasi 32-oyat].⁸ Oyating tafsiriga nazar tashlasak, mufassirlar tafsiriga ko'ra, bu oyatda boyning kambag'aldan ustun ekanligi aytiladi, bu tushuncha islom tamoyillariga ham, din asoslariga ham mos kelmaydi. Bunda bizning vazifamiz ana shunday ma'nolarni isloh qilish va Qur'oni Karim sha'ni va payg'ambarlik kamolotiga muvofiq to'g'ri so'z aytishdir. Ularning ma'nolarini ochib berish uchun tafsirimizni yozishga kirishdik.⁹

2. Abu Zahra tafsirlarida qabul qilingan asoslar:

Abu Zahra o'z tafsirlarida ko'rib chiqqan va foydalangan tamoyillarni quyidagicha sanab o'tish mumkin.

a. Qur'on va Sunnatning boshqa dalillardan ustunligi: Oyatlarni tafsir qilishda Qur'on va Sunnatning boshqa dalillardan ustunligini amalda ko'p ishlatgan.¹⁰

b. Siyoq va siboq (bog'lama)ga murojaat qilish: Siyoqga ishora qilish, oyatdan keyin kelgan misralarga murojaat qilib, bayt yoki undagi mavzuni ma'nosini bir ma'noda izohlash demakdir. Abu Zahra aytishicha: "Oyatning bu ma'nosi ko'pchilik mufassirlar ittifoq qilgan va rozi bo'lgan ma'nodir"¹¹ "Bu ma'no oyatning mavzusiga mos keladigan kuchli ma'nodir".¹² "Bu tarjimamiz oyatning ma'nosiga to'g'ri keladi".¹³ Shu kabi iboralar bilan tafsirda oyatga murojaat qilishning naqadar muhimligiga ishora qilib, oyatlarni shu tamoyilga muvofiq talqin qilishini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga siboqqa baytdan oldingi misra, mavzu va iboraga e'tibor bergan; "Bu oyat oldingi oyat (siboq bilan) bilan bog'liqdir." "Ushbu oyat bilan undan oldingi oyat o'rtasidagi munosabat mana shundaydir." Oyatlarni oldingi va keyingi bilan bir butun qilib talqin qilishga harakat qilgan.

c. Oyating o'ziga xosligini ko'rsatuvchi aniq dalil bo'lmagan holda mavzuning umumiylikiga ko'ra ma'no berishdir. Mufassirlar bu usulni tafsir qilishning umumiy uslublaridan sanashadi va usulni yoki uslubni amaliyotda ko'p uchratish mumkin. Shunga ko'ra Abu Zahra ham o'z tafsirida bu uslubdan foydalangan. Zarur bo'lganda so'zlarga maxsus ma'nolar bergan.

⁸ Zuhruf, 43/32.

⁹ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 19

¹⁰ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 241

¹¹ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 595

¹² Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 999

¹³ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 636

d. Abu Zahra oyatni yoki oyatlarni zohiriy ma'nosiga ko'ra tafsir qilish kerak deydi. Chunki uning zohiriy ma'nosini berishga to'sqinlik qiladigan hech qanday to'siq yo'q ya'ni Allohning kalomiga hech qanday e'tiroz va savol bo'lishi mumkin emas, oyatlarga zohiriy ma'nodan boshqa ma'no bermaslik kerak. Abu Zahra shu kabi tamoyillar bilan tafsir masalasiga e'tibor qaratdi. Islom huquqi va Qur'on ilmlariga oid asarlarida o'z tafsirida foydalangan metodlarini bayon etgan va zohiriy ma'nodan boshqa ma'nolar to'g'ri emasligini qayd qilgan.¹⁴

3. Tafsirda rivoyat va aniqlik usuli

Garchi tafsirlar turli tomonlardan baholanib, tarjimonlarning holati va usullaridan kelib chiqib, turli metodlarga bo'lingan bo'lsa-da, ular manbaga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

a. Rivoyat qilingan tafsir:

Qur'oni Karimning ba'zi oyatlari Payg'ambar (s.a.v.)ning so'zlari va sahobalarining so'zlari bilan tafsir qilishiga asoslangan tafsir turidir. Ba'zilar bunga tobe'inlarning so'zlarini ham qo'shadilar. Bu manbalar asosida tuzilgan tafsir "naqliy" tafsir yoki "rivoyat qilingan tafsir" deb hamataladi.¹⁵

a1. Qur'onning Qur'on bilan tafsiri:

Islom ulamolari mujmal va mavhum oyatlarni izohlashda eng ishonchli tafsir Qur'onning o'zi ekanligini ta'kidlaydi.¹⁶ Abu Zahra ham bu yo'nalishda Qur'onni Qur'on bilan sharhlashga birinchi o'rinni berdi. Bu usulni tez-tez ishlatgan. U mujmalni tasvirlashda, mutlaqni qayd etishda, mavhum ma'noni anglatishda, afzal ma'noni kuchaytirishda, qisqa va ixcham tarzda bayon qilingan oyatlarni boshqa misralar bilan izohlashda, qarama-qarshi ko'ringan oyatlar orasidagi ziddiyat haqidagi noto'g'ri tushunchani yo'q qilishda ishlatgan. Umumiy bo'lgan narsalarni taqsimlashda va shunga o'xshash masalalarni yoritishda Qur'on tafsiridan foydalangan.

a2. Qiroat ilmi tafsiri:

Tafsir harakatlarida qiroat ilmi muhim o'rin tutadi. Chunki mufassirlar Qiroatlarga asoslanib, oyatlardan turli hukmlar olganlar. Abu Zahra esa faqat qiroatdagi farqlarni ko'rsatish bilan kifoyalanib qolmay, qiroatdagi tafvutlardan kelib chiqadigan erob yoki irob holatlarni va fiqhiy masalalardagi ixtiloflarni ham ko'rsatgan.

¹⁴ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 341; VI, 2806

¹⁵ Muhammed es-Seyyid Hüseyin ez-Zehbî, et-Tefsir ve'l-müfessirün, Şirketü Dâru'l-Erkam bin Übey el-Erkam, Beyrut ts., I, 105

¹⁶ İsmail Cerrahoğlu, Tefsir Tarihi, Fecr Yayınları, Ankara 2005, s. 37-38.

Bu holatlarni oyat va hadislar bilan isbotlagan. Shu nuqtai nazardan, Abu Zahra qiroatlarning o'zgarishi bilan yuzaga keladigan turli ma'nolar o'zgarishini ko'rsatgan. Ba'zida turli qiroat bilan ochilgan ma'nolarni jamlagan bo'lsa, vaqti-vaqti ular orasidan afzalroq ma'noligini tanlab tafsiriga kiritgan.

a3. Qur'onning sunnat bilan tafsiri:

Rivoyat tafsirining ikkinchi manbasi Payg'ambarimiz(s.a.v.)ning izohlari bilan qilingan Qur'on tafsiridir.¹⁷ Barcha sohabalar va salaf ulamolari, xususan, tafsir ilmi bilan shug'ullanuvchilar Qur'on oyatlarni tafsir qilishda sunnatga murojaat qilganlar.¹⁸

Abu Zahra ham o'z tafsirida sunnatdan maksimal darajada foydalangan. Tafsirda Sunnatning manba ekanligi va bu usuldan foydalanish haqida ba'zi misollarga e'tibor bersak: Oyatga tegishli va oyat ma'nosiga mos keladigan hadislarini zikr qiladi. Qur'onni tafsir qiluvchi; Oyatlarining tafsirida ularni izohlovchi hadislarini zikr qilgan.

U o'z tafsirlarida uning tafsirini dalillovchi hadislarini tayanch sifatida tilga olgan. Xuddi shunday, agar biror oyat haqida turlicha fikrlar bo'lsa, fikrlarni alohida aytib o'tgan va nima uchun o'zi afzal ko'rgan fikrni ma'qullaganini va shu fikrga mos keladigan hadisni keltirgan.

Hadisning zohiriy ma'nosi oyatga zid deb hisoblangan hollarda, hadisning oyatga zid emasligini; Oyatni hadis bilan uyg'unlashtirib tafsir qilgan.

U hadislarini yetkazishda asosan manba sifatida foydalangan tafsirga ishora qilgan va ularni qisqa qilish maqsadida hadislarining hujjat va ko'chirmalarini tilga olmagan.¹⁹

Majburiy yo'l bilan qilingan talqinlarni va tasodifiy qilingan talqinlarni, hadis dalillarni keltirish orqali rad etdi.

Hadislarining sahihligi va sahihmi yoki yo'qligini kamdan-kam tilga oldi: "Buxoriydan rivoyat qilingan." "Muslim o'zining "Sahihi"sida rivoyat qilgan." "Buxoriyda, Muslim, Ahmad ibn Hanbalning "Musnadi" va Imom Shofiiyning "Musnad"larida Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan."

Sahihan/Sahihayn"da rivoyat qilingan", "Ibn Moja Umar (r.a.)dan rivoyat qilgan",⁵⁶ kabi iboralar bilan hadislar rivoyat qilgan.

E'tiqod bilan bog'liq (aqidaviy) oyatlarni tafsir qilishda ohad hadislarini dalillarni qabul qilinmagan.²⁰

¹⁷ Sadreddin Gümüş, Kur'an Tefsirinin Kaynakları, Kayıhan Yayınları, İstanbul 1990, s. 45

¹⁸ Yakup Çiçek, Tefsir Usûlü, Sofya 1995, s. 99

¹⁹ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, V, 1511

²⁰ Ebû Zehre, el-Mu'cizetü'l-kübrâ: el-Kur'an, s. 560

Abu Zahra, umuman olganda hadislardan; oyatda berilgan ma'noning to'g'riligini tasdiqlash uchun, oyatdagi so'zni izohlash uchun, uning tafsiriga dalil bo'lishi uchun, to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'noni ifodalovchi oyatlarni izohlash va mavhumlikni ochiqlash uchun foydalangan.

a4. Qur'onning sahobalar so'zlari bilan tafsiri:

Qur'onni tafsir etishda Qur'on va payg'ambarimiz (s.a.v.)dan keying o'rinda Qur'on tafsirini Nabi sollallohu alayhi vasallamdan tinglagan va o'rgangan olgan sahobalardir.²¹ Abu Zahra ko'p bo'lmasa-da, tafsirlarida sahobalarning rivoyatlaridan foydalangan. Bu rivoyatlarni asosan nomi bilan zikr qilgan. Rivoyatlarda, asosan, Ibn Abbas⁶⁵ va Ibn Mas'ud⁶⁶ sharhlarini; vaqti vaqti bilan Hazrati Abu Bakr, 67 Hazrati Umar⁶⁸ va Hazrati Alining 69 ta qarashlarini aytib o'tgan.

a5. Qur'onning Tobiyn so'zlaridagi tafsiri:

Qur'on tafsirida zikr qilingan manbalardan biri sahobalar darajasida bo'lmasa-da, bu sohada muhim o'ringa ega bo'lgan tobiinlarning tafsiridir.²² Abu Zahra tafsirda tobeinlarning o'rni bilan sahobalarning tafsirdagi o'rni deyarli bir xil degan. Qur'onda, sunnatda va sahobalarning so'zlarida biror masalada aniq hukm bo'lmasa, tobeinlarning so'zlariga murojaat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Mujohid Hasan Basriy va Ibn Jubayr kabi ko'plab tobiyn mufasssirlaridan iqtiboslar keltirgan. Jumladan, isroiliyat tipidagi xabarlarni tafsirga kiritmaslik masalasida sezgir bo'lib, bunday xabarlarning tafsirga kiritilishiga qattiq e'tiroz bildirgan.²³

b. Diroyat tafsiri:

Mufasssir Arab tili va adabiyotining har bir jabhasini, arabcha iboraning barcha jihatlarini, uning nozil bo'lish sabablarini, Qur'oni karimning nasx va bekor qilingan oyatlarini va tafsirga muhtoj bo'lgan boshqa masalalarni bilgandan keyin, Qur'on tafsirini nafaqat rivoyatlar bilan tafsir qilish bilan cheklanmasdan, o'ziga xos ijthod bilan ham talqin qilish mumkin deb bilgan. Shu tarzda talqin qilingan tafsirlar "ra'y bilan tafsir" yoki "ma'qul tafsir" deb ham ataladi.²⁴

b1. Tafsirning lingvistik (til) jihati:

Qur'onning ma'nolarini to'la anglash va tafsir qila olish uchun, arab tilining taraqqiyotini, tuzilishini, izohlanish uslubini, sarv va nahv ilmlarining nozik tomonlarini bilish kerak. Abu Zahraning fikricha, tafsir ilmida til juda muhim o'rin tutadi; Payg'ambarimiz (s.a.v.), sahobalar va tobeinlardan keyingi uchinchi tafsir

²¹ Muhammed Aydın, Genel Tefsir Kuralları, Nûn Yayıncılık, İstanbul 2009, s. 57-58.

²² Zehebî, a.g.e., I, 69

²³ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 29-30.

²⁴ Zehebî, a.g.e., I, 170

manbasi tildir degan.²⁵ U shuning uchun oyatlardagi so'zlarni lug`at, nahv va balog`at nuqtai nazaridan ko`rib chiqqan va izohlagan.

Lug`at ilmi nuqtai nazaridan: Abu Zahra so`zning kelib chiqishi va lug`aviy manosini izohlagan, so`zning lug`aviy va istilohiy ma`nolari o`rtasidagi bog`lanishni ko`rsatgan, bir nechta manoga ega bo`lgan so`zning turli manolarini izohlagan. So'zning turli xil ma'nolarini ko'rsatgandan so'ng, ushbu oyatda nazarda tutilgan ma'noni bergan. So'zning kelib chiqishi (majburiy-zarur) jihatidan mano o'zgarishini ta'kidlagan. So'zning turli ma'nolarini bildirgandan keyin o'zining afzal ko'rgan manosiga ishora qilgan va qarama-qarshi (zid) ma'noli so'zlarning farqini aytib, lug`at ilmidan ko'p foydalangan.

Sarf-Nahv ilmi nuqtai nazaridan: Abu Zahra o'z tafsirida juda ko'p oyatlar tafsirlariga ko'proq aniqlashtirish va ularni yaxshiroq tushunish uchun sarf va nahv qoidalarini kiritgan. So'zlarning jumlada turli o`rinlarda ishlatilishi va ularning turli xil ma'nolarda kelishini; kesim, ot yoki sifatdosh ekanligini; Bundan tashqari zarur joylarda muftada-xabar,²⁶ mafulo mutlaq,²⁷ i'lal,²⁸ hadif, istisno²⁹ va shunga o'xshash sarf va nahv qoidalarini qisqa, aniq va tushunarli tarzda ta'kidlab o'tgan.

Bazan nahvchilarning fikricha Qur'onga zid bo`lgan til qoidalari "Allohning kitobi Qur'on sarf va til olimlari belgilagan qoidalardan ustundir".

"Nahvchilarning qoidalari odamlar uchun majburiydir, ular Qur'on uchun majburiy emas." u quyidagi fikrlarni tanqid qildi va rad etdi".³⁰

Balog`at ilmi nuqtai nazaridan: Ta'rif, mano va jasn ilmlaridan iborat bo`lgan balog`at ilmi Qur'ondagi betakror lug`at uslubi va nozikligini ochib berish, so'zlarda nazarda tutilgan ma'noni anglash uchun mufassis bilishi lozim bo`lgan ilmlardandir. Abu Zahraning balog`at ilmining ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi ma'no va adabiy san'atlaridan mohirona foydalanganligini uning tafsirida Qur'on ruhidan chiqmagan holda o'z qarashlariga mos ravishda foydalanayotganini ko'ramiz.

Bu bo`limda, bayon ilmi qismlaridan; majoz, kinoya, tashbeh, taqqoslash va o`xshatish san'atlarini tez-tez ishlatgan; mano ilmining qoidalaridan bo`lgan ijaz, itnob, takror, tak'id, iltifot, taqdim va istifhom san'atlariga ham so`zda ham gapda ham ishora qilgan. Tafsirda badiiylik ilmiga oid misollarni oz bolsada ko`rishimiz mumkin.

b2. Tafsirning kalomga oid jihati:

²⁵ Ebû Zehre, el-Mu'cizetü'l-Kur'ân: el-Kur'ân, s. 586

²⁶ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, VIII, 3961

²⁷ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, III, 1435; VI, 3149

²⁸ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, VII, 3551

²⁹ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, VII, 4086

³⁰ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, V, 2362

Islom dinining e'tiqod asoslari bo'yicha muxoliflar tomonidan ilgari surilgan shubha va e'tirozlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli shubhalarni bartaraf etish maqsadida diniy aqidalarning isbotini qat'iy dalillar yordamida mustahkamlashni maqsad qilgan fan sohasi "Kalom ilmi" deb ataladi.³¹ Tafsirida kalom sohasidagi munozarali masalalar haqida so'z yuritilgan oyatlarning tafsirini turli mazhablarning fikrlari asosida tushuntirishga harakat qilgan Abu Zahra, kalom masalalari izohida odatda Zamaxshariydan iqtibos keltirgan.

Tafsirda tavid (Allohning borligi va birligi) dalili, sifatulloh qonunidan: istivo' va yod (qo'l) sifati; payg'ambarlik masalasi: rasul va nabiy o'rtasidagi farq, payg'ambarlarga iymon keltirish zaruriyat, payg'ambarlar orasida fazilat darajasi, payg'ambar erkak kishi bo'lganliklari, Iso alayhissalomning nasl-nasabi va shifoati kabi muhim diniy masalalarni o'z uslub va tamoyillari asosida talqin qilgan.

b3. Abu Zahraning fiqh ilmiga oid qarashi va fiqhiy metodi:

Abu Zahraning fiqh merosi sharq va g'arb musulmonlariga o'z ta'siri, yo'naltiruvchilik kuchi va sohasining kengligi jihatidan qoldirgan tengi yo'q eng yaxshi ilmiy boylik deb qabul qilinadi. Barcha ijtimoiy muammolarni hisobgan olgan va biz yashayotgan davrdagi muomlarning yechimini shu merosdan topsa bo'ladi.³²

Ayniqsa, ahkom oyatlarini tafsir qilishda boshqa oyatlarga nisbatan kengroq va diqqatga sazovor tafsirlar qilgani e'tibordan chetda qolmaydi. U tafsirda fiqh metodini shunday ifodalaydi: "Ahkom oyatlarini tafsir qilishdagi uslubimiz; Ibotatlar, nikoh va boshqa ahkomlarga oid masalalarda Qur'on bilan sobit bo'lgan hukmlarni qavliy va amaliy sunnat yordamida tushuntirishdir. Xuddi shu tarzda; Sunnatning izohiga muhtoj sezgan ahkom oyatlarimizni sunnat-i nabaviyya yordamida, ba'zan sunnat bilan ittifoq bo'lgan qarashni tanlash, ba'zan esa nassga yaqin bo'lgan nuqtai nazarni tanlash bilan amalga oshiriladi." Abu Zahraning tafsir muqaddimasida yozgan bu qarashlarini inobatga olsak, tafsirdagi fiqh uslubiga oid quyidagi fikrlarga e'tibor qaratiladi:

Fiqhiy masalada mutaassiblikdan yiroq bo'lish: U o'z tafsirda o'zi ko'rgan har bir mavzuni barcha jihati bilan yaxshilab tekshirib ko'rgan. Bu borada oyatlar va hadislariga o'rin berib, fiqhning mohiyatiga ko'ra, har xil mutaassiblik, dalilsiz taqlid va aqliy sustlikdan saqlangan holda, faqat Qur'on va sunnatga amal qilib, dalil bilan tafsir qilgan. Ahkom oyatlarini tafsir qilar ekan to'rt mazhab va vaqti-vaqti bilan Jafariya va Imomiya kabi boshqa imomlarning qarashlarini ham tafsirda kiritgan. Bazan biror mavzudagi bir qarash bilan qanoatlanar, bazida ikki mazhab o'rtasidagi turli qarashlarni tilga olardi. Bazan o'zi aytgan fikrni hech qanday havolasiz, uning

³¹ Bekir Topaloğlu, Kelâm İlmi, Damla Yayınevi, İstanbul 1996, s. 49

³² Köse, "Muhammed Ebû Zehre", İslâm Hukuku Araştırmaları Dergisi, İHAD, s. 483-486.

kinga va qaysi mazhabga mansubligini ko`rsatmay turib bergan. Ba'zi o`rinlarda bu ko`pchilik fiqh ulamolarining fikridir deya fiqhiy hukmni oyati karimaga tayangan holda izohlagan. Tafsiirining mutaassiblikdan yiroq bo`lgan umumiy talqini diqqatni tortsa-da, Hanafiy fiqhiga moyil fiqhiy talqinni qo`llaganligi e`tibordan chetda qolmaydi. Jumladan, hanafiy fiqhining qarashlari batafsilroq va tez-tez keltiriladi.³³ Xuddi shunday, ba`zan Hanafiy mazhabining nuqtai nazari yanada aniqroq va amalga oshirish osonroq ekanligi ta`kidlanadi.

Oyatga yaqinroq va sunnatga mos keladigan fiqhiy qarashlarga to`xtalib: Oyatning mohiyati va manosidan uzoq bo`lgan fiqhiy bahslarga kirishish o`rniga, U o`z tafsiirida oyat ma`nosiga yaqinroq bo`lgan, sunnatga to`g`ri keladigan mazhab qarashlariga o`rin bergan.³⁴ Fiqhiy mavzularni tasniflashda: Oyatdagi har qanday fiqhiy hukmni turli nuqtai nazardan tasniflash zarur bo`lganda, o`quvchining tafakkurida chalkashlik keltirib chiqarmaslik uchun mavzularni bir-biriga qo`shmasdan, alohida tafsiirlagan va taqdim etgan. Abu Zahraning bunday uslubili turli oyatlar tafsiirida tez-tez uchrab turadi va bu usul o`quvchiga mavzuni osonroq tushunish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Aslini olganda, oyatlar mazmunida; o`g`irlik jazosi, zino jazosi birdan uch taloq bilan ajralish, ko`p xotinli nikoh va foiz,ribo kabi fiqh masalalarida o`ziga xos va diqqatga sazovor sharhlar bergan.

XULOSA (Conclusion)

Abu Zahra tafsiirlarini Qur'on va Sunnat asosida hamda o`z davrigacha bo`lgan umumiy ma'lumotlar va farqlarni hisobga olgan holda, o`z bilimlaridan ko`p narsalarni qo`shib yozganini bilish mumkin. Bulardan tashqari, islom tamoyillari va g`arb sivilizatsiyasiga nisbatan turlicha qarashlarni hisobga olgan holda; huquqshunoslik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa ko`p masala va muammolarni tafsiiriga kiritgan.

Xulosa qilib aytganda tafsiirda shakl va mazmun jihatdan diqqatni tortadigan fikrlarni quyidagicha keltirish mumkin:

1. Garchi Rivoyat usuli qo`llanilgan bo`lsa-da, hikmatli bo`lgan bu tafsiirda Qur'on oyatlari alohida alohida olinib tafsiir qilingan; Tafsiir qilishning ishonchli yo`llaridan biri bo`lgan Qur'oni Qur'on bilan va sunnat bilan tafsiir qilishga katta ahamiyat berilgan. Binobarin sahobalar va tobe'inlarning so'zlaridan; ya'ni rivoyatlarga asoslangan har xil tafsiir materiallaridan foydalanilgan.

2. Umuman oyatlar moddiylashtirilib qilib tafsiir qilingan.

³³ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 805-806; V, 2341; V, 2343; V, 2360

³⁴ Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 760-764.

3. Har bir suraning tafsirida o'sha suraga kirish sifatida yozilgan muqaddima yozilgan bo'lib unda surada nechta oyat borligi va qayerda nozil qilinganligi, umumiy mavzu Makkiy suralardagi mazmun va madinada nozil bo'lgan oyatlar kabi masalalar rivoyatlar asosida bayon etilgan.

4. Tafsilarning turli fikrlarini muhosaga keltirilgan, qarashlar o'rtasida ziddiyat yoki farq yo'qligi, bu fikrlarni bir-biriga moslashtirish mumkinligi, huddi shu usul uning tomonidan amalga oshirilganligi aytilgan.

5. Tafsirda ko'plab manbalardan unumli foydalanilgan. Islom olamida qabul qilingan tafsirlardan iqtibos keltirish orqali ko'plab fikrlar birlashtirilgan. Ismlarni shaxsan zikr qilish orqali Tabariy, Ibn Kasir, Zamahshariy, Kurtubiy, Roziy, Qodi Baydaviy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo kabi ko'plab mufasssirlarning fikrlari keltirilgan. Vaqti-vaqti bilan Alusiyan va ba'zi boshqa tafsilardan hamda ilmiy ishlardan ham foydalanilgan.

6. Agar oyat nozil bo'lishiga oid bir mazmunda bir nechta rivoyat bo'lsa, u rivoyatlar umumlashtirilib, bir ma'no ostida beriladi. Ba'zi o'rinlarda nozil bo'lish sababiga oid turli rivoyatlar aytilgandan so'ng, oyatga eng yaqin bo'lgan rivoyatga afzallik berilgan va o'sha rivoyat zikr qilingan.

7. Qiroat xususiyatlari va farqlari bayon qilingan va shu farqlarga ko'ra oyatning ma'nolari izohlangan. Olinishi mumkin bo'lgan ma'nolar ko'rsatilgan.

8. Faqih bo'lganligi sababli uning tafsilorida fiqhiy uslublari e'tibordan chetda qolmaydi. Shu sababli u tafsirda ko'plab fiqh masalalari bilan shug'ullangan – toshbo'ron qilishni qabul qilmaslik, uch taloq bilan taloqni bir taloq (taloq) deb qabul qilish, bir necha xotin bilan turmush qurish, toshbo'ron qilish, sunnat qilish kabi huquqiy masalalarda o'ziga xos yechimlar berib, bu sohada o'z o'rnini borligini isbotladi.

9. Hanafiy mazhabi g'oyalari fiqh masalalariga kiritilgan bo'lsada, boshqa mazhablarning ham o'z tushunchalariga mos keladigan qarashlari bayon etilgan. Hanafiy mazhabi nuqtai nazarini birinchi o'rinda tutishga harakat qilinsa-da, Imomi A'zam, Imom Shofiiy, Imom Molik, Imom Ahmad b. Hanbal, Imom Muhammad va Imom Abu Yusufning qarashlaridan ham yetarlicha foydalanilgan.

10. Mujmal va mushkil oyatlar izohlangan bo'lib, Qur'onda ijoz, nozil bo'lish sabablari, Qur'on qissalari kabi va boshqa bir qator Qur'on ilmlari tilga olingan.

11. Suraning boshida keladigan "Harf-i Muqatto" harflari mavzusiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bu o'rinda salafi solihlarning qarashlari bilan bir qatorda uning o'z qarashlarini ham tafsirga kiritgan.

12. Oyatlar orasidagi munosabatga rioya qilingan. Tafsirda oyatning siyoq va siboqligi mazmuni hisobga olingan va shunga muvofiq tafsir qilingan.

13. Oyatdagi lafzning o'ziga xosligi haqida ishonchli va qat'iy dalil bo'lmasa, lafz umumiy baholanib, oyatga umumiy ma'no berilgan.

14. Qur'on qissalari haqida gap ketganda; qissalar Qur'onning asosiy maqsadiga mos ravishda bayon qilinganligi va bu qissalardan qanday saboq va ibrat olish kerakligi ta'kidlangan va ularga qanday tamoyillar asosida amal qilish kerakligi haqida qisqacha aytib berishga harakat qilingan. Abu Zahra isroiliyaga nisbatan o'ta nozik va sinchkovlik bilan yondoshgan. Qur'onga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi deb tekshirib ko'rgan. Ko'pincha shunday qissalarni tafsirlarga kiritib qo'yilishi haqida shikoyat qilgan.

15. Kalam ilmiga oid oyatlar tafsir qilinayotgan bo'lsa-da, aksariyat hollarda ular batafsil bayon qilinmagan; tavhid (Allohning borligi va birligi), sifatlar (sifatulloh), iymon, e'tiqod, shafolat, Iso alayhissalomning yerga qayta tushishi kabi ko'plab ilohiy masalalar Ahli sunnat qarashlari doirasida bayon qilingan. Vaqti-vaqti bilan mo'taziliy qarashlarga murojaat qilingan.

16. Mutashobeh oyatlarni tafsir qilishda oyatning zohiriy ma'nosidan ko'ra oyatning asl ma'nosi afzal ko'rilgan. Boshqacha qilib aytganda, oyat boshqa oyatlardan qo'llab-quvvatlash orqali mos ravishda tafsir qilingan.

17. Ortiqcha tafsilotlar keltirilmasdan oyatlarning ma'nolari aniqroq bo'lishi va tushunarli bo'lishi uchun lug'at, sarf va nahv qoidalari keltirilgan, Zarur bo'lmasa, sarf va nahv hukmlari zikr qilinmagan. Qolaversa, jummalarda iste'fo, istifhom, kechiktirish, tak'id, takror, hazf, ilol kabi holatlarga ham tez-tez to'xtalib o'tiladi. She'riyatdan juda oz bo'lsada qo'llangan, oyatlardagi balog'at va uning nozikliklariga ya'ni, bayon, ma'no va badiiy san'atga oid mavzular keng yoritilgan.

18. Avvalo oyatlar to'g'ridan-to'g'ri ma'noda tafsir qilingan. Agar kuchli dalil bo'lsagina asl ma'nodan boshqacha tafsir qilish mumkinligiga ishora qilgan. Abu Zahra o'z asarlarini yozish aynan shu prinsipdan foydalangan, ya'ni, "So'z (lafz)ning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini bermaslikka majbur qiladigan qat'iy dalil bo'lmasa, har doim so'zning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga murojaat qilish" tamoyilidan foydalanib asarlarini yozgan.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdü'l-Müiz Abdülhamid el-Cezzar, "Min a'lâmi'l-Ezher: Muhammed Ebû Zehre", Mecelletü'l-Ezher, Kahire 1984, c. LVI, sayı. 8, s.1266-1273; Ahmed Fuat Paşa, Mevsûatü a'lâmi'l-fikri'l-İslâmî: Muhammed Ebû Zehre, Kahire 1984, s. 901; Hayreddin Zirikli, el-A'lâm: Kâmûsu terâcim, Dâru'l-İlm li'l-Melayin, Beyrut 1996, VI, 25-26.

2. Muhammed Osman Şübeyr, Muhammed Ebû Zehre, İmâmü'l-fukahâi'l-muâsirîn ve'l-müdâfiu'l-cerîu an-hakâiki'd-dîn, Dâru'l-Kalem, Dimeşk 2006, s. 56-80; Saffet Köse, "Muhammed Ebû Zehre", DİA, TDV, İstanbul 2005, XXX, 480-481.
3. Ebû Zehre, La Conception de la guerre dans l'Islam (Son Barış Çağrısı), Cemal Aydın (çev.), Şûle Yayınları, İstanbul 1998, s. 1
4. Nasır Mahmud Vehdan, Ebû Zehre: Âlimen İslâmiyyen, hayatuhû ve menhecuhû fî buhûsihî ve kütübihî, Şirketi'n-Nas li't-Tıbaa, Kahire 1996, s. 11, 34
5. Ebû Bekir Abdürrezzâk, Ebû Zehre: İmâmu asrihî, hayâtühû ve eserühû'l-ilmiiyyü, Dâru'l-İ'tisâm, Kahire 1985, s. 25-30.
6. Enver el-Cündî, "Muhammed Ebû Zehre", A'lâmü'l-karni'r-rabia aşere el-hicri: A'lâmü'd-da'veti ve'l-fikr, Mektebetü'l-Encelü'l-Mısriyye, Kahire 1981, s. 35-49; Saffet Köse, "Muhammed Ebû Zehre: Hayatı, İslâm Hukuku ve Diğer Disiplinlerle İlgili Bazı Görüşleri", İslâm Hukuku Araştırmaları Dergisi, 2005, s. 479-496.
7. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, Dâru'l-Fikri'l-Arabî, Kahire 2002, I, 10-11; X, 5482
8. Zuhruf, 43/32.
9. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 19
10. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 341; VI, 2806
11. Muhammed es-Seyyid Hüseyin ez-Zehebî, et-Tefsir ve'l-müfessirûn, Şirketü Dâru'l-Erkam bin Übey el-Erkam, Beyrut ts., I, 105
12. İsmail Cerrahoğlu, Tefsir Tarihi, Fecr Yayınları, Ankara 2005, s. 37-38.
13. Sadreddin Gümüş, Kur'ân Tefsirinin Kaynakları, Kayıhan Yayınları, İstanbul 1990, s. 45
14. Yakup Çiçek, Tefsir Usûlü, Sofya 1995, s. 99
15. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, V, 1511
16. Ebû Zehre, el-Mu'cizetü'l-kübrâ: el-Kur'ân, s. 560
17. Muhammed Aydın, Genel Tefsir Kuralları, Nûn Yayıncılık, İstanbul 2009, s. 57-58.
18. Zehebî, a.g.e., I, 69
19. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, I, 29-30.
20. Zehebî, a.g.e., I, 170
21. Ebû Zehre, el-Mu'cizetü'l-Kur'ân: el-Kur'ân, s. 586
22. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, VIII, 3961
23. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, III, 1435; VI, 3149
24. Bekir Topaloğlu, Kelâm İlmi, Damla Yayınevi, İstanbul 1996, s. 49
25. Köse, "Muhammed Ebû Zehre", İslâm Hukuku Araştırmaları Dergisi, İHAD, s. 483-486.



-
26. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 805-806; V, 2341; V, 2343; V, 2360
27. Ebû Zehre, Zehretü't-tefâsîr, II, 760-764.

УМАР ТЕРМИЗИЙНИНГ “ИХЛОС КИТОБИ”ДА КЕЛТИРИЛГАН ЎН БИТТА ҲАДИСЛАР ҲАҚИДА



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10373731>

Муҳиддин Чориев

Имом Термизий халқаро

илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Умар Термизийнинг “Ихлос китоби”да келтирилган ҳадис илми ҳақида манбалар таҳлил қилинган. Биз агар Умар термизийнинг ҳаётини ва қолдирган мерсони ўрганадаган бўлсак. Шу нарса аниқ бўладики у киши сўфий ва воиз бўлганликлиги.

Килим сўзлар: *Умар Термизий, “Ихлос китоби”, ҳадис илми, ўн битта ҳадис.*

ABSTRACT

This article analyzes the sources of the science of hadith presented in Umar Termizi's "Book of Sincerity". If we study the life and legacy of Umar Termiz. It is clear that he was a Sufi and a preacher.

Key words: *Umar Tirmidhi, "Ikhlās Kitobi", hadith science, eleven hadiths.*

КИРИШ (Introduction)

Умар термизий яшаган ўрта асрларда моварауннаҳда тариқат анча ривожланган давр эди. Бу эса Умар термизийнинг тариқат аҳлидан бўлишлигига сабаблардан бири эди.

Умар термизийнинг “Ихлос китоби” асарида келдирилган ҳадисларни таҳлил қилиб кўрадиган бўлсак бунга гувоҳ бўламиз. Умар термизий ҳам бошқа сўфийлар каби ҳадиснинг саҳиҳ ёки заифлигига эътибор бермайди. Келтираётган ҳадисларининг аксари тўқима ёки заиф ҳадисларни ташкил этади. У кишининг ихлос китобида келтирилган ҳадисларни таҳлил қилиб кўрамиз.

فالناس كلهم هلكى الا العالمون و العالمون كلهم هلكى الا العاملون و العاملون كلهم هلكى الا المخلصون
و المخلصون على خطر عظيم

Расулуллоҳ соллоҳу алайҳи ва салламдан: “Олимлардан бошқа барча одамлар ҳалокатда, олимларнинг амал қилгувчиларидан ташқари барчаси

ҳалокатда, барча амал қилгувчи олимларнинг ихлос қилгувчиларидан бошқаси ҳалокатда, ихлос қилгувчилар эса катта хатардадир”.

Ушбу ҳадис Умар термизийнинг ихлос китобида келтирилган биринчи ҳадис бўлиб. Ҳадис уломалари бу ҳадисни мавзуъ яни тўқима ҳадислар жумласидан дейишган. Баъзи тариқат аҳиллари матинни озгана ўзгартириб яъни “ҳалокатга учрабди” сўзи ўрнига “ғарқ бўлибди” калимаси ёки “маст бўлибди” калимаси билан айтишади. Яна бошқалари “ўликлар” ёки “уйқудалар” ёки “мағрурлар” ва турли кўринишда айтишади.

و قال حسن رضي الله عنه: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم يقول الله تبارك و تعالى الاخلاص سر من اسراري استودعته قلب من احببته من عبادي

Ушбу асардаги иккинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак.

Ҳасан розияллоҳу анҳу айтдилар: “Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам дедилар:” Аллоҳ таоло айтади: **“Ихлос менинг сирларимдан бир сирдир, уни мен бандаларимдан яхши кўрган кишиларимнинг қалбига омонат қўйдим”.**

Ушбу ҳадисни муҳаддис уломалари Ҳасан розияллоҳу анҳудан ривоят қилинган дейишади. Қазвинийнинг силсиласида шундай ривоят қилинади. Фалончидан ихлос ҳақида сўрадим, бас у киши Аҳмад ибн Аъто ал-хужаймийдан у киши Абдулвоҳид ибн Зайддан у киши Ҳузайфадан у киши Пайғамбар алайҳиссаломдан у киши Жаброилдан: Аллоҳ таоло айтади: **“Ихлос менинг сирларимдан бир сирдир, уни мен бандаларимдан яхши кўрган кишиларимнинг қалбига омонат қўйдим”.** Муҳаддис уломалари ровийлар силсиласидаги Аҳмад ибн Аъто ал-хужаймий ва Абдулвоҳид ибн Зайд аҳли сўфийлардан эди ривоят қилган ҳадислари матрук дейишди. Ушбу ҳадисни Абулқосим Қушайрий Али ибн Абутолибдан заиф санад билан ривоят қилган.

وعن مصعب بن سعد عن ابيه رضي الله عنه قال ظنّ ابي ان له فضلا على من دونه من اصحاب رسول الله صلى الله عليه و سلم فقال : قال لي رسول الله صلى الله عليه و سلم انما نصر الله هذه الامة بضغفاتها و دعوتهم و اخلاصهم و صلاتهم

Ушбу асардаги учинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак. Мусъаб ибн Саъд розияллоҳу анҳу оталаридан ривоят қилади: “Отам Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг асҳоблари ичида ўзини фазилатлироқ деб ўйлаб шундай дедилар:” Менга Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Аллоҳ мана бу умматга заифлари, уларнинг дуолари ва намозлари ва ихлослари туфайли нусрат беради”.** Ушбу ҳадисни муҳаддис уломалари бир овоздан саҳиҳ ҳадислигини айтишади. Имом бухорийнинг “саҳиҳ ал-Бухорий” асарида 2896-риқам билан ривоят қилинган.

قال رسول الله صلى الله عليه وسلم ما من عبد يخلص العمل لله تعالى اربعين يوما الا ظهرت ينابيع الحكمة من قلبه على لسانه

Ушбу асардаги тўртинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Қирқ кун амалларини холис Аллоҳ учун сидқидилдан бажарган кишининг ҳикмат булоқлари қалбидан тилига кўчади”**. Муҳаддис уломалари ушбу ҳадисда бир қанча илатларни санаб ўтишади. Ҳажжож ибн Артот ушбу ҳадисни жуда заиф ва ровийларда ва матинда кўп ҳатоликлар бор дейди. Воситий ҳам бунга қўшимча қилиб ибн Ҳиббон хатолик кўп бўлиб ровийлар орасидаги ҳатоликлар ҳам бор. Муҳаммад ибн Исмоил бу ҳадисни мажхул ҳадис деб заиф ҳадислардан деди.

فان رسول الله صلى الله عليه وسلم قال لمعاذ رضي الله عنه اخلص العمل يجزك منه القليل

Ушбу асардаги бешинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак:

Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам Муъоз ибн Жабал розияллоҳу анҳуга: **“Амалингни холис қил. Шунда унинг ози ҳам сенга кифоя қилади”**.

Муҳаддис уломалар ушбу ҳадисни Абу Нуайим “Хилятул авлиё” асарида 1/244 да ривоят қилган. Имом Байҳақий эса “Шўъбил Имон” асарида 6859 рақам билан ривоят қилган. Ҳоким “Мустадрок” асарининг 7844 рақам билан ривоят қилганликларини ўрганиб чиқиб заиф санашган.

يا رب كنت اتصدق اناء الليل و اطراف النهار فيقول الله سبحانه كذبت و تقول الملائكة كذبت بل اردت ان يقال فلان جواد الا و قد قيل ذلك و رجل قُتل في سبيل الله فيقول الله تعالى ماذا صنعت فيقول يا رب أمرت بالجهاد فقاتلت حتى قُتل فيقول الله كذبت و تقول الملائكة كذبت بل اردت أن تقال فلان شجاع ألا و قد قيل ذلك و قال ابو هريرة رضي الله عنه ثم خط رسول الله صلى الله عليه وسلم على فخذى و قال يا ابا هريرة اولئك اول خلق تسعر بهم نار جحيم يوم القيامة

Ушбу асардаги олтинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васаллам: **“Албатта, қиёмат куни биринчи бўлиб уч кишининг ҳукми чиқади. Бир илм ўрганган кишини олиб келиниб, сўнгра: ундан Аллоҳ Таоло**

Булар ила нима қилдинг? деб сўрайди.

Сенга кеча-кундуз ибодат қилиб турдим, дейди.

Ёлғон айтдинг ва фаришталар ҳам ёлғон айтдинг дейди. Сен, илмни у олим, дейилиш учун ўргандинг, шундоқ дейилди ҳам дейди У зот.

Сўнг яна бир одамки, Аллоҳ унинг ризқини кенг қилиб, турли молларнинг барчасидан бериб қўйган эди. Бас, уни олиб келиниб:

Булар ила нима қилдинг? деб сўрайди.

Сенинг йўлингда кечаю-кундуз инфоқ қилдим, дейди.

Ёлғон айтдинг ва фаришталар ҳам ёлғон айтдинг дейди. Сен сахий, дейилиш учун қилдинг, шундоқ дейилди ҳам, дейди У зот.

Сўнг шаҳид бўлган одам. Уни олиб келиниб. Сўнггра:

Булар ила нима қилдинг? деб сўрайди.

Сенинг йўлингда жанг қилдим, ахийри шаҳид бўлдим, дейди.

Ёлғон айтдинг ва фаришталар ҳам ёлғон айтдинг дейди сен “шижоатли” дейилиш учун жанг қилдинг, шундоқ дейилди ҳам, дейди У зот. Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳу айтди: Сўнг, Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васаллам сонимга бармоқларини кўйиб: “Эй Абу Ҳурайра ана улар қиёмат куни энг аввал қиёмат кун жаҳаннам ўтида куядиганлар” дедилар.

Муҳаддис уломалари ушбу ҳадисни ўрганиб, имом Термизий “Сунан ат-Термизий” асарида 2382-рақам билан ривоят қилганлигини айтади. Муҳаддис уломалар ушбу ҳадисни хасан ғариб ҳадислар жумласидан санайди.

و روى معاذ رضى الله عنه قال صلى الله عليه وسلم: أدنى الرياء شرك

Ушбу асардаги еттинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Муоз розияллоҳу анҳудан Расулуллоҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Риёнинг энг кичкинаси ширкдир”**. Муҳаддис уломалар ушбу ҳадисни, Ибн Можжа3979 рақам билан, Ҳоким Мустадракда, Ибн абу Ҳотим Жарх ва таъдилда 1/474/4 да ривоят қилган санадларни ўрганиб чиқиб жуда заиф санд дейишди.

وقال ابو هريرة رضى الله عنه عن النبي صلى الله عليه وسلم انه يقال لمن اشرك في عمله خذ اجرک ممن عملت له

Ушбу асардаги саккизинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Абу Ҳурайра розияллоҳу анҳудан: Расулуллоҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Амалида ширк қилган кишига айтилади, амалингнинг ажрини ширк келтирган одамидан ол”**.

Ушбу ҳадисни Имоми Муслим “Саҳиҳи Муслим” асарида 2985-рақам билан озгина ихтилоф билан ривоят қилган. ушбу ҳадисни Муслим матинда биров фарқли ривоят қилган маъно эса деярли бир хил. Муҳаддис уломалари ушбу ҳадисни саҳиҳ ҳадис жумласидан санаган.

و روى ابو موسى الاشعري رضى الله عنه: ان عرابيا اتى النبي صلى الله عليه وسلم فق

ال له يا رسول الله : الرجل يقاتل حمية و الرجل يقاتل شجاعة و الرجل يقاتل ليرى مكانه في سبيل الله تعالى فقال صلى الله عليه وسلم من قاتل لتكون كلمة الله هي العليا فهو في سبيل الله

Бир аъробий Расулуллоҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам хузурига келиб деди. Ё, Расулуллоҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам бир киши борки ор учун жанг

қилади, яна бир киши ўзини баҳодир бўлиш учун жанг қилади, яна бир киши Аллоҳ ҳузуридан бир жой умид қилиб жанг қилади? Расулulloҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Аллоҳнинг калимаси олий бўлиш учун жанг қилаётган киши Аллоҳнинг йўлидадир”**.

Ушбу асардаги тўққизинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Ушбу ҳадис имом ал-Бухорийнинг “Саҳиҳ ал – Бухорий” асарида 3126-ҳадис билан ривоят қилган бўлиб саҳиҳ ҳадислар жумласидан.

قال صلى الله عليه وسلم : افتترقت اليهود على احدى و سبعين فرقة و افتترقت النصارى على اثني و سبعين فرقة و ستفترق امتي على ثلاث و سبعين فرقة الناجية منها واحدة.

Пайғамбар алайҳис салом айтдилар: **“Яҳудийлар етмиш бир фирқага, насоролар етмиш икки фирқага ва менинг умматим эса етмиш уч фирқага бўлиниб, шулардан биттаси нажот топувчидир.”** Бошқа бир ривоятда: **“фақат саводул аъзам (катта жамоат) дан бошқаси дўзахда,”**- дедилар. Яна бир ривоятда: **“Адашган ва адаштирувчи фирқаларнинг барчаси дўзахга бошлайди,”**- дедилар. Ушбу асардаги тўққизинчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Мазкур ҳадис машҳур ҳадис бўлиб бир қанча муҳаддис уломалар ўзларини китобларида ривоят қилган. Жумладан: Абу Дувуд ва Термизий ва ибн Можжа ва Ҳоким ва имом Муслим шартларига кўра саҳиҳи санашди.

قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: اتبعوا ولا تتبدعوا و بشروا و لا تنفروا و يسروا و لا تعسروا و اياكم و الحدث و البدع فكل محدثة بدعة و كل بدعة ضلالة و كل ضلالة الى النار اياكم و التبذع و التعمق فان شرار عباد الله المتعمقون المتشدقون فمن اراد بحبوة الجنة فليزم الجماعة و من شذ في النار.

Расулulloҳ соллоллаҳу алайҳи васаллам айтдилар: **“Эргашинглар ўзларингдан бир янгилик чиқарманглар, башорат беринглар, нафратлангирманглар, енгил қилинглар, оғир қилманглар, бидъатдан сақланинглар ҳар бир янглик бир бидъатдир ва ҳар бир бидъат залолатдир ва барча залолат дўзахдадир. Бидъат қилишдан ва динда ғулу кетишдан сақланинглар, Бандаларнинг ёмонлари ғулу кетган вайсақилардир. Кимда-ким жаннатнинг боғларини хоҳласа, жамоатни лозим тутсин, кимки жамоатдан ажраса дўзахдадир”**.

Ушбу асардаги ўнбиринчи ҳадисни ўрганиб чиқадиган бўлсак: Мазкур ҳадис бир қанча ҳадисларни аралаштириб битта ҳадис сифатида ривоят қилинмоқда. Аслида эса **“башорат беринглар, нафратлангирманглар, енгил қилинглар, оғир қилманглар”** бу алоҳида битта ҳадисди уни Абу Дувуд ва Термизий, Муслим ва бошқалар ривоят қилган. Яна **“бидъатдан сақланинглар ҳар бир янглик бир бидъатдир ва ҳар бир бидъат залолатдир ва барча залолат дўзахдадир”** бу қисми ҳам алоҳида саҳиҳ ҳадис бўлиб Абу Дувуд

5407-raqam bilan, Terмизий 2676-raqam bilan va ibn Можжо 42-raqam bilan rivojat qilingan. Va yana “Эргашинглар. ўзларингдан бир янгилик чиқарманглар” бу ҳам алоҳида бир ҳадис бўлиб уни имом Доримий “Сунан ад-Доримий”да 211-raqam остида rivojat қилган.

Умар Термизийнинг “Ихлос” асарида кетирилган ўн бир дона ҳадисни ўрганиб чиқишга ҳаракат қилдик.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Умар Термизий. Тафсири суратил ихлос.
2. Исмоил Бухорий. Саҳиҳ ал-Бухорий.
3. Абу Исо Муҳаммад. Сунан ат-Термизий.
4. Имом Муслим. Сунан ал-Муслим.
5. Имом Доримий. Сунан ад-Доримий.

O‘ZBEK TILIDA DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING SHEVAVIY XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/org/10.5281/zenodo.10397419>

XUDOYNAZAROVA O‘g‘lonoy Allamurodovna

*Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrası
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.*

ANNOTATSIYA

Bir-biriga qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi sheva va dialektlar bir-biridan farq qilishi barchamizga ma‘lum. Diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarini o‘rganish esa ikki til o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni yanada kengroq aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *din, barqaror birliklar, sheva, dialekt, lahja,*

ABSTRACT

It is well known that dialects and dialects differ between related and non-related languages. Studying the dialectal features of stable religious units serves to more broadly define the common and specific aspects between the two languages.

Key words: *religion, stable units, dialect.*

KIRISH

“Sheva” atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma‘nolarni ifodalab, biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismidir. “Lahja” arabcha so‘z bo‘lib ifoda, so‘z, sheva, ovoz kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Dialekt-yunoncha sheva, so‘zlashish ma‘nolarini; lahja-arabcha ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma‘nolarini bildiradi. Shu xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisidir. Masalan: o‘g‘uz lahjasi qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi kabi.³⁵

MUHOKAMA NATIJALAR

Axborot manbalarida sheva, lahja, dialekt termini o‘rnida idioma terminini ham qo‘llashadi. Idioma-o‘zga qarindosh tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil tildir. Ingliz tilshunoslari Chambers J.K va Piter Trudgillar *idioma* termini o‘rnida *variety-farqlilik* terminini qo‘llaydi³⁶.

³⁵ Yoqub Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. Buxoro.Durdona nashriyoti. 2021.

³⁶ Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent. 2016. B.147

O'zbek lingvistikasida Oллоh, farishta, shayton leksemasi bilan bog'liq juda ko'p diniy barqaror birliklar mavjud bo'lib, ular turli lahjalarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan: Oллоh chorladi, Oллоhga omonatini topshirdi birikmalarining shevada quyidagi ko'rinishlari mavjud: *tamam bo'ldi, uzildi, jan berdi, qaza qildi, dunyadan yeti, napayt bo'ldi*. *Napayt bo'ldi* birligi asosan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.³⁷ *Худо урган бадйага йеддъ палпъснъ зърънтъ* birligi Xiva shevasiga mansub birlikdir.³⁸

Oллоh qo'llasin barqaror birikmasini ayrim holatlarda *Oлло qo'llasin* shaklida ham talaffuz etishadi. Bu holatda birinchi so'zdagi undosh tovushning tushishi-apokopa kuzatiladi. Bundan tashqari islomiy so'z hisoblanmish Alloh yarlaqasin ma'nosini bildiruvchi *Barakalloh* birligi so'zlashuv nutqida *barakalla* sifatida ham qo'llaniladi va bu so'z aslida arabcha *Barakallah feek* so'zidan kelib chiqqan.

Bibi mushkulkushod-forscha mushkulni oson qiladigan ayol. Bibi mushkulkushod So'fiylik tariqatiga asos solgan Bahouddin Naqshbandiyning xolasi sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda ushbu so'zning *bo'mushkul* shakli mavjud.³⁹ Diniy barqaror birikmalar lahjalarda shakllanish jarayonida bir qator fonetik hodisalar ham kuzatiladi. Jumladan: assimilatsiya hodisasi, odatda unli va undoshlar tizimida baravar qayd etiladi, ammo ular tilning konsonantizm hodisasi tizimida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jarayon progressiv va regressive assmilatsiyaga bo'linadi. Regressiv assimilatsiya hodisasiga o'zbek tilidagi *Oллоhu akbar* termining *Oblohu akbar* shaklida talaffuz qilinishini misol qilishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, Samarqand va Buxoro shevasidan boshqa barcha shevalarda **f** harfi **p** tarzida talaffuz etiladi. Shu tufayli *Xudo shifo bersin* birligi ba'zida *Xudo shifo bersin* tarzida ham qo'llaniladi.

Ayrim diniy barqaror birliklarning shevaviy xususiyatlarda ikki xil fonetik hodisa kuzatiladi. Masalan: qarg'ash ma'nosida qo'llaniluvchi *Oллоhning qahriga duchor* bo'lgan birligi qipchoq lahjasida - *Olloning qariga duvchar bo'lgan* tarzida talaffuz etiladi. Ya'ni bu yerda tovush tushishi va tovush orttirilish hodisasi kuzatilmoqda.

Oллоh, Xudo, shayton, jin, farishta leksemali diniy barqaror birikmalarning shevaviy xususiyatlari yana quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Sheytanga dars beredi-shaytonga dars beradi (hiylakor odam).

Jigittin davi kepti, xuda bersin!- Yigitning ishi o'ngidan kelibdi ma'nosida.

³⁷ Nazar Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1996

³⁸ Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Луғат. ЎзФА нашриёти.

³⁹ Islom ensiklopediyasi

Jin-jibir-arabcha jinlar ma'nosida. Qaranada jar jag'alap jirme, jin-jibirlar chalip ketmasin!

Juvarmek-forsiycha. Yigit yoshida, qirg'illagan yoshida o'lmoq. Urushi qurisin, ko'p jigitlar juvarmek bo'ldi. Juvarmek vo'lgirlar jaylavda juvanamdi vo'g'irlapti.

Ilahide, ilahikide-arabcha+turkey so'z. Yaratgandan qilgan gunohlari uchun birovga yomonlik tilash. Ilahide, sho' vo'g'irinin uyi kuyip, vo'g'irlagan qo'yi vo'zig'a qirq xudayi bo'sin!

Nike qiyuv-arabcha+turkcha so'z. Nikoh xutbasini o'qish, nikohni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish. Ilgeri yaxshi edi, bir axshamda ham nike qiyg'ichedi, ham qadelerini vo'tkizgichedi, kegin to'ychi tamasha ko'rgichedi, bilmeymen bu tamildi kim chig'ardi, bir xil jerda to'ydan bir hafta aldin, bir xil jerda uch kun aldin nike qiyip qo'yadilar.

Nikesiga saluv-arabcha+turkcha so'z. Qizni yoki ayolni erkakning nikohiga solish. Kuyav qariyem bo'sa bay dep, bayqushti majburlep sho'nin nikesiga soldilar.

Uyi sinuv-turkiy so'z. Erkak kishining ayolining o'lishi. Bayqushtin uyi sinip, jash balalariman qaldi.

Allag'a amanat-arabcha ibora. Ollohga omonat tarzida qo'llaniladi. Jigitlar Rassiyada, hammesi Allag'a amanat.

Diniy barqaror birliklar so'zlashuv nutqida turli dialekt va shevalarda turlicha namoyon bo'ladi. Jumladan: Xuda raxmet qisin-Xudo raxmat qilsin⁴⁰ (Xuda rahmet qisin katapajan, bergan bir qancha shalilaringizdi axlap guruch qilib jep, bug'dayga jettik, qo'limiz kaltaligidan sizlerdi irzayam qilalmadiq).

Murut avlash-arab, turk tillaridagi so'zlar asosida hosil bo'lgan birikma. Parning o'z muridlaridan nazr yig'ib, duo berish odati. Eshan baba uzaq jo'ldan murut avlap kepti, ag'ayinnardi chaqirinar, kep pirdin duvasini ap ketsinner!

Perishtesi bosim bo'luv-forscha, turkcha so'zlar asosida hosil bo'lgan birlik. Bilimi oshib, yuzi nurga to'lmoq. Bekar jurganinnen mo'llanin aldig'a borib vo'qisan, ham namazlig'indi uyrenesen, ham juzinde perishten basim bo'ladi.

To'rt tamani qibla-turk va arab so'zlari asosida hosil bo'lgan birikma. Bugunnen bashlap ishten bo'shadin, to'rt tamanin qibla, ustingda Xuda, qayaqa ketseng keteber!

Xuda birdi-fors va turk so'zlari asosida hosil bo'lgan birlik. Ollohning yagonaligini o'rta qo'yib ichiladigan qasam. Xuda birdi sizdi jamanlag'an davrede men jo'g'edim!

⁴⁰ O'.A.Xudoynazarova. Ingliz va o'zbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlar. Monografiya. Globe Edit nashriyoti. 2023. 149 b.

Xudaning kuni-forscha-turkcha soʻzlar asosidagi ibora. Har doim. Nime bala, xudaning kuni qantqa talaship ukelerindi jilatasan!

Shaytangʻa hay beruv-arabcha-turkcha soʻzlar asosida shakllangan birlik. Shashtidan tushmoq. Shu gabinge avzuma bir gap kebedi, shaytangʻa hay berdim-da!

XULOSA

Diniy barqaror birikmalar turli lahja va shevalarda turlicha namoyon boʻladi va ular oʻziga xos xususiyatlarga ega. Diniy barqaror birliklar shevalarda aks etganda bir qator fonetik va grammatik oʻzgarishlarga duch keladi. Bu esa ilmiy izlanuvchidan har tomonlama chuqur bilim sohibi boʻlishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Yoqub Saidov. Oʻzbek dialektologiyasi. Oʻquv-metodik qoʻllanma. Buxoro. Durdona nashriyoti. 2021.
2. Ashirboyev Samixon. Oʻzbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent. 2016. B.147
3. Nazar Rajabov. Oʻzbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent. Oʻqituvchi nashriyoti. 1996
4. Ф.А.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Луғат. ЎзФА нашриёти.
5. Islom ensiklopediyasi
6. Oʻ.A.Xudoynazarova. Ingliz va oʻzbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlar. Monografiya. Globe Edit nashriyoti. 2023. 149 b.

SURXON VOHASIDA SOVETCHA ANDOZADAGI MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10397423>

XOLMIRZAYEV Abror Hasan o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi

II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sobiq sovet ittifoqi davrida Surxondaryo viloyatidagi madaniyat muassasalarining faoliyati yoritilgan. Shuningdek, madaniyat muassasalarining faoliyatida sobiq tuzum mafkurasini targ'ib qilishning ahamiyati borasida xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: *madaniyat muassasalari, sovetcha mafkura, Surxon vohasi, madaniy-ma'naviy siyosat.*

ABSTRACT

This article describes the activities of cultural institutions in the Surkhandarya region during the former Soviet Union. Also, conclusions were made about the importance of promoting the ideology of the former regime in the activities of cultural institutions.

Key words: *cultural institutions, Soviet ideology, Surkhan oasis, cultural and spiritual policy.*

KIRISH

O'zbekistonda, jumladan, Surxondaryo viloyatida ham "sovet davlati"ning mazmun-mohiyati va qudratini insonlar ongiga muntazam singdirish maqsadida barcha viloyatlarda "qizil choyxonalar", "qizil klublar" tashkil etildi. Surxondaryo viloyatining milliy-madaniy merosida qizil choyxonaning o'rni va ahamiyati ham katta. 1925-yilda Termizda 2, Sherobodda 4, Denovda 3, Sariosiyoda 2 qizil choyxona ochilgan bo'lib, ularda kommunistik mafkura targ'ib qilindi. Choyxonalar o'zbek xalqi tarbiyasining alohida markazi bo'lib, ijod ahli o'z mehnati samarasini, she'r va qo'shiqlarini xalqimiz bilan baham ko'rdi.

1928-yilda Surxondaryo viloyatida 18 ta "qizil choyxona" va 13 ta "qizil klub" faoliyat yuritgan. Sovet hokimiyati davrida bu choyxonalarning odatiy azaliy faoliyati o'zgartirildi, ularning atamasiga "qizil" so'zi qo'shildi va bu choyxonalar sovet mafkurasini targ'ib qilish uchun ishlatila boshlandi. Qolaversa, "qizil klublar"

asosan Marks, Engels, Lenin, Stalinlarning sovet tuzumi siyosatini tarannum etuvchi, asosan rus tilida yozilgan asarlari bilan ta'minlangan. Bu kutubxonalardan o'zbek tilida yozilgan kitoblarni, ayniqsa, ajdodlardan qolgan asarlarni topish, o'qish qiyin edi. Bularning barchasi "madaniy inqilob" tadbirlarining asl maqsadlaridan biri edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

1925-1930-yillarda O'zbekistondagi mavjud kutubxonalar o'z faoliyatini sovet tuzumi talablari asosida olib bordi. Ma'rifiy ishlarni takomillashtirish va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko'rgazmalari, ma'ruzalar, suhbatlar, anjumanlar, kechalar tashkil etildi.

Sovet hukumati tomonidan kutubxonalar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilganiga qaramay, ularning faoliyatini darhol yaxshilashning imkoni bo'lmadi. 1936-yilda Termiz shahar kutubxonasi vino sotadigan do'konda joylashgan edi. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyati kutubxonasi joylashgan binoda ham aholi o'rtasida keng ko'lamli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning imkoni yo'q edi⁴¹.

1939-yilda kolxoz va sovxozlarda yangi kutubxonalar tashkil etish, mavjud kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish yanada rivojlantirildi. Masalan, Surxondaryo viloyatidagi yirik kutubxonalarning kitob fondlari aholi uchun ochildi. Kutubxona ishining takomillashtirilishi tufayli 1940-yilda viloyatda 99 ta ommaviy kutubxona faoliyat ko'rsatdi. Ammo xodimlar yetarli emasligi sohaning orqaga ketishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1939-yilda Boysun, Sariosiyo, Sho'rchi tuman kutubxonalari xodimlarining birortasi ham maxsus ma'lumotga ega emas edi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimining bo'g'inlaridan biri o'z faoliyatini barcha sovxoz va kolxozlarda, shuningdek, shahar va viloyat markazlarida olib boruvchi klublardir. Partiyaning mafkuraviy ta'sirini kuchaytirish shu darajada izchillik bilan amalga oshirildiki, to'garaklardagi ma'ruzalarni maxsus maktablarda ta'lim olgan xodimlar olib bordi.

Klublar, eng avvalo, sovet davlatining ichki siyosati va mafkuraviy tamoyillarini targ'ib qildilar. Sho'rolar davrida zamonaviy klublar qurish, ularni zamon talablariga javob beradigan texnik jihozlar bilan ta'minlash ishlariga amalda e'tibor berilmadi. Ko'p hollarda to'garaklar birinchi navbatda rasmiyatchilik uchun maktab o'quvchilari bilan to'lib-toshgan edi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar ishining asosiy turlaridan biri badiiy havaskorlik jamoalari edi. Badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etish va ularning faoliyatini

⁴¹ Парфёнов Г.А., Краткая история Сурхандарьинского областного краеведческого музея (1933- 1943 гг.) Архивное дело № 252. –С. 1-4

rivojlantirish to'garaklar faoliyatining o'ziga xos uslubiga aylandi. Bunday davralarda qiziqish va iste'dodga asoslangan yuzlab odamlar birlashdi.

Surxon vohasida tashkil etilgan dramatik, musiqali va xor jamoalari aholi o'rtasida ma'lum darajada faoliyat yuritib, ularning soni yildan-yilga ortib bordi. Masalan, 1934-yilda Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan xalq qo'shiq va raqs ansambllari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham o'z mahoratini namoyish etdi. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida ham bu borada qator muammolar bor edi. Masalan, 1932-1933-yillarda viloyat kolxoz klublarida birorta ham badiiy havaskorlik jamoasi tuzilmagan.

Voha madaniy hayotida Termiz shahrining o'rni beqiyos edi. Shaharda xalq ta'limi, madaniy-ma'rifiy muassasalar jadal rivojlandi. Termizda madaniy-ma'naviy sohaning turli sohalari mavjud bo'lib, ular orasida, ayniqsa teatr, gazetalar, folklor ansambllari, komsomol klublari, qizil choyxonalar alohida o'rin tutadi.

Shahardagi ta'lim muassasalarida tahsil olgan yoshlar vohadagi madaniy-ma'naviy sohada faol edilar. 1940-yilga kelib Surxon vohasida madaniy-ma'naviy sohada band bo'lganlar soni 16962 kishini tashkil etdi.

Surxon vohasining 1917-1941-yillardagi madaniy-ma'naviy hayotini tahlil qilganda, milliy san'atning ma'lum darajada rivojlanganligi seziladi. Kommunistik mafkura ta'siriga qaramay, milliy folklor va san'at vohada ijod namunasi sifatida mahalliy aholi qalbida yashab kelgan. Xususan, xalq homiylari, shoirlar, ijodkorlar, milliy sozandalar, cholg'u sozandalari og'ir zulm ta'sirida ham milliy xor bo'lgan xalqning orzu-umidlarini, niyat va tashvishlarini tarannum etdilar.

Surxondaryo viloyati noyob baxshichilik maktablari shakllangan markazlardan biridir. Vohaning Boysun, Jarqo'rg'on va Sherobod viloyatlarida dostonchilik an'analari hatto sovet hukumati bosimi ostida ham deyarli yashirincha faoliyat ko'rsatgan⁴². Ba'zi baxshilar yangi davrga moslashishga, milliy musiqa san'atining bu qadimiy turini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, Sherobod dostonchilik maktabining yirik namoyandasi Umir Baxshi Safarov o'lkada sovet tuzumining o'rnatilishi bilan bog'liq "Qoraqum", "Dastagul" dostonlari, "Amir Ko'chdi" dostonlarini yaratgan. Siyosiy mafkura tazyiqi ostida xalq dostonlarining epik homiylari – Xizr, qirq chilton, avliyo, pir, payg'ambar, xor bilan bog'liq joylar baxshilar nutqidan olib tashlandi.

1930-yillarda madaniy hayotdagi yana bir muhim o'zgarish teatrlarning paydo bo'lishi bo'ldi. 1935-yil 5-noyabrda Termiz shahrida musiqa va drama teatri o'z faoliyatini boshladi. Teatr ochilishida Afandixon Ismoilovning "G'alaba" spektakli premyerasi namoyish etildi. Bu asardan boshlab, 1930-yillar oxirida teatr spektakllari

⁴² To'xtayev A., Isayev O. Jarqo'rg'on tarixiga oid muhim sanalar. – Termiz: Surxon-nashr, 2017. – B. 7.

galereyasidan K.Yashinning “Ikki kommunist”, “Gulsara”, Hamzaning “Maysaraning ishi”, N.Safarovning “Uyg‘onish” kabi asarlar ham o‘rin oldi. Teatr ijodiy yo‘lining shakllanishiga O.Rixsiev, X.To‘laganov, X.Boboxonova, G.Latipova, Z.Olimova kabi san‘atkorlar katta hissa qo‘shdilar⁴³.

1938-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining “Teatr san‘atining ahvoli va uni yanada takomillashtirish va respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalashdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qildi.

Qarorga ko‘ra, teatr jamoalari, dramaturg va rejissyorlar birinchi navbatda inqilobiy sovet turmush tarzini tarannum etuvchi asarlar sonini ko‘paytirishga e‘tibor qaratishlari kerak edi.

Milliy tarixiy mavzudagi asarlar “Burjua mafkurasiga sig‘inish” sifatida baholandi. 1940-yilda Surxondaryoda 2 ta xalq teatri, jumladan Termiz va Denov teatrlari faoliyat ko‘rsatib, ularda 63 kishi xizmat qildi.

Kino, shubhasiz, madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatining asosiy qismini tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan davrda kino xalq ta‘limining asosiy quroli bo‘lib, kommunistik mafkura g‘oyalarini targ‘ib qilish jarayonida asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. XX asrning 30-yillarida Surxondaryo viloyatida keng ekranli kinoteatrlar qurilishi boshlandi. Denov, Termiz, Sherobod, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on kabi tuman va shaharlarda keng ekranli kinoteatrlar qurish ishlari olib borildi. Termiz shahrida filmlar namoyishi asosan Ofitserlar uyi va M.Gorkiy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida tashkil etildi. Ushbu bog‘da yozgi maxsus kinoteatr tashkil etilgan. Biroq, shunga qaramay, aholiga kino xizmati ko‘rsatish darajasini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Bu borada Surxondaryo viloyati respublikada oxirgi o‘rinda edi. Jumladan, 1940-yilda hududda 25 ta kinoteatr ishlagan. Lekin aholisi soni bo‘yicha Surxondaryoga nisbatan ancha kam bo‘lgan Xorazmda 28 ta, Qoraqalpog‘istonda 33 ta, Sirdaryoda 45 ta kinoteatr faoliyat ko‘rsatgan. Shuni ta‘kidlash kerakki,

1927-yilda Surxondaryo viloyatida radiostansiya ochish uchun davlat byudjetidan 5200 so‘m ajratildi. Bu mablag‘ evaziga Termiz, Sherobod, Denov tumanlariga radioapparat o‘rnatildi.

Sovet davlati o‘z siyosatini amalga oshirishda davriy matbuotdan unumli foydalandi. Shu maqsadda 1932-yilda Termiz shahri, viloyat markazi va tumanlarda gazetalar chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Denovda ilk gazeta lotin alifbosida “Qizil Denov” nomi bilan 1932-yil aprel oyida nashr etilgan⁴⁴.

Madaniy tarbiyada muzeylar alohida o‘rin tutgan. Surxondaryo viloyati tarix-o‘lkashunoslik muzeyining tashkil etilishi ikki fidoyi inson – Gavril Vasilyevich

⁴³ Парфёнов Г.В. История исследования Старого Термеза. – С. 5.

⁴⁴ Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – B. 156.

Parfenov va Georgiy Nikolaevich Maksimov nomi bilan bog‘liq. 1933-yil 17-sentabrda Termiz shahar ijroiya qo‘mitasining majlisida tuman rejalashtirish bo‘limi boshlig‘i R.Gubaydullin va G.V.Parfenovlarning ma‘ruzalari tinglandi. Shu asosda 1933-yil 17-sentabrda Surxondaryo o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etildi. 1933-yil 1-oktabrgacha uning faoliyati maxsus tuzilgan guruhga ishonib topshirilgan⁴⁵.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sovet ittifoqi davrida Surxon vohasida, uning shahar va tumanlarida tashkil etishgan madaniyat muassasalari asosan sovet mafkurasini, kommunistik ruhni singdirishga qaratilgan edi. Ammo shunday bo‘lsa-da, bu davrda voha aholisi ming yillar davomida saqlanib qolgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonchilik, baxshichilik maktablari faoliyatini rivojlantirishga erisha oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 78-ish, 26-varaq.
2. To‘xtayev A., Isayev O. Jarqo‘rg‘on tarixiga oid muhim sanalar. – Termiz: Surxon-nashr, 2017. – B. 32.
3. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazo yev B. Surxondaryo tarix ko‘zgisida. –Toshkent: Sharq, 2001. – B. 382.
4. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. –B. 501.
5. Raimov, M. (2023). BOUT THE HISTORY OF THE INDEPENDENCE OF TERMIZ FROM THE CHIGATOY SHARE. *Modern Science and Research*, 2(5), 1150-1154.
6. Raimov, M. (2023). A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(9), 146-151.
7. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). The Study of The History of Termiz by Researchers. *Genius Repository*, 26, 24-27.
8. Safar o‘g‘li, R. M. (2023). TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 37-41.

⁴⁵ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 78-ish, 26-varaq.

O'RTA OSIYODAGI ANTIK DAVLATLAR BOSHQARUVINING BIR-BIRIDAN FARQI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10397429>

JO'RAYEV Ilhom Abdisattorovich

Termiz davlat universiteti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) yo'nalishi

II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyodagi Yunon-baqtriya, Parfiya va boshqa davlat uyushmalaridagi boshqaruv shakllari to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Ushbu davlatlardagi boshqaruvning o'zaro o'xshash va bir-biridan farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, antik davr, Yunon-Baqtriya, Parfiya, boshqaruv shakllari, hokimiyat.*

ABSTRACT

This article presents opinions on the forms of governance in Greco-Bactria, Parthia and other state associations in Central Asia. Similar and different aspects of management in these countries have been comparatively analyzed.

Key words: *Central Asia, antiquity, Greco-Bactria, Parthia, forms of government, power.*

KIRISH

Miloddan avvalgi VI asrda O'rta Osiyoning janubidagi dehqonchilik vohalari Fors Ahamoniylar davlatining asoschisi Kir shoh tomonidan bosib olingan. Ikki yuz yil davomida O'rta Osiyoning butun janubi Ahamoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan va uning butun hududi satrapliklarga bo'lingan. O'rta Osiyo satrapliklaridan uchta – Baqtriya, So'g'd, Xorazm hozirgi O'zbekiston hududida to'liq yoki qisman joylashgan birinchi qadimgi davlatlar edi. O'rta Osiyoning erksevar xalqlari forslar zulmi ostida yashay olmadilar. Bosqinchilarga qarshi tez-tez norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida Xorazm doimiy kurash natijasida mustaqillikka erishdi. Xorazmlilar ortidan saklar mustaqillikka erishdilar. Ko'plab qo'zg'olonlar forslarni zaiflashtirdi, Ahamoniylar hukmronligi makedoniyalik Iskandar qo'shini kelishi bilan yakunlandi. Miloddan avvalgi 323-yilda Iskandar

vafotidan keyin So'g'd yunon sarkardasi Salavka tomonidan asos solingan Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi⁴⁶.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Miloddan avvalgi 250-yilda salavkiylar satrapi Diodot poytaxti Baqtra shahri bo'lgan Yunon-Baqtriya davlatiga asos soldi. Qadimgi davlat tarkibiga Marg'iyona va So'g'diyona ham kirgan. Yunon-Baqtriyada chinakam mustaqillik va qirol hokimiyatining o'rnatilishi salavkiylarga qarshi isyon ko'targan Diodot I davrida sodir bo'ldi. Bu davrda salavkiylar ham parfiyaliklar bilan jang qilishlariga to'g'ri kelgan.

Diodotdan keyin Evtidem, keyin Demetriy hukmronlik qildi, uning davrida Hindiston hududining bir qismi Yunon-Baqtriya davlatiga qo'shildi. Ushbu davlatda madaniyat va xo'jalik yuksak darajaga ko'tarilib, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq, shaharsozlik rivojlangan, tangalar zarb qilingan. Eng qadimgi davlat Salavkiylar davlati kabi markazlashgan hokimiyatga ega davlat hisoblangan. Bu davrda xalqaro savdo va dunyoning turli mamlakatlari bilan aloqalar rivojlanib bordi, bunga Dajla bo'yidagi Salavkiyadan Baqtriyagacha bo'lgan yo'l qurilishi yordam berdi. Baqtriya Xitoy-Hindiston savdo yo'lida joylashgan edi (Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmog'i u orqali o'tgan).

Yunon-Baqtriya monarxiyasi ellinistik individual hokimiyat rivojlanishining barcha mumkin bo'lgan bosqichlarini bosib o'tdi. Baqtriya gubernatori taxminan yuz yil davomida "Buyuk podshoh"ga aylandi. Biroq, ahamiyati jihatidan Ahamoniylar va Salavkiylar bilan solishtirganda, Yunon-Baqtriya hukmdorlari ham tezda o'zlarining buyukligini yo'qotdilar. Adabiy va epigrafik manbalarimiz kamligiga qaramay, boshqa ellinistik monarxiyalar bilan qiyosiy tahlil qilib, Yunon-Baqtriyadagi qirol hokimiyatiga oid bir qancha mulohazalarni qayd etishimiz mumkin.

Diodot I ning qirollik unvonini qabul qilishi uning tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, Yunon-Baqtriyada monarxiya o'rnatish jarayoni armiyaning bevosita ishtirokida sodir bo'lmagan. E. Bikkermannning ishonchli asoslab berilgan fikriga ko'ra, armiya bu yerda katta rol o'ynamagan, qo'shin qirollarni hokimiyat tepasiga olib kelish yoki ularni ag'darish huquqiga ega deb hech qachon tan olinmagan⁴⁷.

Har qanday ellinistik davrdagi shohning kuchi harbiy xususiyatga ega edi. Bu hukmdorning oliy harbiy kuchga ega ekanligi, ko'pincha armiyaga shaxsan

⁴⁶A.S. Sagdullayev. *O'zbekiston tarixi*, I kitob [Matn]. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – B.46.

⁴⁷Бикерман Э. Государство Селевкидов / Пер. с фр. Л. М.Глускиной. – М., 1985. – С. 9.

qo'mondonlik qilish, harbiy strategiyani ishlab chiqishga rahbarlik qilish va urush boshlanishi yoki tinchlik o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilishda ifodalangan. Agar Evtidem I ning o'zi Arius daryosi bo'yida Antiox III ga qarshi janglarda qatnashmagan bo'lsa, bu uning qo'shinining bosh qo'mondoni bo'lmaganligini va Baqtrani himoya qilishda qatnashmaganligini anglatmaydi. Yunon-Baqtriya qirollari eng muhim diplomatik harakatlarni shaxsan yoki yaqin odamlari orqali amalga oshirgan, buni Antiox III va Evtidem o'rtasidagi muzokaralardan ko'rish mumkin.

Yunon-Baqtriya podshohlarining mamlakat diniy hayotida tutgan o'rni katta bo'lgan. Aftidan, ular mamlakatda yangi kultlarni yoyish, marosimlar uyushtirishda tashabbus ko'rsatgan. Ba'zan esa hukmdor ilohiylashtirilib, uning sharafiga bayramlar tashkil qilingan.

Ellinistik hukmdorlarning saroylari va qarorgohlari nafaqat poytaxtda, balki davlatning boshqa muhim shaharlarida ham joylashgan edi. Salavkiylar qo'shinlarining ikki yillik qamaliga bardosh bergan Baqtra kabi shaharda ham shoh qarorgohi bo'lgan.

Boshqa ellinistik davlatlar misolida shuni ko'rish mumkinki, yangi shaharlar qurishga, aholini bir aholi punktidan ikkinchisiga ko'chirishga ham faqat Yunon-Baqtriya podshosining ruxsati, shaxsiy ishtiroki yoki uning tashabbusi bilan yo'l qo'yilgan. Bu holat Yunon-Baqtriya davlati hududida Yunon-Baqtriya monarxlarini nomi bilan atalgan shaharlarning mavjudligi bilan mustahkamlanadi: Evtidem (Evtidemiya), Evkradit (Eukratidiya)⁴⁸.

Baqtriya va So'g'diyona mustaqillikka erishib, Yunon-Baqtriya davlati tashkil topgach, ularni yangi ma'muriy-hududiy bo'linish zaruriyati vujudga keldi. Ma'lumki, Yunon-Baqtriya podsholigi satrapliklarga bo'lingan. Ulardan ikkitasining nomi Strabon tomonidan tilga olingan: Aspion va Turiva. Bular Ahamoniylar yoki Iskandar hokimiyatlarining satrapliklariga nisbatan kichikroq ma'muriy birliklar edi. Darhaqiqat, Ahamoniylar davlatida Baqtriya satraplik bo'lib, bu davlatning boshqa hududlarini, jumladan Gandharani o'z ichiga olgan.

O'rta Osiyodagi eng qudratli qadimiy davlatlardan biri Parfiya miloddan avvalgi 250-yilda Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan. Parfiya janubida, Kaspiy dengizining janubi-sharqida, hozirgi Turkmaniston hududida va Shimoliy Eronning bir qismida joylashgan edi. Parfiyanlar o'zlarining gullagan davrida Kichik Osiyodan Hindistongacha bo'lgan hududlarni bosib oldilar. Parfiyaning birinchi hukmdori Androgen edi, lekin tez orada uning o'rnini Arshaklar sulolasining asoschisi Arshak I egalladi. Parfiya davlati miloddan avvalgi 170-138-yillarda Mitridat I davrida o'zining taraqqiyotiga erishgan. Salavkiylardan

⁴⁸Bahodir Eshov. *O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi*.-Toshkent: 2014. – B.199.

sharqiy satrapiyalarni - Fors, Mesopotamiya va Armanistonning katta qismini olib, Hindukushgacha bo'lgan Yunon-Baqtriya davlatining bir qismini bosib olgan. Mitridat I birinchi bo'lib “shohlar shohi” unvonini qabul qildi va shu bilan o'zini Ahamoniylar vorisi deb e'lon qildi. Parfiya davlatining poytaxti Niso shahri edi. Bu shahar xarobalari Ashxobod yaqinida joylashgan. Shahar ikki qismga bo'lingan: Eski Niso va Yangi Niso⁴⁹.

Parfiyaning qudrati shunchalik katta ediki, miloddan avvalgi I asrda Parfiya va Rim o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuz berdi. Rimga qarshi kurashda parfiyaliklar MarkKrass va Antoniy kabi mashhur Rim sarkardalari ustidan ko'plab g'alabalarga erishdilar. Ammo milodiy I asr boshlariga kelib Parfiyaning tanazzulga uchrashi boshlanadi. O'zaro to'qnashuvlar va Rimning bosimi tufayli parchalanib ketgan Parfiya davlati milodiy 226-yilda davlat sifatida inqirozga yuz tutdi.

Parfiya davlati ko'plab olimlar tomonidan feodal, mayda hukmdorlar va hatto satraplar “buyuk podshoh”ning vassallari deb hisoblangan. Parlar ko'chmanchi hokimiyat an'alariga ega ko'chmanchilar edi. Ular ham Ahamoniylar boshqaruv tizimi, ham keyingi Salavkiylar tuzumi xususiyatlarini saqlab qolgan o'troq hududlarni bosib oldilar. Birinchi Arshakidlar davrida yunon madaniyati va mafkurasi hukmronlik qilishda davom etdi, bu tabiiydir. Ko'chmanchilar an'analari birinchi Arshakidlar davrida ham juda kuchli edi. Lekin keyinchalik ham davlat to'la shakllanganda ichki inqirozlar va ikki jabhada (G'arbda Rimlar bilan, Sharqda Kushonlar bilan) kurash markaziy hokimiyatning zaiflashishiga va urug' zodagonlarining kuchayishiga olib keldi.

Parfiyaliklar podshoh va qirollik qadr-qimmatini haqidagi asosiy g'oyalarni Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatidan olganligiga shubha yo'q. Ilk Arshakidlar davlati o'zining tashkiliy tuzilmasi va mafkurasi bo'yicha Salavkiylar davlati va boshqa ellinistik shohliklar bilan ko'p umumiyliklarga ega bo'lishi kerak edi. Ammo Parfiya qirolini ellinistik monarxdan ajratib turuvchi bir qator xususiyatlar mavjud edi.

Antik davr davlatlaridan yana biri Qang'yuy bo'lib, ushbu davlat haqida eslatmalar Avestoda Qangxa deb ataladi. Miloddan avvalgi III asrdan Qang'yuy mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, eramizning I-II asrlarida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Qanguy hududi Sirdaryo dashtlarini, shuningdek, Sirdaryoning quyi va o'rta oqimi bo'yidagi hududlarni o'z ichiga olgan. Janubda Qangyuy Kushonlar podsholigi, shimoli-sharqda Xitoy imperiyasi bilan chegaradosh edi. Buyuk ipak yo'li Qang'yuy orqali o'tgan, bu davlat

⁴⁹ Климов О. Ю. Царство Пергам: очерк социально-политической истории. Мурманск, 1998. – С. 60.

iqtisodiyotiga foydali ta'sir ko'rsatgan va davlatning strategik jihatdan muhim joylashuvi Kangyuyning mintaqadagi siyosiy vaziyatga ta'sirini ta'minlagan⁵⁰.

Biz Qang'yuy haqidagi ko'p ma'lumotlarni xitoy manbalaridan, xususan, Sima Szyanning "Shi Zi" tarixiy yozuvlaridan olamiz. Uning yozishicha, Qang'yuy iqtisodiyoti va boshqaruv tizimi rivojlangan konfederal davlat edi. Qang'yuyning asosiy aholisi ko'chmanchi qabilalar edi, lekin davlatning janubiy hududlari aholisining bir qismi o'troq bo'lib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Qadimgi davlatning tanazzulga uchrashi milodiy IV asrda, qabilalarning yangi harakati va ko'chmanchilarning O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik rayonlariga bostirib kirishi boshlangan paytda yuz berdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, O'rta Osiyo hududida shakllangan ilk davlat birlashmalaridan hisoblangan Yunon-Baqtriya, Parfiya va boshqa davlat birlashmalaridagi davlat birlashmalarining ko'pchiligida ellinizm, fors davlatchiligi ta'siri kuchli bo'lgan. Ushbu davlatlarni idora qilgan hukmdorlar ham o'z boshqaruv yo'nalishlarini shu asosda belgilab olganliklarini ko'plab tarixiy manbalar, arxeologik qazishmalardan olingan ma'lumotlar tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. A. Asqarov O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T., 2007. – B. 340.
2. A.S. Sagdullayev. *O'zbekiston tarixi*, I kitob [Matn]. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – 624 b.
3. Bahodir Eshov. *O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi*.-Toshkent: 2014. – 281 b.
4. Sh. Shaydullayev. "O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida)". Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: 2009.
5. О. Ю. Климов Царство Пергам: очерк социально-политической истории. – Мурманск: 1998.
6. Э. Бикерман Государство Селевкидов / Пер. с фр. Л. М.Глускиной. –М: 1985.
7. Hakim, R. (2021). Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System. *Бюллетень науки и практики*, 7(3), 281-286.
8. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 359-362.

⁵⁰ Sh.B. Shaydullayev. O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: 2009. – B.123.

9. Safar o'g'li, R. M. (2023). The Study of The History of Termiz by Researchers. *Genius Repository*, 26, 24-27.
10. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG 'ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.
11. Raimov, M. (2023). A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(9), 146-151.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA PUSHTU TILINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (MORFOLOGIYA MISOLIDA)

QORABOYEV S.,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pushtu tilini o'qitishning asosiy xususiyatli morfologiya misolida tahlil qilib o'tildi. Pushtu tili ilk marotaba Afg'onistonda 1936-yili davlat tili sifatida e'lon qilingan bo'lib, hozirgacha mamlakatning ikki rasmiy tillaridan (pushtu va dariy) biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metod, morfologiya, pushtu tili, pushtu tilida jins kategoriyalari.

ABSTRACT

In this article, the main feature of teaching Pashto language was analyzed on the example of morphology. The Pashto language was first declared the state language of Afghanistan in 1936, and is still one of the two official languages of the country (Pashto and Dari).

Key words: method, morphology, Pashto language, gender categories in Pashto.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida pushtu tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan pushtu tilidagi grammatik kategoriyalarni talabalarga tushuntira olish va ularni kerakli joylarda qo'llash malakasini shakllantirish lozim. Xuddi shunday grammatik kategoriyalardan biri pushtu tilidagi **jins kategoriyasi**dir.

Hind-yevropa oilasiga mansub ko'pgina tillarda bo'lgani kabi pushtu tilida ham jins kategoriyasi mavjud. Pushtu tilida jins kategoriyasi ikkiga bo'linadi: muzakkar (mujskoy) va muannas (jenskiy).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ot so'z turkumi jinslarga ajratilganda **muzakkar otlarga** quyidagilar kiradi:

1. undosh tovush bilan tugaydigan so'zlar: مېز - stol, كور - uy, لاس - qo'l;
2. "-ay" - اى diftongi bilan tugaydigan so'zlar: odam - سړى, do'st - ملگري;
3. "-oy" - آى diftongi bilan tugaydigan so'zlar: choy - چاى, oyoq - پاى;
4. "-o'y" - اوى diftongiga tugaydigan so'zlar: quyon - سوى, o'g'il - زوى;
5. "-uy" - اوى diftongiga tugaydigan so'zlar: yuz - بوى, hid - روى;
6. cho'ziq "u" او unlisiga tugaydigan so'zlar: olxo'ri - آلو, pichoq - چاقو;

7. cho‘ziq “i” - ي unlisi bilan tugaydigan, kishilarning faoliyati, lavozimi va kasb-korini ifodalaydigan so‘zlar: etikdoz - موچي yordamchi - كومچي ;
8. qisqa “i” - o unlisi (zvarakay)ga tugaydigan so‘zlar: yurak - زړه;
9. turkiy tillardan kirib kelgan “chi-” sufiksi bilan tugaydigan so‘zlar: tomoshabin نندارچي-
10. ma’no jihatdan muzakkar jinsga mansub bo‘lgan so‘zlar: tog‘a – ماما , mehmon - مېلمه.

Pushtu tilida **muannas otlarga** esa quyidagilar kiradi:

1. Qisqa “a” - o ga tugaydigan so‘zlar: مځکه - yer, سترگه - ko‘z;
2. Cho‘ziq “o” a ga tugaydigan so‘zlar: شا - yelka, وينا - nutq;
3. Cho‘ziq “i” ي ga tugaydigan mavhum otlar: شادي - shodlik, دوستي - do‘stlik;
4. Cho‘ziq “u” او ga tugaydigan so‘zlar: بيزو - maymun, پښتو - pushtu;
5. “ey” ى diftongiga tugaydigan so‘zlar: ډوډى - non, كركى - deraza;
6. Zvarakayga tugaydigan so‘zlar: وړانگه - nur;
7. “i’n”, “dz”, “sht” harf birikmalariga tugagan so‘zlar:

ستن	[stən]	igna
لمن	[lamən]	etak
ورخ	[vradz]	kun
أريخ	[uriadz]	bulut
مياښت	[myosht]	oy

8. Arab tilidan kirib kelgan -i,-o,-u,-o unli tovushlardan keyin “ayn” ع va “hoi hutti” ح harflariga tugagan so‘zlar:

شوروع	[shuru]	boshlash
اسلاح	[isloh]	islohot
تفريح	[tafrih]	dam olish

9. Ma’no jihatdan: ona- مور, singil- خور .

Shuningdek, pushtu tilida **muzakkar otlardan muannas otlarning yasalish** holatlari uchraydi.

1. Oxiri undosh bilan tugagan so‘zlarga qisqa “a” qo‘shiladi.

[chirg] چرگ - xo‘roz → [chirga] چرگه - tovuq

[ush] اوښ - tuya → [usha] اوښه - urg‘ochi tuya

[pashtun] پښتون - afg‘on yigit → [pashtana] پښتنه - afg‘on qiz

[chang ‘o ‘l] چنگول – qalliq → [chang ‘ala] چنگله - unashtirilgan qiz

Izoh! Bir bo‘ginli so‘zlarda muzakkardan muannas yasash uchun oxirida “a” yoki zvarakay qo‘shilishi natijasida qisqa “a” harfi tushib qoladi.

[xar] خر – Eshak → [xra] خره – urg‘ochi eshak

[g'al] غل – O'g'ri bola → [g'la] غله – o'g'ri qiz

[mal] مل – Hamroh → [mla] مله – hamroh qiz

2. "Ay" diftongiga tugagan so'zlar "e" ga o'zgaradi.

[malgaray] ملگري - do'st → [malgare]- ملگري - dugona

[zmaray] زمري - sher → [zmare]- زمري - urg'ochi sher

3. Oxiri cho'ziq "i" bilan tugagan so'zlar "iy" diftongiga o'zgaradi.

[do'bi] – kir yuvuvchi (erkak) → [do'biy] – kir yuvuvchi (ayol);

[mo'chi] – kosib (erkak) → [mo'chiy] – kosib (ayol).

4. Oxiri "a" yoki zvarakay bilan tugagan so'zlar muzakkardan muannas yasalganda "na" orttiriladi.

[lev'] لېوه – bo'ri → [levina] لېونه – urg'ochi bo'ri;

[melma] ميلمه – erkak mehmon → [melmana] ميلمنه – ayol mehmon.

Pushtu tilida otlarda uchraydigan **kelishik kategoriyasi** o'zbek tilidagi kelishiklardan tubdan farq qiladi. Pushtu tilida atigi uch kelishik mavjud bo'lib, ular bosh, chaqiruv va vositali kelishiklardir.

Bosh kelishik – otning hech qanday qo'shimchasiz shakli bo'lib, o'zbek tilida ham bosh kelishikka to'g'ri keladi.

Chaqiruv kelishigi shaxsga murojaatni ifodalab, u bilan odatda *اي* [Ay!], *اي* [E!], *اي* [Ey!] undov so'zlari ishlatiladi. Chaqiruv kelishigi pushtu tilida quyidagi usullar orqali yasaladi:

1) undosh tovushga, [ay], [oy], [uy], [ay] diftonglariga tugovchi muzakkar jinsidagi otlar qisqa [a] qo'shimchasini qabul qiladi: *هلاکه halaka!* "bolakay!", *Ay pashtuna!* "Ey, pushtun!", *Ay sarriya!* "Ey, odam!" *Zo'ya!* "O'g'lim!" *Xudoya!* "Xudo!"

2) [ə], [o], [u], [o] tovushlariga tugovchi muzakkar jinsidagi otlar hech qanday o'zgarishsiz qoladi: *Ay ono!* "Ey, buvi!", *Ay z'rə!* "Ey, yurak!"

3) Undosh tovushga, qisqa [a] tugovchi muannas jinsiga mansub otlar [i] qabul qiladi: *Muri!* "Ona!", *Ay shadzi!* "Ey, ayol!"

4) [əy]ga tugovchi so'zlar, qisqa [a] qabul qilishi mumkin: *Spojmay!* "Oy!", *Ay njələya!* "Ey, qiz!"

5) Chaqiruv kelishigining ko'plik son shakli vositali kelishikning ko'plik shakliga to'g'ri keladi: *Grono' avredunko'!* "Hurmatli tinglovchilar!"

Vositali kelishik – so'zning siniq shakli bo'lib, predlog (old qo'shimcha) va poslelog (ort qo'shimcha) bilan birgalikda qo'llaniladi va kelishik munosabatlarini

ifodalaydi. Vositali kelishik mustaqil holda faqatgina o‘tgan zamon (ergativ qurilish)da egani ifodalash uchun ishlatiladi.

Undosh harflar bilan tugagan va ko‘plik shakli [una] va [on] qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadigan **muzakkar otlar vositali kelishikda** birlikda o‘zgarmaydi, ko‘plikda [uno ‘] اونو yoki [ono ‘] انو qo‘shimchasini oladi:

Asosiy shakli	Ko‘plik shakli	Birlikda vositali kelishikda	Ko‘plikda vositali kelishikda
kitob “kitob” کتاب	kitobuna کتابونه	kitob کتاب	kitobuno‘ کتابونو
sarboz “askar” سرباز	sarbozuna سربازونه	sarboz سرباز	sarbozuno‘ سربازونو
dzoy “joy” حای	dzoyuna حایونه	dzoy حای	dzoyuno‘ حایونو

“O” va “i” undosh harflari bilan tugaydigan muzakkar otlar vositali kelishikda birlikda o‘zgarmaydi, ko‘plikda [ono ‘] انو qo‘shimchasini olayotganda yoy ی orttiriladi:

mullo “mulla” ملا	mulloyon ملايان	mullo ملا	mulloyono‘ ملايانو
bandi “asir” بندی	bandiyon بندیان	bandi بندی	bandiyono‘ بندیانو
oshnoy “tanish” اشنا	oshnoyon اشنايان	oshnoy اشناى	oshnoyono‘ اشنايانو

“Ay” diftongi bilan tugaydigan muzakkar otlar vositali kelishikda birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda [iyo ‘] يو qo‘shimchasini oladi:

Asosiy shakli	Ko‘plik shakli	Birlikda vositali kelishikda	Ko‘plikda vositali kelishikda
sa‘ray “erkak” سرى	sa‘ri سرى	sa‘ri سرى	sa‘riyo‘ سرىيو
kəlay “qishloq” کلى	kəli کلى	kəli کلى	kəliyo‘ کلىيو

Pashtun پښتون so‘zi tipidagi muzakkar otlar vositali kelishikda birlikda “u” harfi “o”ga o‘zgaradi va cho‘ziq “e” tovushini qabul qiladi, ko‘plikda esa [ano ‘] انو qo‘shimchasini oladi:

Asosiy shakli	Ko‘plik shakli	Birlikda vositali kelishikda	Ko‘plikda vosi-tal kelishikda
pashtun “afg‘on” پښتون	pashtoni پښتانه	pashtone پښتاني	pashtano‘ پښتنو
ushbun “tuya boquvchi” اوشبون	ushboni اوشبانه	ushbone اوشباني	ushbano‘ اوشبنو
beltun “ayriliq” بېلتون	beltoni بېلتانه	beltone بېلتاني	beltano‘ بېلتنو

Qisqa “a” unlisi bilan tugaydigan **muannas otlar vositali kelishikda** birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda qisqa “a” unlisi o‘rniga “o‘ ” و qo‘shimchasini qabul qiladi:

Asosiy shakli	Ko‘plik shakli	Birlikda vositali kelishikda	Ko‘plikda vositali kelishikda
taxta “yog‘och” تخته	taxte تختي	taxte تختي	taxto‘ تختو
sterga “ko‘z” سترگه	stergi سترگي	stergi سترگي	stergo‘ سترگو

Cho‘ziq “e” unlisi va “ey” diftongi bilan tugaydigan muannas otlar ham vositali kelishikda birlikda asosiy ko‘plik shakli kabi o‘zgaradi, ko‘plikda “e” unlisi o‘rniga va diftongdan keyin “o‘ ” و qo‘shimchasini qabul qiladi:

Asosiy shakli	Ko‘plik shakli	Birlikda vositali kelishikda	Ko‘plikda vosi-tal kelishikda
malgəre “dugona” ملگري	malgəri ملگري	malgəri ملگري	malgəro‘ ملگرو
nove “unashtirilgan qiz” ناوي	noveyoni ناوباني	nove ناوي	noveyono‘ ناوبانو
chavkəy “stul” چوکی	chavkəy چوکی	chavkəy چوکی	chavkəyo‘ چوکیو

Pushtu tilida ot so‘z turkumidagi **kelishik kategoriyasi sifatlarda** ham mavjud bo‘lib, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan sifatlari aniqlanmish bilan jins, son va kelishikda moslashadilar. Shunday qilib, sifatlarning jins, son va kelishigi ular tegishli bo‘lgan otning shu kabi kategoriyalariga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan: *to‘r mez* - “qora stol”, *to‘ra taxta* - “qora taxta”, *to‘ri taxte* - “qora taxtalar”.

Vositali kelishikdagi sifatlarning hosil bo'lish qoidalari vositali kelishikdagi otlarning yasaliq qoidalariga muvofiq keladi (o'zgarmas sifatlardan mustasno). Ko'plik sonidagi sifatlarning vositali kelishigi ham [o'] tovushiga tugaydi: *Də to'ro' taxto' ujdvolay* - "Qora taxtalarning uzunligi".

Pushtu tilida **son so'z turkumida** ham o'zbek tiliga o'xshamagan o'ziga xosliklar mavjud. Bu o'nlikdagi sanoq sonlarda ko'zga tashlanadi. Pushtu tilida o'nlikdagi sanoq sonlarda yigirmadan boshlab birlik o'nlikdan oldin aytiladi.

bir – [yav]	yigirma bir – [yavvisht]
ikki – [dva]	yigirma ikki – [dvavisht]
uch – [dre]	yigirma uch – [dərvisht]
to'rt – [tsalur]	yigirma to'rt – [tsalurvisht]
besh – [pindzə]	yigirma besh – [pindzəvisht]
olti – [shpaj]	yigirma olti – [shpajvisht]
yetti – [ovə]	yigirma yetti – [ovəvisht]
sakkiz – [atə]	yigirma sakkiz – [atəvisht]
to'qqiz – [nəh]	yigirma to'qqiz – [nəhvisht]

Bu tartib yuzgacha davom va o'nlik sanoq sonlar [nəh nəvi] to'qson to'qqiz bilan tugaydi.

Pushtu tilida **olmosh so'z turkumida** ham o'zbek tilida bo'lmagan o'ziga xosliklar mavjud. Bunday o'ziga xosliklar qatoriga ba'zi olmoshlardagi vositali kelishik hamda enklitik va shaxsga qaratilgan olmoshlarni kiritishimiz mumkin.

Vositali kelishik shakli mavjud olmosh turlaridan biri bu kishilik olmoshlaridir.

Shaxs	Birlik			Ko'plik		
I sh.	men	[zə]	زه	biz	[muj]	موب
II sh.	sen	[tə]	ته	siz	[tosi]	تاسی
III sh.	u (m-r. j.)	[day]	دی	ular	[duy]	دوی
	u (m-s. j.)	[do]	دا			

Kishilik olmoshlari vositali kelishikda faqat birlikda o'zgaradi, ko'plikdagi kishilik olmoshlari o'zgarmaydi:

Shaxs	Birlik			Ko'plik		
I sh.	men	[mo]	ما	biz	[muj]	موب
II sh.	sen	[to]	تا	siz	[tosi]	تاسی
III sh.	u (m-r. j.)	[də]	ده	ular	[duy]	دوی
	u (m-s. j.)	[de]	دی			

Kishilik olmoshlarining vositali kelishikdagi shaklidan egalik olmoshlari yasalgan:

Shaxs	Birlik			Ko'plik		
	I sh.	men	[zmo]	زما	biz	[zmuʃ]
II sh.	sen	[sto]	ستا	siz	[stosi]	ستاسی
III sh.	u (m-r. j.)	[dadə]	دده	ular	[dəduy]	ددوی
	u (m-s. j.)	[dade]	ددی			

Pushtu tilida enklitik olmoshlar jins kategoriyasiga ega emas. Ular vositali kelishikda ham o'zgaraydilar. Ular gap boshida kela olmaydilar. Bu kabi olmoshlar ergativ konstruksiya (o'tgan zamon)da bevosita to'ldiruvchi, ega va egalik olmoshlari sifatida qo'llanadi. Ular odatda o'zlari tegishli bo'lgan so'zdan so'ng keladilar: [plor mi] - "mening otam".

Shaxs	Birlik			Ko'plik		
	I sh.	men, meni, mening	[mi]	می	biz, bizni, bizning	[mu]
II sh.	sen, seni, sening	[di]	دی	siz, sizni, sizning	[mu]	مو
III sh.	u, uni, uning	[ye]	ئی	ular, ularni, ularning	[ye]	ئی

Pushtu tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan olmoshlardan yana biri shaxsga qaratilgan olmoshlardir. Shaxsga qaratilgan olmoshlar faqat shaxs hamda harakat yo'nalishini ko'rsatadilar. Ular faqat so'z orti qo'shimchalari bilan qo'llanishi mumkin.

Shaxs						
I sh.	Men, biz	را	Menga, bizga	راته	Mendan, bizdan	راڅخه
II sh.	Sen, siz	در	Senga, sizga	درته	Sendan, sizdan	درڅخه
III sh.	U, ular	ور	Unga, ularga	ورته	Undan, ulardan	ورڅخه

Shaxsga qaratilgan olmoshlar fe'lga qo'shib prefiks shaklida yangi ma'noli fe'l yasashi mumkin:

"ushlamoq" - نیول [nivəl] "sotib olmoq" رانیول [ronivəl].

کول [kavl] - "qilmoq" fe'lga qo'shilgan shaxsga qaratilgan olmoshlar ma'noni o'zgartirib "bermoq" fe'lini yasaydi. Faqat pushtu tilida ushbu fe'lning uch xil shakli mavjud bo'lib, u yo'nalishni kimga qaratilganini ifodalaydi.

Menga, bizga bermoq [rokavəl] راکول

Senga, sizga bermoq [darkavəl] درکول

Unga , ularga bermoq [varkavəl] ورکول

Masalan: U menga olma beryapti. - [day mota mana rokavi] دی ماته منه راکوی

Pushtu tilida **fe'l so'z turkumi** o'ta murakkab. Fe'l tuzilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, u fe'lning tugallangan shaklining barcha zamonlarining shakllanishiga, mayliga va nisbatiga ta'sir ko'rsatadi.

Pushtu tilidagi barcha fe'llar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab fe'llarga ajratiladi.

Sodda fe'llarga ot va yordamchi **كول** [kavəl] - "qilmoq" va **كېدل** [kedəl] - "bo'lmoq" fe'llarisiz hamda prefiksarsiz ifodalangan barcha fe'llar kiradi. Sodda fe'llar to'g'ri, noto'g'ri va supletiv fe'llarga ajratiladi.

a) to'g'ri fe'llar – bu tarkibiga ko'ra bir asosli fe'llar bo'lib, barcha shaklda yaxlit bo'ladi. Masalan:

jo'natmoq - *lejəl* - لېرل

ega bo'lmoq - *larəl* - لرل

tashlamoq, otmoq - *achavəl* - اچول

yuvmoq - *mindzəl* - میندل

yozmoq - *likəl* - لیکل

b) noto'g'ri fe'llarga ikki asosli, ya'ni hozirgi zamon negiziga (HZN) va o'tgan zamon negiziga (O'ZN) ega bo'lgan fe'llar kiradi.

Masalan:

qaramoq - *katəl* - كتل

tanimoq, bilmoq - *pejandəl* - پېژندل

c) supletiv shaklga ega bo'lgan fe'llar quyidagilar:

O'zbek tilida	O'qilishi	Pushtu tilida	HZN	Supletiv shakli
bormoq	<i>tləl</i>	تلل	خى	ولار شى
kelmoq	<i>rotləl</i>	راتلل	راخى	راشى
olib bormoq	<i>bivəl</i>	بيول	بيانى	بوزى
olib bormoq	<i>vrəl</i>	ورل	ورى	يوسى
qilmoq	<i>kavəl</i>	كول	كوى	كبرى
bo'lmoq	<i>kedəl</i>	كېدل	كېبرى	شى
ega bo'lmoq	<i>larəl</i>	لرل	لرى	درلود
qo'ymoq	<i>ishodəl</i>	ايشودل	ردى	كشېردى

Pushtu tilida murakkab fe'llar ot, sifat, ravish so'z turkumlaridan o'timli fe'llar uchun – *کول kavəl*, va o'timsiz fe'llar uchun – *کېدل kedəl* yordamchi fe'llari yordamida hosil qilinadi.

O'timli fe'llar to'g'ridan-to'g'ri predlogsiz to'ldiruvchi talab qiladi. Murakkab fe'llar yasalişiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

1) Pristavkali (old qo'shimchali) fe'llarda odatdagidan farq qilgan holda ma'lum shakllarni ifodalashda ba'zan qoidadan chekinish kuzatiladi.

Masalan:

sotib olmoq - *ranivəl*- رانیول
kirmoq - *nənavatəl* - ننواتل
o'tirmoq - *kshenastəl* - کښېنستل
kesmoq - *prekavəl* - پرېکول
to'htamoq - *daredəl* - درېدل
yetib bormoq - *rasedəl*- رسېدل

2) To'liq birikmagan fe'llar sifat so'z turkumidan ba'zan, ot so'z turkumidan, fe'liy suffiksali *ول [avəl]* o'timli fe'llar uchun va *ېدل [edəl]* o'timsiz fe'llar uchun so'z boshidagi *ک - [k]* tovushini tushirib qoldirish yo'li bilan yasaladi.

Masalan: *جور [jo'r]* – “sog' ” sifatidan *جورول [jo'raवल]* – “qurmoq” va *جورېدل [jo'reدل]* – “qurilmoq” fe'llari yasaladi.

Fe'lining tugallangan turini hosil qilishda to'liq birikmagan fe'l ot va yordamchi fe'llarga ajralib, yordamchi fe'l *[vu]* prefiksiz tugallangan fe'l turida keladi: *يوه [Yava vradz tera shva]* – “Bir kun o'tdi”.

3) To'liq birikgan fe'llar odatda ot va ravishlardan hosil qilinadi: *[loslik kavəl]* “imzolamoq”, *[tərsho kedəl]* “ortga qaytmoq”. *Tarun ye loslik kər* - “Ular shartnomani imzoladilar”, *Paudzuna tərsho shvəl* - “Qo'shinlar chekindilar”.

Aytib o'tish kerakki, sifat unli *[o]*, *[u]*, *[e]*, *[i]* tovushlarga tugaganida, fe'l yasashda ko'makchi fe'llardagi boshlang'ich *[k]* tovushi tushib qolmaydi: *[nəjde kedəl]* – “yaqinlashmoq”, *[liri kavəl]* – “uzoqlashtirmoq”.

To'liq birikgan fe'llarni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

a) tarkibida predlogsiz ot so'z turkumi yordamida hosil bo'lgan fe'llar.

bajarmoq - *ijro kavəl* - اجرا کول
tarjima qilmoq - *tarjuma kavəl* - ترجمه کول
imzolamoq - *loslik kavəl* - لاسلیک کول
ortga qaytmoq, chekinmoq - *berta kedəl* - بېرته کېدل

b) tarkibida predlogli ot so'z turkumi bo'lgan fe'llar.

qo'lga kiritilmoq - *tər losa kedəl* - تر لاسه کېدل
bajarmoq, tugatmoq - *tər sara kavəl* - تر سره کول

oyoq-kiyimni kiymoq - *pə psho kavəl* - پە پینو کول

XULOSA

Yuqorida keltirib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, oliy ta’lim muassasalarida pushtu tilini o‘qitishda har bir mavzu alohida yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun ma’lum bir mavzu doirasida qo‘llanilgan o‘qitish uslubi keyingi mavzuga mos kelmasligini inobatga olish zarur. Shu bilan birga grammatik qonun-qoidalarni o‘rgatish soha xususiyatlarini e’tiborga olgan holda nofilologik yondashuv asosida turli misollar, o‘yinlar va diqqatni jalb etuvchi usullar orqali amalga oshiriladi.

LOGICAL TEACHING OF ABU ALI IBN SINA

YULDASHEVA Lola Sadullaevna

Tashkent State Dential Institute

ABSTRACT

This article about the most difficult questions in the history of philosophy is what is metaphysics, that is, the ideas of existence outside of nature and their logical analysis. It was Ibn Sina who developed this complex doctrine and used the method of logic. Many western scientists have unanimously learned the heritage of Ibn Sino. His methodology has been assessed differently. The article outlines these approaches. The study of Ibn Sina's logical approach to theological issues is one of the most important studies on modern Islamic philosophy. Because the issue of synthesis of religion and philosophy has been a matter of controversy. The finding of Ibn Sina is still an example of the boundless perceptions of the human mind.

Key words: *Philosophy, emmanat, Pantheism, Intelligence, Substance, Theory, Naturalist Philosophy, Empiricism, "An-Najat", Encyclopedia, "Risalai mantiq", "Hikmati mashriqiyya", "Kitabi hidoya", Signs and Criticism.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье о сложнейших вопросах истории философии о том, что такое метафизика, то есть идеи существования вне природы и их логический анализ. Именно Ибн Сина разработал это сложное учение и использовал метод логики. Многие западные учёные единодушно признали наследие Ибн Сино. Его методология оценивалась по-разному. В статье изложены эти подходы. Исследование логического подхода Ибн Сины к богословским вопросам является одним из важнейших исследований современной исламской философии. Потому что вопрос синтеза религии и философии был предметом споров. Находка Ибн Сины до сих пор является примером безграничности восприятия человеческого разума.

Ключевые слова: *Философия, эмманат, пантеизм, Разум, Субстанция, Теория, Натуралистическая философия, Эмпиризм, «Ан-Наджат», Энциклопедия, «Рисалай мантик», «Хикмати маширкийа», «Китаби хидоя», Знаки и критика.*

INTRODUCTION

Ibn Sina's worldview was formed under the influence of Farabi's works, he continued Farabi's views on socio-philosophical issues, systematized the advanced philosophical current by enriching it with new natural-scientific ideas and raised it to

a new level. Abu Ali Ibn Sina wrote in his autobiography, "After studying logic, physics, and mathematics, I read Metaphysics again and began to study its essence." Ibn Sina read Aristotle's Metaphysics forty-one times and even memorized it, but he did not know the purpose of the author in this work, that was, he did not understand the work.

One day he bought from a bookstore owner a "Commentary on Aristotle's Metaphysics by Al Farabiy. "When he came home, he began to read it and realized the essence of the work. The next day he gave alms to the poor out of joy. It can be seen that this event and the works of Abu Nasr al-Farabi in general had a great influence on the worldview of Shaykh al-Rais. As a result of Ibn Sina's work, which continued Farabi's logical views, scholars have made extensive use of their logical views for centuries.

Ibn Sina also used the ontological, epistemological, social, and moral views of Muallimi Sani and developed them. A dramatic change in the spiritual evolution of Ibn Sina was associated with his meeting in 1012 with the Sufi Abu Said Maykhani (967 - 1049). Abu Said Maykhani was a great sheikh who reached the level of a two-headed master at the age of 35. As for the personal meeting, according to folklore, the two had a conversation without leaving the room and spent seven days together. As a result of these seven days of communication with the sheikh, Ibn Sina received a prophecy from the sheikh and received three masterpieces of wisdom.

These proverbs are:

1. The fire of the mind must be extinguished from time to time with the water of melody and art, otherwise it may "burn" everything (in our opinion, the opposite is also true);
2. Love is also an incarnation of God, that is, of eternity (Plato also had this);
3. Truth is not knowledge acquired through logical thinking, but "state" that occurs through "attraction."

In other words, the meeting with Abu Sa'id al-Mayhani allowed Ibn Sina to see the difference between the mental (logical) path of attaining the Truth and the path of love to God. For, according to mystics, if the Truth is expressed through the metaphor of fire, then the difference between the Mind and Love is as follows: The Mind says, "I see fire, so I know what it is." Love says, "I threw myself into the fire and burned in it (fano), so I know what it is." It is known that the worldview of medieval philosophers is different from that of ancient philosophers.

All medieval philosophers were faithful, that is, religious, especially Central Asian thinkers who believed in Islam. There was a certain system of religious views in the Middle Ages about God, the universe, and the place of man in the world.

Creative scholars who lived and worked in this period have accepted and assimilated these views. The fact that the Central Asian thinkers Farabi, Abu Abdullah al-Khwarizmi, Ibn Sina, Beruni and others began and ended their works in the name of Allah is a proof of our opinion.

DISCUSSION AND RESULTS

The same situation led to the peculiar formation of the philosophical worldview of the thinkers who lived and worked in this period. While Aristotle began his teaching with the essence and forms of syllogism, Central Asian thinkers begin their logical teachings by defining the nature of understanding and judgment. Because knowledge is expressed in the form of concepts and judgments, regardless of the field to which they belong, and is formed as a result of drawing logical conclusions.

Ibn Sina's "Signs and Criticism", "An-Najat", "Encyclopedia", "Risalai mantiq", "Hikmati mashriqiyya", "Kitabi hidoya" deal with issues of philosophy and logic. The thinker interpreted the science of logic as the prelude to all sciences, as a necessary condition for mastering them. In Ibn Sina's Encyclopedia, he first described the basics of logic, secondly metaphysics, and then other sciences.

Metaphysics (Greek meta physics - after physics) - the principles of existence that transcend perception and the science of general basis. In physics, the researcher conducts research directly on emotional objects, while in metaphysics, the researcher studies objects that cannot be perceived through the senses. When metaphysics speculates about the quality, content, essence, phenomena, and other objects that are the subject of research, they cannot be seen directly, they are manifested in the process of the interrelationship of other things and phenomena. In this sense, historically, the term metaphysics has often been used as a synonym for the term philosophy.

The idea that the origin of the term metaphysics is related to Metaphysics by Aristotle is widespread in the philosophical literature. But the term metaphysics can be found in Plato's works as a method of independent cognition. Andronicus of Rhodes collected a collection of lectures and works on natural sciences related to Aristotle's First Philosophy, which he called Metaphysics. It is a collection of 14 books. In the classification of sciences compiled by Aristotle, the science of universe takes the first place in terms of its importance and value. Aristotle calls it the "First Philosophy" or "Theology" (the doctrine of God)

This philosophy differs from the "Second Philosophy" (ie, physics) in that in physics the study of specific objects perceived by direct perception, while in the "First Philosophy" the aspect of universe, which does not depend on the exact

connection of matter and form, is studied. According to Aristotle, metaphysics is not connected with human subjectivity or human activity, it is the most valuable of the sciences, the means of human life, the source of joy.

The great thinker and encyclopedic scholar Abu Nasr al-Farabi, who received the title of "Muallimi sani" describes metaphysics as follows: : "I affirm that the higher substance we have mentioned above and seen in its essence leads us to study its mass and its self. Thus the science of the celestial substance and the substances within it, in particular the stars, the differences in their positions, and the measurements of inequality, came into being. This is how the science of nature came about.

Then the question arises as to whether this substance has a creator or whether it can be imagined without a creator, whether it is eternal. And as people who have not practiced in discussion, who have not studied the sciences, who do not know the science of nature, nor who have a logical basis, affirm that before and after this substance there is really nothing, neither its beginning nor its end. This is determined by Farabi, with his position on the theory of emanation in the classification of sciences later developed by Ibn Sina. According to this classification, metaphysics occupies an intermediate position between physics and applied sciences and is divided into 3 parts:

- in the first, existence is considered as a whole;
- in the second, the initial parts of the sciences are shown;
- in the third, the stages of the First Existence and the ensuing existence are considered.

According to Abu Nasr al-Farabi, these three, that is, the last part of metaphysics, should include the principles of "truth" or "noble" religion, which are intended for the inhabitants of the "noble city" and reflect the true philosophy. These principles form the theoretical part of religion based on Aristotle's "theology", while the practical part of religion is subordinated to the practical part of philosophy. If we look more broadly at the concept of "existence", the work of Western philosophers in this regard is invaluable. The word is synonymous with the concept of universe used in modern philosophical science. In the history of philosophy, it has been used as a concept that represents the external aspects of things, which are usually achieved on the basis of experience, as opposed to the inner nature of existing things, which is reflected through thinking.

English empiricism of the XVII-XVIII centuries (Locke, Hume) recognized the existence of any knowledge. The rationalism of the New Age (Descartes, Spinoza, Fichte, Hegel) stems from the doctrine of the identity of being and thinking

in interpreting the concept of existence. Existence is somehow here in essence, interpreted as rationality associated with the mind. The attempt to combine these views is reflected in the teachings of Leibniz and Kant. Leibniz recognizes two kinds of truth: the eternal truths of reason and the truth of facts. According to Leibniz, the difference between them exists only for the limit (end) of the human mind, there is no such difference in the universal mind. Kant recognizes the ontological significance of "existence."

"The thing itself" cannot be inferred from logical conclusions, and given that the mind is only a formal connection, and that emotion conveys materials to it, existence cannot be logically inferred from any emotional event. Existence is generally interpreted in Kerkegor's views in the context of a new category. He contrasts rationalism (Hegel) with the notion of existence as a human being that can be directly understood. Existence, according to Kerkegor, is individuality, personality, intuition. According to him, intrinsic existence has its own destiny and history, and the concept of history is inseparable from intuition, is the irreversibility of existence and inseparability from destiny.

In the twentieth century, the Kerkegorian understanding of existence has been reconsidered in existentialism (Jaspers, Heidegger, Sartre, Marseilles, etc.) and occupies a central place in it. In existentialism, existence is interpreted as a state of the situation relative to transcendence, in which man transcends his own boundaries. The connection between existence and transcendence, which is beyond the reach of the human mind, is found in the very fact of existence, according to his last existentialism. The end of existence is death, not the empirical fact of the end of life, but the initial state that permeates the whole human life, determining the composition of existence.

It is from this that the circumstances which characterize and arouse interest in existentialism, (sorrow, guilt, etc.) reveal its nature, and these circumstances arise from the essence of things, from their present existence. The distinction between existence and essence was first demonstrated by Gilom in the history of philosophy. It is noteworthy that Gilom comes to these ideas under the influence of the teachings of Ibn Sina.

Ibn Sina points out that existence has two meanings: 1. Expressing the simple existence of objects by defining their meaning; 2. An entity is considered to be a substance without regard to its accidental, secondary properties. In Thomas Aquinas's philosophy, existence and essence are manifested as the beginning of two beings (matter and substance).

Understanding existence as an activity, Foma believes that the greatest reality is God and the essence of God is realized in his existence. In all other created worlds, essence and existence are incompatible. Existence is the ideal limit of essence. In the philosophy of existentialism (Jaspers, Heidegger, Sartre, Marseilles, etc.) prevalent in Western European countries in the early twentieth century, existence is defined as a concept that transcends the essence of things, is invisible, beyond human knowledge and practice. In fact, the essence of things and events is inseparable from their existence.

In this sense, existence is synonymous with the concept of being. The Book of Salvation contains Ibn Sina's reflections on eternity and creation. In doing so, Ibn Sina rejects the idea of creation without a cause. According to him, the universe was created by God as necessary. It must be said that matter was created in a certain sense, because there is a higher cause, and the existence of matter depends on it, that is, it is secondary.

But on the other hand, matter is an eternal substance, since matter is primary in relation to time. It's erenow. It is eternal. In other words, there was no period in which matter did not exist. "The proclamation of matter as eternal showed that Ibn Sina's metaphysics was two-dimensional and showed a materialist tendency. Naturally, these ideas became the main refutation by monotheistic doctrine. The scientist's declaration of matter as eternal also refuted teachings such as the atomic system and space used by the mutakallims.

An important aspect of the doctrine of emanation in Ibn Sina is that in it the religious-natural worldview of the Middle East (Iran, Zoroastrianism) is in harmony with nature and human life with the sky and the light radiating from it. According to this belief, the source of light is invisible, and all beings and known things do not directly accept the cause. In particular, this doctrine had a significant impact on the new Platonic doctrine, which relied on luminous images.

At the same time, the emphasis on the light component in the divine emanation brought all aspects of reality closer to God and strengthened the pantheistic aspects of Ibn Sina's metaphysics. Farobi analyzed mental cognition by combining it with logic. Ibn Sina elevated the rational methods of contemplation developed by Al-Kindi and Farobi to higher levels. Ibn Sina states that "any knowledge that is not weighed on the scales of the mind is not true knowledge," and that the logical and methodological models of cognition are the criteria for any knowledge.

Ibn Sina in his treatises on the theory of knowledge, especially on the mind, interpreted and further refined the rational forms of thinking on a scientific basis. Ibn Sina explained the ideas of rationality in direct connection with logic. According to

him, logic gives man a rule by which man distinguishes true knowledge from falsehood and learns the unknown.

In the teachings of Ibn Sina, logic is not only a method of scientific knowledge, but also a methodological basis for solving philosophical problems. In this way, Ibn Sina said that the natural properties and mysteries of the universe can be studied through logical sign, analysis and mental knowledge. Ibn Sina noted that in the process of creation, mental and non-mental aspects are manifested. Ibn Sina was one of the first to adopt the theory of the "duality of truth." He recognized the possibility of the existence of religion and philosophy independently and separately, based on the achievements of consciousness and experience. According to Ibn Sina, religion is not a "vassal" religion, as in European scholasticism, but it serves the interests of the state. A philosophy that reveals the truth and promotes prosperity is ultimately superior to religion.

The first theoretical source for Ibn Sina was, of course, Greco-Roman philosophy. Many scholars call Ibn Sina's philosophy an eclectic union of the philosophy of Plato and Aristotle, or others call him a Platonist and a New Platonist. According to scholars such as M. Asimov and M. Dinorshoev, Ibn Sina's teaching on the necessity of existence is in fact consistent with the teachings of Plato and Plotinus on the unity (goodness), which shows that they are one in principle. But an analysis of Ibn Sina's works shows that Plato's influence diminished on issues other than this doctrine. In his philosophical views, we do not encounter Plato's theory of the world of ideas at all. Ibn Sina also did not accept his anamnesis theory. According to him, knowledge is not emotional cognition, but the recollection of imagined assimilations in the world of ideas itself through spirits when one touches the world of things.

Ibn Sina's theory, derived from Plotinus' theory of emanation, is arranged in the spirit of naturalism, and it differs greatly from the author's version. The study of his philosophical heritage, in particular his treatises on theology or metaphysics, can shed some light on issues such as the "harmony of religion and secularism", "enlightened Islam", and "intellectual observation in understanding religion". Also, the field of metaphysics is one of the most complex and actual topics in the science of philosophy of religion, Islamic philosophy. There is still a lot of research to be done in this regard, and it will undoubtedly make a significant contribution to the development of Islamic philosophy in our country.

In short, Western scholars claim that Ibn Sina is a representative of naturalistic mysticism or neotomism, and some of them reckon Ibn Sina's teachings are based on the idea of God's transcendence. Others say that Ibn Sina was a materialist thinker.

According to other views, he was not a consistent idealist, nor was he a consistent idealist. According to another view, Ibn Sina is the founder of intellectual Gnosticism. Many of the facts concerning the work of the thinker show that he was a proponent of materialist theory in the field of Gnoseology, unlike Plato. In his works, Ibn Sina criticized the Platonic-Pythagorean "mathematical idealism". Ibn Sina was one of the first to adopt the theory of the "duality of truth." He recognizes the possibility of the existence of religion and philosophy independently and separately, based on the achievements of consciousness and experience.

REFERENCES:

1. Ibn Sina. "Danish-name". Per. A.M.Bogoutdinova. Stalinabad,157
2. A.Irisov. "Abu Ali Ibn Sino. Life and creative heritage. "T. "Fan" .1980.
3. Khivar al-Biruni and Ibn Sina. Abdulkarim al-Yafi. - Damascus: Darulfikr, 2002.
4. Selected Works of Thinkers of the Near and Middle East M., 1961.
5. Yuldasheva, L. S. (2023). THE SPIRITUAL WORLD OF EVERY INDIVIDUAL IS HIS SPIRITUAL POWER. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 666-670.
6. Юлдашева, Л. С. (2023). МУХАММАД ИҚБОЛ ДУНЁҚАРАШИДА ИНСОН МУАММОСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 781-785.

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO VA MILLIY TAJRIBA

BOBOEVA Mohim Shukurovna,

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.

“Mexnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi” o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologik barqarorlikni ta'minlashning umumiy va zarur jihatlari, atrof- muhit va biologic xilma – xillikni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning mamlakat ekologik barqarorligiga ta'sirini O'zbekiston va Xalqaro tajribalarni o'rgangan holda ochib berishga qaratilgan.

***Kalit so'zlar** : ekologiya, milliy tajriba, xalqaro tajriba, qayta tiklanadigan energiya, ekologik barqarorlik, ekobarqarorlikda Kosta – Rika metodi, ekologik turizm, ekologik loyixalash, issiqxona gazlari, atrof muhit samaradorligi indeksi.*

ABSTRACT

In this article, the general and necessary aspects of ensuring environmental stability, the protection of the environment and biological diversity, the use of natural resources, and the impact of the use of renewable energy sources on the environmental stability of the country are revealed by studying Uzbekistan and international experiences. directed.

***Key words:** ecology, national experience, international experience, renewable energy, ecological stability, Costa Rica method in eco-sustainability, ecological tourism, ecological planning, greenhouse gases, environmental efficiency index.*

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish va boshqa qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan Davlat dasturi xalqimiz bilan - maslahatlashgan holda obdan muhokamadan o‘tkazilib, so‘ngra qabul qilinishi an‘anaga aylandi. Mazkur amaliyot, avvalo, xalq bilan muloqot tamoyili asosidagi islohotlarimizning amaldagi natijasi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, xalqimiz o‘z taqdiri ila bog‘liq bo‘lgan har bir konseptual hujjat bilan tanishib chiqishi lozim. Bu yurtimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishi bilan birga, shu zaminda yashayotgan fuqarolarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik hissini uyg‘otmoqda. Mazkur amaliyotning ekologik sohadagi amaliy ifodasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2019 yildagi PF-5863-son 2030 –

yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonini keltirish mumkin. Mazkur farmonning milliy maqsadi sifatida atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, er, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sir hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash keltirib o'tilgan. Xo'sh ushbu maqsadni amalga oshirishda xalqaro va milliy tajriba mutanosibligi qay darajada.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida va bosqichlarida tabiat bilan o'zaro muvozanatda, bir biriga bog'liq ravishda rivojlanib kelgan. Yaqin tarixda boshqa sohalarda o'zaro dunyo xalqlari o'rtasida bo'lgani kabi ekologik sohada ham integratsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bizning davrimizda atrof-muhit barqarorligini saqlash, bunda xalqaro hamjamiyat tajribasini o'rganish ayniqsa muhimdir. Atrof-muhit barqarorligining xalqaro usullari - bu tabiiy resurslardan tejamkor foydalanishni ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlash uchun qo'llaniladigan yondashuvlar. Demak, atrof muhit barqarorligini saqlashda xalqaro tajriba nimalarni ko'rsatyapti. O'zbekiston sharoitida bu usullarni qo'llash amaliyoti nechog'liq samara beradi?

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro amaliyot tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarni, shuningdek, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti kabi tashkilotlar tomonidan belgilangan ekologik standartlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Ekologik barqarorlikning yana bir usuli - tabiiy resurslardan kamroq foydalanadigan va atrof-muhitni ifloslantirmaydigan texnologiyalardan foydalanish. Bunday texnologiyalar quyosh, shamol yoki gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit barqarorligining xalqaro usullari, shuningdek, odamlarning tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va tabiatni muhofaza qilish zarurligi to'g'risida xabardorligini oshirish uchun ta'lim va targ'ibotni o'z ichiga oladi.

Va nihoyat, ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash uchun nazorat qonunchiligi ham qo'llanilmoqda. Hukumatlar va mintaqaviy tashkilotlar to'xtatuvchilarni ekologik standartlarga rioya qilishga va tabiiy resurslar tarmog'ini isrof qiladigan texnologiyalardan foydalanishga undash uchun soliqlar, imtiyozlar va imtiyozlarni belgilashlari mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar bu butun dunyo tomonidan etirof etilgan va aksariyat davlatlar tomonidan amaliyotga qo'lalanilayotgan barqarorlikni ta'minlash

usullari hisoblanadi. Bu bilan birga dunyo ekologiya tashkiloti tomonidan ekologik barqaror davlat sifatida tan olingan davlatlar ham mavjud bo'lib ularni barqarorlikni ta'minlashdagi metodlarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Dunyoning ekologik barqarorlik jihatdan yuqori turuvchi mamlakatlari qatoriga

1. Kosta-Rika atrof-muhit va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga katta e'tibor qaratadigan yetakchi barqaror mamlakatdir.

2. Shvetsiya issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bo'yicha faol choralar ko'rayotgan davlatdir.

3. Norvegiya dunyodagi eng ekologik toza mamlakatlardan biri bo'lib, energiya samaradorligi va barqaror transport tizimlariga muntazam ravishda sarmoya kiritadi.

4. Finlyandiya energiyaning katta qismi qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqariladigan davlat bo'lib, atrof-muhitni saqlash uchun ko'plab innovatsion texnologiyalar yaratilmoqda.

5. Islandiya energiya geotermal va gidroelektr manbalaridan ishlab chiqariladigan, shuningdek, suvni tozalash darajasi yuqori bo'lgan mamlakatdir.

6. Daniya CO2 emissiyasining eng past darajasiga ega bo'lgan va chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bilan shug'ullanadigan mamlakatdir.

7. Shveysariya chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlash tizimi juda rivojlangan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ham faol foydalaniladigan davlatdir.

8. Avstriya issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va barqaror texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha davlat darajasida choralar ko'ruvchi mamlakatdir.

9. Kanada tabiiy resurslarning ulkan zahiralarga ega, lekin ayni paytda bioxilma-xillikni saqlash va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bo'yicha faol ish olib borayotgan davlatdir.

10. Estoniya energiyaning katta qismi qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqariladigan mamlakat bo'lib, ular suvni tozalash va chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha ham faol ishlamoqda.

Endi dinyoning eng yuqori reytingida turuvchi davlatlar misloda barqarorlikni ta'minlash usullarini ko'rib chiqsak! Kosta-Rika - Markaziy Amerikada joylashgan davlat bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilishga innovatsion yondashuvi bilan mashhur bo'lgan davlatdir. Atrof-muhitni muhofaza qilishning Kosta-Rika usuli tabiatni saqlash va unga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan ekologik amaliyotlar to'plami ahamiyatli hisoblanadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlashning Kosta-Rika metodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Biologik xilma-xillik - Kosta-Rika tropik o'rmonlar, okeanlar, mangrovlar va boshqalar kabi turli ekotizimlarni himoya qiluvchi milliy bog'lar va qo'riqxonalar tizimini joriy qildi.

2. Ekologik turizm – davlat tashrif buyuruvchilarga tabiat go'zalligini ko'rish va qadrlash imkoniyatini yaratish maqsadida turizmni faol rivojlantirmoqda. Bu esa tabiatni muhofaza qilish, ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirmoqda.

3. Energiya - Kosta-Rika butunlay qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishga o'tdi.

4. Ekologik loyihalash - shahar muhiti tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirish imkoniyatini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi.

Kosta-Rika usuli bir necha o'n yillar davomida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda va uning biologik, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'lchovlarni o'zida mujassam etgan atrof-muhitni muhofaza qilish yondashuvi barqaror ekotizimlarni yaratishga intilayotgan ko'plab mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi.

Ikkinchi, nisbatan quyi pog'onada bo'lgan Kichik Boltiqbo'yi davlati Estoniyaning ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi usuli samarali hukumat dasturlari va atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslarida jamoatchilik ishtiroki orqali ekologik barqarorlikni namoyish etadi. Ushbu yondashuvning ba'zi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ekologik omillarni hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish, bu esa mamlakatni atrof-muhit hisobiga emas, balki uni saqlash va hurmat qilish uchun rivojlantirish imkonini beradi.

- energiya tejash sohasidagi innovatsiyalar. Bunga shamol energiyasi va quyosh panellaridan foydalanish kabi yangi texnologiyalar va dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, OECD mamlakatlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali erishilmoqda.

- qat'iy ekologik standartlar. Buning uchun chiqindilarni chiqarish va boshqa parametrlarni tartibga soluvchi, firma va korxonalar faoliyatiga cheklovlar belgilovchi maxsus qonunlar va qoidalar yaratilgan.

- Ekologik harakatda jamoatchilik ishtiroki: Estoniya fuqarolari ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etadilar, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar holatlarida norozilik aksiyalarini tashkil qiladilar.


Shunday qilib, Estoniya hukumat va fuqarolar ekologik barqaror jamiyat yaratish uchun qanday hamkorlik qilishlari mumkinligining yorqin namunasidir.

Atrof muhit muhofazasi va ekologik barqarorlik indeksi bilan ishlovchi yana shunday xalqaro tashkilotlardan biri Dunyoning eng toza mamlakatlari reytingi har yili monitoring qiluvchi Yer ekologiya huquqi va siyosati markazi tomonidan tuziladi. Ekologik samaradorlik tadqiqoti mamlakatning ekologiya va tabiiy

resurslardan foydalanish holati bo'yicha erishgan yutuqlarini 10 ta toifadagi 22 ta ko'rsatkich asosida o'lchaydi, ular tabiiy muhit holatining turli jihatlarini va uning ekologik tizimlarining hayotiyiligini, bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, aholi salomatligi va xo'jalik faoliyati amaliyoti va uning atrof-muhitga ta'siri darajasi, shuningdek ekologiya sohasidagi davlat siyosatining samaradorligi. Atrof-muhit samaradorligi indeksi o'rtacha 2 yilda bir marta yangilanadi.

Atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) ma'lumotlarga boy barqarorlik ko'rsatkichlari kartasini taklif etadigan ilg'or ilmiy xulosalarga asoslanadi. 40ga yaqin ishlash ko'rsatkichlaridan foydalangan holda, EPI 180 mamlakatni himoya qilish bo'yicha milliy sa'y-harakatlari bo'yicha reytingni tuzadi atrof-muhit salomatligi, ekotizim hayotiyiligini oshirish va iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha. Ushbu ko'rsatkichlarni o'lchash davlatlarning xalqaro miqyosda uchrashishga qanchalik yaqin aniq barqarorlik maqsadlari ham nomoyon bo'lishini EPI tadqiqotlarining asosiy mohiyatini ko'rsatadi. Quyida EPI ning oxirgi tadqiqot natijalari keltirilgan (1 rasm)

1 - rasm



O‘zbekiston o‘zining ekologik holatini yaxshilash va ekologik barqarorlikka erishish uchun o‘tgan yillar davomida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Mamlakatning ushbu sohadagi yutuqlaridan ba’zilari:

1. Mamlakat iqlim bo‘yicha Parij bitimini imzoladi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha milliy harakat dasturini qabul qildi.

2. O‘zbekiston quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda 100 megavatt quvvatga ega birinchi quyosh elektr stansiyasi qurildi.

3. Daryo va ko‘llardagi tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish, suv sifatini nazorat qilish loyihalari amalga oshirildi.

4. Daraxt ekish va shahar bog‘larini barpo etish ishlari olib borilmoqda va shaharlarda havo ifloslanishiga qarshi kurash choralari ko‘rildi.

5. Biologik xilma-xillikni saqlash va qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar va boshqalar kabi tabiiy resurslarni saqlash choralari ko‘rildi.

Bu yutuqlar O‘zbekistonda mamlakatda ekologik barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida faol ish olib borilayotganidan dalolat beradi.

Biroq ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, O‘zbekistonda ekologik vaziyat noqulayligicha qolmoqda. Mamlakatning ayrim shaharlari, masalan, Toshkent va Samarqand mintaqadagi eng ifloslangan shaharlar qatoriga kiradi. Shuningdek, ruxsatsiz chiqindixonalar muammosi, aholini atrof muhit ekologik holati bilan tanishtirish, tabiiy texnikalar ishlab chiqarish, organik ta‘minlash buyumlarini rivojlantirish, zamin va suv manbaini boyitish, ekologik savodxonlikni oshirish, ekologiya huquqi sohasida huquqbuzarliklarni monitoring qilish va profilaktikasini yuritish, sohaga oid kadrlar zahirasini o‘stirish, aholining turmushga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, yuridik tizimni yaxshilash, xavfsizlik va zaharlanishni kamaytirish va to‘xtatish ham dolzarbligicha qolmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 21 dekabr soni.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.

4. “BMT ming yillik taraqqiyot dasturi” Xalq so‘zi gazetasi 2010 yil 15 sentabr soni .
5. “Ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifa”. “Xalq so’zi” 05 iyun 2018 yil soni.

МЕДИАТАЪЛИМ ИНДИВИДУАЛ ТАЪСИР ЭТАДИГАН УСУЛ

Б.Э.Каршиев

Ренессанс таълим университети

Ижтимоий-сиёсий фанлар кафедраси доценти

АННОТАЦИЯ

Таълим ҳар томонлама тараққий этаётган бугунги кунда таълим муассасаларида таълим-тарбия сифатини ошириш ва бунда илм-фан, техника тараққиётидан кенг фойдаланиш, фойдаланганда ҳам унумли ва тушунган ҳолда фойдаланиш, эгалланган компетенцияларни ҳаётда, амалиётда қўллай олиш муҳим аҳамият касб этади.

Калим сўзлар: *медиа таълим, маънавий бўшлиқ, ахборот асри, компетенциявий ёндашув.*

ABSTRACT

Today, when education is progressing in every way, it is important to improve the quality of education in educational institutions and to make wide use of the development of science and technology.

Key words: *media education, spiritual gap, information age, competence approach*

КИРИШ

Ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этиш бугуннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан бирга, унинг салбий оқибатлари ҳам ҳаётимизга кириб келмоқда. Бундай хатарлардан ҳаётимизни асраш, маънавий бўшлиққа йўл қўймаслик учун, аввало, эзгу инсоний ғоялар ва юксак маҳорат билан яратилган асарлар орқали, бугунги кунда жаҳон майдонида юз бераётган кескин акл-заковат ва истеъдод мусобақасида беллашувга қодир бўладиган ёшларни тарбиялашни ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқдаки, бунинг учун таълим муассасаларида дарс бериб, фаолият юритиб келаётган ўқитувчига замон билан ҳамнафас бўлиш, талаб даражасида меҳнат қилиш, ўқувчи-ёшларга таълим-тарбия беришдек вазифа, катта масъулият юкланади.

Замонавий ўқитувчи бугунги «ахборот асри» деб номланган янги даврда:

- ўз билимларини мунтазам ошириб бориш;
- ахборотларни тўплаш;

- уларни таҳлил қилиш;
- ахборотни қайта ишлаш ва уларни узатиш;
- муаммолар ва келишмовчиликларни ҳал қилиш;
- мустақил қарорлар қабул қилиш;
- ижтимоий-иқтисодий ҳамкорлик қилиш;
- илғор технологиялардан фойдалана олиш ва уларни амалиётга татбиқ эта олиши талаб этилади.

Шунингдек у:

- мактабда меҳнат қилиш лаёқатига тайёр бўлиши;
- олган билимларини амалиётга татбиқ эта олиши;
- кундалик ҳаётда қўлланувчи технологиялардан хабардор бўлиши;
- муаммо хусусида чуқур фикрлаш ва ўз билимини ошириб бориши;
- меҳнат жамоаси ва мутахассислар билан ҳамкорлик қила олиши;
- зарурат бўлганда қарорлар қабул қилиши;
- муаммоларни ҳал этиш ва янги фикрлар яратишда замонавий технологиялардан фойдалана олиши талаб этилади.

Ахборот билан ишлаш компетенциясини шакллантиришда:

- мавжуд ахборот манбаларидан (интернет, телевизор, радио (аудиовидео ёзув), телефон, компьютер, электрон почта ва бошқалар) фойдалана олиш;
- медиавоситалардан зарур бўлган ахборотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш, хавфсизлигини таъминлаш ва фойдаланишда медиамаданият (турли медиа асарларни таҳлил қилиш, баҳолаш, яратиш учун зарур бўладиган билим, кўникма ва малакалар йиғиндисига) риоя қилиш;
- маълумотлар базасини ярата олиш, асосийларини танлай олиш ва уларни таҳлил қила билиш;
- кундалик фаолиятда учрайдиган ҳужжатлар билан ишлай олиш (оддий табрикномалар ёза олиш, анкеталар тўлдириш, меҳмонхона рўйхатида ўзи тўғрисидаги маълумотларни қайд эта олиши ва бошқалар)ни билиши ва амалда қўллай олиши керак бўлади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Демак, таълимда компетенциявий ёндашув орқали ўқувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли типдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатиш, таълим муассасасида умумтаълим фанлари бўйича ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишлари билан биргаликда, ўз фикрини бошқаларга

тушунтира олиш, бошқаларни тинглаб уларни тушуна олиш, баҳсга киришиш, кундалик ҳаётда муваффақиятларга эришиш учун ўқувчи ушбу ахборотларни излаб топиши, таҳлил қилиш, билим, кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётларида учрайдиган муаммоларни ҳал этишда фойдалана олишларини шакллантириш зарур.

Буларни, албатта, ҳар бир ўқитувчи ўзининг самарадор дарслари орқали амалга оширади. Бу борада, айниқса, таълим-тарбияни медиатаълим орқали амалга оширсан, амалий натижа яққол кўзга ташланади.

Медиатаълим интерфаол, ўқувчига индивидуал таъсир этадиган усул сифатида таълим жараёнига жадал суръатлар билан кириб келмоқда. Медиатаълим ўқувчини шахсий фикр юритиш, ижодкорлик фаолиятларини ривожлантириш, ахборот олиш, уни қайта ишлаш, синтез қилиш, шахсий хулосалар чиқаришга ўргатади.

Синфхоналарга матбуот, телевидение, радио, кино, видео ва интернетлар олиб кирилмоқда. Буларнинг барчаси «медиадарслар» номи билан таълим жараёнини ташкил этишга ёрдам бермоқда. Шу муносабат билан мактаб таълимига медиадарслар киритилмоқда. Медиадарсларнинг қандай методик имкониятлари бор ва улар қандай афзалликларга эга?

- Ўқув жараёнида бир вақтнинг ўзида ўқитувчи назарий ахборотларни бериш билан материалларни юқори даражадаги замонавий техника воситасида намойиш этиш имкониятига эга бўлади. Ўқув объектлари ва воқеаларини моделлаштиради, уни автоматик равишда тест кетма-кетлигида намойиш этади, тасвирини туширади.

- Ўқув меҳнат фаолиятларини ташкил этишда компьютер техникаларини қўллаш, фойдаланиш имкониятини туғдиради. Шахсан ўзлари ўқув материалларини амалиётда синаб, бажариб бориш имкониятига эга бўладилар.

- Ўқувчининг яққо тартибда ишлаган ҳолда қизиқиш ва ижодий ишларини такомиллаштириш имконияти яратилади.

- Мультимедиа техникаси ўқувчиларнинг ўқув мазмунини ўзлаштиришларига қизиқишини янада оширади.

- Ўқувчида кўргазма-образли таъсирда фикр юритиш, моторик ва вербал коммуникатив кўникмаларнинг шаклланишига олиб келади.

- Ахборот билан ишлаш (ахборот қидириш, зарурларини ажрата билиш, қайта ишлаш, тартибга келтириш), ахборотлар мазмунини тушуниш, мантиқий яқинларини ажратишга ўргатади. Шулар асосида ахборотни олиш маданияти шаклланади.

Медиатаълимнинг бош мақсади асосий қонунларни тушунишга ёрдам бериш, оддий йўналишлардаги медиаахборотлар тилини ўрганиш; ўқувчининг бадиий ўсиши, ривожланишига ҳисса қўшиш, медиатекстларни малакали таҳлил эта олиш, ўргатиш ва қабул қилиш кўникмасини шакллантиришдан иборат.

Унинг педагогик стратегияси медиаматнларни бадиий таҳлил қила олиш, унга луғавий асосда баҳо бера олишдан иборатдир.

Медиатаълим қандай шаклланади? («Медиатаълим деганда педагогика назарияси ва амалиётида махсус билим соҳаси сифатида қаралаётган оммавий коммуникация воситаларини эгаллаш учун назарий ва амалий кўникмаларни шакллантиришни тушуниш лозим». ЮНЕСКО.) У муайян ҳақиқатни ифодалайдими? Кимнинг манфаатини кўзлайди? Унинг мазмуни нималардан иборат? Ўқувчилар уни қандай қабул қиладилар?

Таъкидлаш жоизки, медиатаълимнинг марказида ўқувчи шахси туради, унинг қизиқиш, хоҳиш-истаклари ҳисобга олинishi, олинган ахборотларга танқидий кўз билан қараб, уларни танқидий фикрлашга ўргатиш керак.

Россия ва бошқа мамлакатлар олимларининг фикрига кўра, медиатаълим тарбиявий, таълимий аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчиларни ўқув-билиш жараёнида креатив фикрлашга ўргатади.

Медиатаълимнинг ўқув-билиш жараёни қуйидаги босқичлардан иборат:

- медиатаълим тарихи ҳақидаги билимлар, унинг тузилиш назариясини ўрганиш-ўзлаштириш;
- медиаматнларни онгли қабул қила олиш, унинг тилини билиш ва «ўқита олиш», шу ҳақида тасаввурларини кенгайтириш, кўриш орқали хотирасини мустаҳкамлаш, танқидий, мантиқий, ижодий, образли, муаммоли фикр юритишни ўрганиш;
- медиа материаллардан креатив фикрлаш орқали амалиётда фойдаланиш.

Медиатаълимнинг энг муҳим вазифаларидан бири, ўсиб келаётган янги авлодни тобора жадаллашиб бораётган ахборотлар оқимида турли ахборотларни олиш, тушуниб етиш, унинг инсон психикасига таъсирини билиш ва ундан тўғри, мақсадли фойдаланишга олиб келади.

Медиатаълим олинган ахборотларни интеграция қилиш, шу асосида шахсий фикрини билдириш ва қайта олишга чорлайди. Ўз фикрини эркин билдириш, шахсий ривожланиш, турли ахборий хуружларга қарши фикр билдириш орқали унинг ижтимоий жамиятдаги фаоллиги ошади. Медиа ахборотлардан фаол ва тўғри фойдаланиш маданияти шаклланади. Шу орқали

берилаётган ахборот ҳақида фикр юритила бошлайди ва ахборот билан ишлаш компетентлиги шаклланади.

Медиатаълимда ўқувчи креатив фикр юритади, яъни, янги тушунчаларни ўзлаштира бошлайди. Жумладан, «фабула», «сюжет», «мавзу», «конфликт», «композиция», «кадр», «план», «монтаж» каби тушунчаларни ўқув жараёнига алоқадорликда тушуниб, амалда қўллаб, ўзлаштириб боради.

Шунинг учун ҳам медиадарслар:

- «Бадиий имитацияли» кичик сценарийлар, минисценарий, медиаматнлар тузиш, уни интерфаол усулда намойиш этиш;
- театрлашган вазият ҳосил қилиш (медиаматн асосида айрим эпизодларни инсценировка қилиш, медиаматн жараёнини намойиш этиш);
- тасвирий-имитация тайёрлаш (афишалар яратиш, фотоқўргазма, маълум мавзуда асарлардаги расмларни намойиш этиш) кабиларни тушуниш, қўллай олиш кўникмасини ҳосил қилади.

Юқоридаги дидактик материалларни тайёрлаш, намойиш этиш, таҳлил асосида хулоса қилиш, ўқувчининг эмоционал қабул қилиши орқали нафис санъатни тушунишига олиб келади. Бу ҳолат ўқувчининг умуминтеллектуал ривожланиши, билим олиши, тарбия топишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Медиадарслар берилаётган ахборотларни қабул қилиб олиш, ўзлаштириш жараёнида икки янги компонентнинг иштирокини таъминлайди.

Биринчидан, медиадарсларда компьютерлар универсал ҳолда қўлланиши ва иштироки билан характерланади.

Иккинчидан, анъанавий технологиялар воситалари ёнига дастурли воситалар тўлдирувчи бўлиб киради. У ҳолда айрим предметлар, мавзуларни ўқитиш, ўзлаштиришга қулай муҳит яратилади. Бунда таълим мазмуни, матн аниқ раво шакллантирилган бўлади. У таълим мазмуни тасвирланган ҳолда схема, расмлар, жадваллар, видеофрагментлар, овозли, анимацион таъминотлар билан намойиш этилади.

Юқоридаги фаолиятни амалга оширишда компьютер ва дастурлар бир-бири билан уйғунлашган, мослашган ҳолда бир-бирини тўлдириши керак. Таълим мақсади, мазмуни, шакли, ўқитиш методлари, ўқитувчи ва ўқувчилар фаолияти мувофиқлаштирилади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим муассасалари тизимида педагогик ходимларни ўқитиш жараёнига

«Медиатаълим асослари» ўқув курсини киритиш ва ундан таълим соҳасини янада такомиллаштиришда самарали фойдаланиш давр талабидир. Зеро, медиатаълим педагогларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш билан бир каторда дарс жараёнида ўқувчиларнинг билим, маълумотнинг тез, тушунарли ва ёдда қоларли бўлишини таъминловчи таълим усули эканлиги билан ҳам муҳим ўрин тутади.

QADIMGI BAQTRIYA GLIPTIKASIDAGI “SIRLAR”

Norxamidova Muattar Zavqiddin qizi

Termiz Davlat universitetining Magistratura bo'limi

Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qadimgi Baqtriyadagi, xususan, Shimoliy Afg'onistondagi minglab qabrlardan talon-taroj qilish natijasida topilgan noyob tasvirlarga ega qadimiy gliptika va sfragistikaning bebaho kolleksiyalari, muhr va tumorlarda tasvirlarning shakllanishi, ularning muhrlar tasvirlari bilan o'xshashliklari va farqlari tahlil qilingan. Sopollitepa madaniyatining tumorlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *Avesto, Mitra, gliptik, ikonografiya, xaoma, kosmogonik, mifologiya, xoch, svastika, rozet.*

In this article, priceless collections of ancient glyptics and sfragistics with unique images found through looting excavations in thousands of graves in Ancient Bactria, especially in Northern Afghanistan, the formation of images on seals and amulets, their similarities and differences with the images of seals and amulets of the Sopolly culture are discussed

Key words: *Avesta, Mitra, glyptic, iconography, haoma, cosmogonic, mythology, the cross, swastika, rosette.*

KIRISH

Ma'lumki, yaqin-yaqingacha qadimgi Baqtriya bronza davri aholisining dunyoqarashi va diniy e'tiqodlari bizga notanish bo'lib, faqatgina bu mamlakatning xronologik davri haqida ozroq ma'lumotga ega edik, xolos. Ushbu mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar tomonidan bu davr mil.avv.III-ming yillik oxiri va mil.avv.II-ming yillik boshlariga belgilanib, bu yerda mavjud bo'lgan svilizatsiya yo'qolib ketgunga qadar g'oyat brilliant svilizatsiya bo'lganligi, ammo sirliligicha qolganligi e'tirof etilgan. Qadimgi Baqtriya dunyosini tasavvur qilishda tarix fanining yordamchi sohalaridan biri bo'lgan gliptika yo'nalishi yordamga keladi.

Gliptika⁵¹-qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, metallar ustini o'yish vazifasini bajargan qadimiy san'at turlaridan biri sanaladi. Qadim zamonlardan bu kabi o'yilgan toshlar muhrlar, shtamplar, tumorlar va bezaklar sifatida xizmat qilgan. Aynan shu kabi Shimoliy Afg'onistonning minglab qabrlaridan topilgan muhr va tumorlar orqali qadimgi Baqtriya aholisining diniy hamda, dunyoviy qarashlari, madaniyati va g'oyalari haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'linadi. Ushbu

⁵¹ * Gliptika-qadimgi yunoncha “glypho” - kesish, bo'shliqlar.

sohaning yetuk mutaxassislaridan biri bo'lgan V.Sarianidi talonchilik qazishmalarida minglab qablardan topilgan, Kobul antikvar bozorlarida sotuvga chiqib ketgan muhr, tumorlarga boy kolleksiyalarning rasm va nusxalarini yig'ishga muvaffaq bo'ldi hamda, «ikonografiya»-rasm va begilarni o'rganish orqali ushbu madaniyatning boy ma'lumotlarini oshkor qildi. Uning “Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyonaning muhr va tumorlari” deb nomlangan asaridan nafaqat Afg‘oniston bozorlarida sotilgan, balki shaxsiy kolleksionerlar va Yevropa muzeylarida saqlanayotgan muhrlar ham joy olgan. Asarda Baqtriya va Marg‘iyona muhrlari rasmlari ilova qilingan⁵².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu asarda qadimgi Baqtriyadan 1548 ta, qadimgi Margiyonadan esa 254 ta topilgan jami muhrlar muallif tomonidan mazmuniga ko'ra 6 ta katta guruhga bo'lingan:

1. Antromorfa (odamsimon) tasvirlar.
2. Zaharli ilonlar va ajdarlar tasvirlari.
3. Aqlga sig'mas mavjudotlar tasvirlari.
4. Hayvonlar va qushlar tasvirlari.
5. Umurtqasiz hayvonlar va o'simliklar tasvirlari.
6. Individual muhr va tumorlar.

Mana shu o'rinda, ya'ni muhrlarni mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratish jarayonida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Negaki, asardagi muhr va tumorlarni tasniflab chiqish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, ularda yuqoridagi 6 ta guruhga kirmay qolgan tasvir shakllari ham mavjud.

Qadimgi Baqtriya muhrlari xususida so'z yuritganimizda guruhlariga kiritilmay qolgan tasvirlar ham asosiy muhim o'rinni egallaganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, xoch, svastika, geometrik tasvirlar va to'pbarggul shaklli bezaklar. Bu shakllar orasidan xoch tasviri muhr va tumorlarda eng ko'p tasvirlangan ifoda hisoblanib, mifologiyada xoch-inson tabiatining ajralmas bir bo'lagi hisoblangan. Aylana va xochning birga ifodalanishi esa osmon jismlari va tabiatni birga tasavvur etish, kosmogonik tushuncha-yilning teng to'rtga, faslga bo'linishiga ishoradir⁵³. Svastika xochning takomillashgan varianti hisoblanib, muhr va tumorlarda deyarli ko'p uchramaydi.

Xoch tasviridan keyingi asosiy o'rinni to'pbarggul shaklli bezaklar egallaydi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi Baqtriyaning Dashtli madaniyatiga tegishli hududlardan topilgan muhrlarni Sopolli madaniyati muhrlari

⁵² Sarianidi V.I. Myths of ancient Bactria and Margiana on its seals and amulets. - Moskov, 1998. – P. 327.

⁵³ Shaydullayev.A.Sh. Sopolli madaniyatining gliptikasi va sfragistikasi//Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya.-Samarqand,2018.

bilan taqqoslaganda o'xshashliklar bilan bir qatorda turli farqlar borligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, To'pbarggulli muhrlar Sopolli madaniyatining eng xarakterli jihatidan biri hisoblanadi va ramzlar dunyosida quyoshni anglatadi⁵⁴. Aynan shu tasvir Qadimgi Baqtriya muhr va tumorlaridagi tasvirlarning xochdan keyingi katta qismini egallaydi. Bu kabi tasvirlarni yuqoridagi 5-guruhga ya'ni umurtqasizlar va o'simliklar guruhiga kiritish mumkin. Shuningdek, Sopolli madaniyatida o'simlikning echki bilan birgalikda ifodalanishi unga turdosh ikkinchi madaniyatda echkining «hayot daraxti» bilan tasvirlanishida namoyon bo'lgan. Bu tasvirlardagi o'simlik ko'knor deb tasavvur qilinadi. Chunki, aholining sevimli ichimligi bo'lgan «haoma» echki suti va ko'knor aralashmasidan tayyorlangan.

Geometrik tasvirlar Sopolli madaniyatida takomillashgan holda tasvirlanib, Sopolli madaniyati gliptikasining 40%dan oshig'ini geometrik tasvirlar tashkil etadi⁵⁵. Dashtli madaniyatida esa ushbu tasvirlar oddiy tarzda ifodalanib, sezilarli o'rin egallamaydi. Shuningdek, Sopollitepa muhrlaridagi odam tasvirlariga hayotiylik va tabiiylik xos bo'lsa, ikkinchi madaniyat odamlari esa xayoliy dunyoda, ya'ni kosmogonik xarakterda ifodalanadi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, qushlar va hayvonlar guruhiga kiritganimiz geraldik burgut tasvirlarini alohida guruh sifatida ajratib olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, zaharli hayvon ilonni o'ldirishi mumkin bo'lgan burgut, laylak, lochinlarga nisbatan mifologiya dunyosida ijobiy sifatlar berilgan va «quyosh ma'budlari», «quyosh qushlari» deya atalgan⁵⁶.

Bizga ma'lumki, qadimgi Baqtriya aholisi orasida «Avesto»da nomi ko'p marta tilga olingan quyosh xudosi Mitra ulug'langan. Shuningdek, mifologiyada quyosh ramzini anglatuvchi to'pgulbarg shakllari hamda Mitraning ramzi sanalgan xoch tasvirlari ham yuqoridagi fikrlar bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qadimgi Baqtriya muhr va tumorlardagi tasvirlarni guruhlarga bo'lish ancha murakkab ish sanaladi. Negaki, har bir tasvir turlicha ma'nolarni anglatadi. Shunga qaramasdan, ayni vaqtda ushbu masala yuzasidan yetarlicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va izlanishlar natijasida yutuqlarga erishilmoqda.

⁵⁴ Рошаль В.М. Энциклопедия символов. - М., -Л., 2008. -С. 18.

⁵⁵ Shaydullayev A.Sh. Sopolli madaniyati muhr-tamg'alari tipologiyasi // O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand, 2013.

⁵⁶ Зороастрийские тексты. Бундахишн – “Сотворение основы”. - М., 1997, - С. 265-311; Чунакова О.М. Пехлевийский словарь Зороастрийских терминов, мифических персонажей и мифологических символов. - М., “Восточная литература”, 2004.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Sarianidi V.I. Myths of ancient Bactria and Margiana on its seals and amulets. - Moskov, 1998. – P. 327.
2. Shaydullayev.A.Sh.Sopolli madaniyatining gliptikasi va sfragistikasi//Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya.-Samarqand,2018.
3. Рошаль В.М. Энциклопедия символов. - М.,-Л., 2008. -С. 18.
4. Shaydullayev A.Sh. Sopolli madaniyati muhr-tamg'alari tipologiyasi // O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand,2013.
5. Зороастрийские тексты. Бундахишн – “Сотворение основы”. - М., 1997, - С. 265-311; Чунакова О.М. Пехлевийский словарь Зороастрийских терминов, мифических персонажей и мифологических символов. - М., “Восточная литература”,2004.

TURK TILI VA XORAZM SHEVASIDAGI ISIM SO‘Z TURKUMIGA OID O‘ZARO MA‘NODOSH BIRLIKLAR

Saburov Bobur

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasi o‘rtasidagi isimlar so‘z turkumiga oid so‘zlardagi o‘xshashliklar va ularning o‘zbek tilining qolgan lahjalaridan ayiruvchi xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan hamda ularga bir qator misollar keltirilgan. Ba‘zi bir jihatlariga ko‘ra xorazm shevasi o‘zbek tilining boshqa lahjalariga mansub shevalaridan ko‘ra turk tilida yaqinligi seziladi. Xorazm shevasining o‘zbek tilidagi qolgan shevalardan farqliligini ko‘rsatuvchi, turk tilida ham bir xil ma‘noni anglatuvchi so‘zlar talaygina. Dunyoning barcha til va shevalarida bo‘lgani kabi o‘g‘uz guruhiga mansub til va sheva hisoblanuvchi turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasida ham ularni qolgan tillardan ajratib turuvchi ot, sifat, son, ravish, fe‘l so‘z turkumlariga oid so‘zlar va so‘z birikmalari mavjud. Turk tili va o‘zbek tilining xorazm shevasidagi ma‘nodosh va bir xil bo‘lgan so‘zlari qatoriga qarindosh-urug‘chilik (dayi), arxitektura (dalan), inson tana a‘zolari (dudak), tibbiyot (öksürük) va boshqa ko‘plab sohalardan misol keltirish mumkin. Turk tilida va xorazm shevasida qo‘llaniluvchi so‘zlarning ba‘zilari turk tilida ko‘plab va xilma-xil ma‘nolarni ifodalagan holda xorazm shevasida aniq bir ma‘noni ifodalashi va yoki buning aksi kuzatilishi ham mumkin. Turk tili va xorazm shevasidagi ma‘nodosh so‘zlar orasida talaffuzda bazi bir farqliliklar mavjud. Bunday farqlar asosan –e va –a tovushlarining hamda –u va –o tovushlarining o‘z o‘rnini ikkinchisiga bo‘shatib berishi bilan bog‘liq. Ba‘zi so‘zlar o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lsada amalda muomalada faqat xorazm vohasida saqlanib qolingan va ularning turk tilida ham bir xil shakldagi ma‘nodoshlari mavjud.

Tayanch so‘z va iboralar: Turkiy tillar, Isimlar, fonetik farqlar, o‘g‘uz tillari, sheva, frazeologik iboralar, maqol, O‘zbek adabiy tili, Xorazm.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется сходству турецкого и хорезмского диалектов узбекского языка в плане существительных и их отличиям от других диалектов узбекского языка, а также приводится ряд их примеров.. По некоторым аспектам хорезмский диалект ближе к турецкому языку, чем диалекты, относящиеся к другим диалектам узбекского языка. Есть много слов, которые показывают отличие хорезмского диалекта от других узбекских диалектов и имеют в турецком языке одинаковое значение. Как и во всех языках и диалектах мира, в турецком языке и хорезмском

диалекте узбекского языка, которые считаются языками и диалектами, принадлежащими к огузской группе, имеются слова и словосочетания, связанные с существительными, прилагательными, числами, наречиями и глаголами, которые отличают их от других языков. Среди синонимов и одних и тех же слов в турецком языке и хорезмском диалекте есть родство (*dayı*), архитектура (*dalan*), части человеческого тела (*dudak*), медицина (*öksürük*) и примеры можно привести из многих других областей. Некоторые слова, используемые в турецком языке и в хорезмском диалекте, выражают множество разнообразных значений в турецком языке и выражают определенное значение в хорезмском диалекте, или наоборот. Существуют некоторые различия в произношении аналогичных слов в турецком языке и хорезмском диалекте. Такие различия обусловлены главным образом тем, что звуки *-e* и *-a* и *-u* и *-o* уступают место другим. Хотя некоторые слова существуют в узбекском литературном языке, на практике они сохранились только в Хорезмском оазисе, и такое же значение они имеют и в турецком языке.

Опорные слова и выражения: Тюркские языки, существительные, фонетические особенности, огузские языки, диалект, Узбекский литературный язык, пословица, Хорезм.

ABSTRACT

This article focuses on the similarities between the Turkish and Khorezm dialects of the Uzbek language in terms of nouns and their differences from other dialects of the Uzbek language, and also provides a number of examples. In some aspects, the Khorezm dialect is closer to the Turkish language than dialects belonging to other dialects Uzbek language. There are many words that show the difference between the Khorezm dialect and other Uzbek dialects and have the same meaning in Turkish. This article focuses on the similarities between the Turkish and Khorezm dialects of the Uzbek language in terms of nouns and their differences from other dialects of the Uzbek language, and also provides a number of examples. In some aspects, the Khorezm dialect is closer to the Turkish language than dialects belonging to other dialects Uzbek language. There are many words that show the difference between the Khorezm dialect and other Uzbek dialects and have the same meaning in Turkish. As in all languages and dialects of the world, in the Turkish language and the Khorezm dialect of the Uzbek language, which are considered languages and dialects belonging to the Oguz group, there are words and phrases associated with nouns, adjectives, numbers, adverbs and verbs that distinguish them from other languages. Among the synonyms and the same words in the Turkish

language and the Khorezm dialect are kinship (*dayı*), architecture (*dalan*), parts of the human body (*dudak*), medicine (*öksürük*) and examples can be given from many other fields. Some words used in the Turkish language and in the Khorezm dialect express many different meanings in Turkish and express a certain meaning in the Khorezm dialect, or vice versa. There are some differences in the pronunciation of similar words in the Turkish language and the Khorezm dialect. Such differences are due mainly to the fact that the sounds *-e* and *-a* and *-u* and *-o* give way to others. Although some words exist in the Uzbek literary language, in practice they were preserved only in the Khorezm, and they have the same meaning in Turkish.

Keywords and expressions: *Turkic languages, nouns, phonetic features, Oghuz languages, dialect, Uzbek literary language, proverb, Khorezm.*

KIRISH

Ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o'rganib kelganlar. Bu so'z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni *ismlar* atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Turk tilida ham shu kabi tushuncha mavjud. Shu sababli turk tili va o'zbek tilining xorazm shevasidagi ma'nodosh so'zlarni mayda guruhlariga ajratmasdan birlashtirib o'rganishni maqsad qildik. Turk tili va xorazm shevasidagi ma'nodosh so'zlardan ismlar asosiy qismni tashkil etadi. Quyida keltirilib o'tilgan ismlar turli xil soha va mavzuga oid.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Ad” so'zi bir shaxs yoki biror narsaning ismini, nomini bildiruvchi so'zdir⁵⁷. Xorazm shevasida ham aynan bir hil ma'noda qo'llaniladi. Bunda **ad** so'zi ishlatilishi uchun nomlanuvchining jonli yoki jonsiz bo'lishi ahamiyatli emas. Bundan tashqari ad so'zi bilan yasalgan bir qancha so'z birikmalari ham ma'no jihatidan o'xshash hisoblanadi.⁵⁸

Masalan,

⁵⁷ www.sozluk.gov.tr

⁵⁸ EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezmi-Oğuzcası. 114-126 b.

Turk tilida: *"Görmediniz mi, adını söyleyince herkes put kesiliyor."* – **Ahmet Hamdi Tanpınar**⁵⁹

Xorazm shevasida: *Og'am mannan muğallimimni adını soradı.*

Acı so'zi turk tilida keng qamrovli so'z bo'lib ta'mning achchiqliginigina anglatib qolmagan azob, uqubat manolarini ham bildiradi. Xorazm lahjasida esa faqat ta'm achchiqligi manosida bir xil ma'noni anglatadi. Faqat Xorazmda ushbu so'zdagi **c** tovushi ba'zan ikkilangan holda ko'zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: *"O acı kahvesini yudumluyordu."* – **Tarık Buğra**

Xorazm shevasida: *U ovkatını accı bolışını hohladı.*

Adım so'zi o'zbek tilida qadam so'ziga to'g'ri keladi. Turk tilida va Xorazm lahcasida ham bu so'z bir xil ma'no anglatadi va bir xilda talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *Cebimize bir tane adim sayar alarak 5 bin adımın üstüne çıkacak kadar bir yürüyüş yapmak gerekir.*

Xorazm shevasida: *Feruz har adımında koshık aytıb borar adi.*

Turk tilida, o'zbek adabiy tilidagi aka so'zi **ağabey** shaklida mavjudligi ma'lum. Ammo uni xorazm shevasida bo'lgani singari **ağa** tarzida qo'llashlarini ko'pchilik bilmasa kerak. Bu talqinda ham turk tilida ham xorazm shevasida ushbu so'z bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Köye varınca ağamdan parasını muhakkak alır, sana veririm."* -

Etem İzzet Benice

Xorazm shevasida: *Sarvarning ağası ertang armiyadan kaytar akan.*

Aşağı so'zi past yoki pastki qism ma'nosini bildiradi. Xorazm shevasida bu so'z bazan **aşağ(ı)** bazan **aşak** tarzida talaffuz qilinadi ammo bir xil ma'noni anglatadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Aşağı katı, sakın ve daha sıcak olduğu için seçtik."* – **Aka**

Gündüz

Xorazm shevasida: *Akam aşağıdaki kutulanı alışımını ayttı.*

Turk tilidagi **Belli** so'zi o'zbek adabiy tiliga yashirin bo'lmagan, ochiq- oydin, aniq ma'nolarida tarjima qilinadi. Xorazm shevasida bo'lsa bir xil ma'noni anglatadi faqat e tovushi biroz *â* tovushiga yaqinlashadi.

Masalan,

⁵⁹ Turk tilida keltirilgan ushbu maqoladagi misollarning barchasi Turk Dil Kurumining rasmiy www.sozluk.gov.tr saytidan olingan.

Turk tilida: "*Bu azade insanlarda her türlü adiliklerden uzak bir efendilik olduğu ne kadar da bellidir.*" – **Asaf Halet Celebi**

Xorazm shevasida: *Toy günü bâlli bolğanına hamma hursand boldı.*

Bıçkı so‘zi arra ma’nosini anglatadi. Ya’ni biror bir daraxt yoki yog‘ochni arralovchi uskuna. Ot so‘z turkumidagi ushbu so‘z Xorazm shevasida bir xil yoziladi va tallaffuz qilinadi.⁶⁰

Masalan,

Turk tilida: *Sabah kalkar kalkmaz kendime yeni bıçkı alacağım.*

Xorazm shevasida: *Azandan bari bıçkımnı topolmiman.*

Bulaşık so‘zi turk tilida va xorazm shevasida kir, kirlangan, ifloslangan ma’nolarinin beradi va asosa idish-tovoqlarga nisbatan ishlatiladi. Talaffuzida ham hech qanday far mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: "*Bu karmakarışık ve bulaşık âlemi kendi hâline bırakırdı.*" -

Abdülhak Şinasi Hisar

Xorazm shevasida: *Bulaşıklanı tazalaş Sanamni boynında adi.*

Asl kelib chiqishi forsiy so‘z bo‘lgan **Çörek** nonning bir turi ya’ni hamirdan tayyorlanuvchi maxsulot. Bu shaklda Xorazm shevasida ham ko‘zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kahve ile çörek yiyerek çok iştahlı bir kahvaltı yapmıştır.*" –

Salâh Birsal

Xorazm shevasida: *Sevara apkamni yapkan çöraklarını hammasi yeyildi.*

Çürük sifati o‘zbek tilida chirigan, mo‘rt ma’nolarini bildiradi. Xorazm shevasida ham turk tilidagi kabi bir xilda talaffuz qilinib bir xilda yoziladi.

Masalan,

Turk tilida: "*Yabancı, kirli, çürük dişlerini göstererek gülümsüyordu.*" - **Ömer Seyfettin**

Xorazm shevasida: *Almanı çürükünü alıb taşlab yeyişim garak adi.*

Inson va jonzotlar tanasidagi qon tomirlarini anglatuvchi **damar** so‘zi xorazm shevasida ham ayni shaklda uchraydi. Faqatgina ba’zi hududlarda damar o‘rnida damir ishlatilishi ko‘zga tashlanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Alnında ve şakaklarında şişen damarlar ağrıyordu.*" - **Peyami**

Safa

Xorazm shevasida: *İzzat azıb getganından damarları görünib kalvadi.*

⁶⁰ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.

Bunday ma'nodosh so'zlar arxitektura va uy-joy sohalarini ham chetlab o'tmagan. Ya'ni uying biror qismiga nom berishda ham turk tili va xorazm lahjalarida o'xshashliklar ko'zga tashlanib turadi. Ulardan biri **dalan** so'zidir. Bu atama bilan uying yoki biror obyektning kiraverishdagi qismi nomlanadi. Bunda xorazm shevasida ham turk tilidagi kabi yozilib, talaffuz qilinadi.⁶¹

Masalan,

Turk tilida: *Eski Yunanlilar, kutsal tapinakların önünde bulunan ve bir çeşit revaklı giriş olan dalana, pronaos derlerdi...*

Xorazm shevasida: *Begana avazni eşitgan atam tez giyinip dalana çıktı.*

Turk tilida **denk** so'zi xorazm shevasida **dâng** yoki **dengk** ko'rinishida mavjud. Ushbu so'zning o'zbek adabiy tilidagi varianti **-teng** so'zidir.

Masalan,

Turk tilida: "*Çok aradım bulamadım dengimi / Elvan çiçeklerden aldım rengimi*" - **Halk türküsü.**

Xorazm shevasida: *Anvar ağam bilan Sancar ağamni ağırlıkları dâng galmadi.*

Asli kelib chiqishi forcha bo'lgan **destek** so'zi turk tilida va xorazm shevasida bir xil ma'nolarni anglatadi va bir xil talaffuz qilinadi. Bunda yoqdam, ko'mak, qo'llab-quvvatlash ma'nolari asosiy hisoblanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kızardı, söylenirdi ama gene de tek desteği oydu hayatta.*" -

Orhan Hançerlioğlu

Xorazm shevasida: *Oğabekni işda öşişinde dayısının desteği yardım bardi.*

Dışarı⁶² so'zi xorazm shevasida bazan dışarı shaklida ba'zan dışan shaklida yoziladi va talaffuz qilinadi. Bu so'z o'zbek adabiy tilida tashqari yani tashqari qism ma'nosida ifodalanadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Dışarıda, çocuklar birdirbir oynamaya dalmışlardı.*" - **Atilla İlhan**

Xorazm shevasida: *Biza bilan galgan adamla dışarıda kutib duruptı.*

Masalan,

Turk tilida: "*Çevik adımlarla dimdik yürüyen, uzun boylu, yakışıklı, varlıklı bir adam.*" - **Refik Halit Karay**

Xorazm shevasida: *Yakında kasal bolgan Nodir dimdik toya girib galdi.*

Turk tilida ham Xorazm shevasida ham bir xilda yoziluvchi va talaffuz qilinuvchi **diri** so'zi⁶³ o'zbek adabiy tiliga tirik tarzida tarjima qilinadi.

⁶¹ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.

⁶² www.sozluk.gov.tr

Masalan,

Turk tilida: "*Duydum, görmedimse de hortlayan ölüleri / Fakat hortlak diriden kimin vardır haberi?*" - **Faruk Nafiz Çamlıbel**

Xorazm shevasida: *Ahmad kırk yıldan bâri görmagan ânasini hâli diri âkânini eşitib kuvondi.*

Diri soʻzining orttirma nisbattagi shakli boʻlmish **dipdiri** soʻzi ham turk tili va xorazm shevasida bir xil maʼnoni anglatadi va aynisi yoziladi.

Masalan,

Turk tilida: "*O gün çözer gibi olmuştu Kütahya çinilerindeki dipdiri renklerin gizini.*" - **Necati Cumalı**

Xorazm shevasida: *Bahadır dayı uruşhtan dipdiri kaytib galdi.*

Ishimiz davomida inson taʼna aʼzolarining nomlanishidagi bir xilliklarga bir necha bor misol keltirib oʻtdik. Ulardan biri turk tilida va xorazm shevasida oyoqlardagi tizzani anglatuvchi **diz** soʻzidir. Ushbu soʻzning yozilishi ham talaffuzqilinishi ham ayni shakldadir.

Masalan,

Turk tilida: "*Bir iskemlede ellerini dizlerine sermiş, sessizce oturuyordu.*" - **Ayla Kutlu**

Xorazm shevasida: *Yügürüb baryatırgan bala yıkılıb dizasi bilan tüşti.*

Dolu soʻzi turk tilida ham xorazm shevasida ham oʻzbek adabiy tilidagi toʻla soʻzining maʼnosini bildiradi. Faqat xorazm shevasida u tovushi baʼzan "I" tovushiga almashtirilib talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Haftaya pazartesiye kadar bütün uçaklar dolu.*" - **Attila İlhan**

Xorazm shevasida: *Üç aydan bari uyimiz dolı meyman.*

Insonning labini va baʼzan ogʻzini bildiruvchi turk tilidagi **dudak** soʻzi xorazm shevasida ham xuddi shu talqinda yozilib talaffuz qilinadi. Faqat xorazm shevasida baʼzan **dodak** koʻrinishida ham uchrashi mumkin.

Masalan,

Turk tilida: "*Birdenbire kavalı dudaklarına götürdü ve üfürmeye başladı.*" - **Halide Edip Adivar**

Xorazm shevasida: *Dudakları yaradan çışib getganini görgan Bikacan korkıb getti.*

Halı soʻzi xorazm shevasida biroz oʻzgargan holatda yaʼni **ğalı** koʻrinishida uchraydi. Bunda oʻzbek adabiy tilidagi gilam maʼnosini beradi.

Masalan,

⁶³ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.

Turk tilida: *"Pencerelerden Türk kadınlarının dokuduğu halılar ve seccadeler sarkıyor."* - **Falih Rıfki Atay.**

Xorazm shevasida: *Yakında uya yahşısınnan ikki dâna ğalı satıb aldım.*

O'zbek adabiy tiliga lazzat, maza, rohat sifatida tarjima qilinuvchu turk tilidagi **haz** so'zi xorazm shevasida ham bir xilda yoziladi va talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Dört sene evvel kaybettiği karısı Emine Hanım'ın vefatıyla bütün sevgisini, ümidini, hazzını, şefkatini oğluna vermişti."* - **Asaf Halet Çelebi**

Xorazm shevasida: *Horazm lezgisi tânângâ haz baradi.*

Sifat so'z turkumiga kiruvchi, yirik, katta, bahaybat ma'nolarini anglatuvchi turk tilidagi **iri** so'zi xorazm shevasida ham shu ma'nolarni anglatadi. Talaffuzida ham farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: *"Erdal, nişan halkasına benzediğini fakat taşlarının iri olduğunu söyledi."* - **Emine Işınsu**

Xorazm shevasida: *Ğapırlanı üyina bugün iri bir adam meymana galdi.*

Karınca turk tili va xorazm shevasida chumolini anglatadi. Talaffuzida farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: *Karıncadan ibret al, yazdan kışı karşılar.*

Xorazm shevasida: *Javlan çarvağdeki karıncaları inini buzıp taşıadı.*

O'zbek adabiy tilidagi qavat so'zi turk tili va xorazm shevasida **kat** ko'rinishida mavjud.

Masalan,

Turk tilida: *"Yemekten sonra evin üst katında, ocaklı bir odaya çıktık."* - **Sait Faik Abasıyanık**

Xorazm shevasida: *Halamni katta balası beşinci katda yaşidadi.*

Turk tilida qo'shni ma'nosini bildiruvchi **komşu** so'zi xorazm shevasida ba'zan **komşu** ba'zan bo'lsa **kongşu** tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *"Çok geçmeden odaya çevredeki komşular dolmaya başladı."* - **İhsan Oktay Anar**

Xorazm shevasida: *Taza komşuları sâsinnan korkıb uyanıb gettim.*

Quduk ma'nosini anglatuvchi **kuyu** so'zi ham turk tilida va xorazm shevasida bir xil talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Kahveci Salih eğilmiş, az evvel sarkittiği gazozları kuyudan çıkarıyordu.*" - **Haldun Taner**

Xorazm shevasida: *Üyimizni içinde kuyu kazdırışını oyladık.*

Öksürük so‘zi yo‘talni anglatadi. Xorazm shevasida ba‘zan **öksürük** so‘zi **öksürük** tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: "*Trende herkes uyuyor, uzun bir öksürük silsilesi ve bazı iniltilerden başka ses yok.*" - **Halide Edip Adıvar**

Xorazm shevasida: *Mâclista hammani aldında birdân kattı öksürük tuttu.*

Ulush yoki foydaning bir qismini anglatuvchi **pay**⁶⁴ so‘zi ham turk tili va xorazm shevasida bir xil yozilib, talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *Sadece gelirden minik bir pay görmek istiyorum ki ben de oyundan zevk alabileyim.*

Xorazm shevasida: *Payını almayınca durğan yerinnen dârpânmedi.*

Hafta kunlarining nomlanishida ham ba‘zi bir o‘xshashliklar mavjud bo‘lib ularga misol sifatida **pazar günü** so‘zini ko‘rsatish mumkin. Bunda xorazm shevasida biroz o‘zgarish yuz berib **bazar günü** shklida talaffuz qilinadi.

Masalan,

Turk tilida: *O bir çocukken, pazar günleri balık tutmaya giderdi.*

Xorazm shevasida: *Sarvar otırışmanı bazar gününe koydı.*

Salıncak so‘zi xorazm shevasida **sarıncak** shklida talaffuz qilinadi. O‘zbek adabiy tilidagi arg‘imchoq so‘ziga to‘g‘ri keladi.

Masalan,

Turk tilida: "*Salıncağa annesi binmedi, o bindi yalnız.*" - **Tarık Dursun K.**

Xorazm shevasida: *Atacan kızları üçün çarvakını ortasında sarıncan kurib bârdi.*

Uyanık so‘zi uyg‘oq ma‘nosida keladi. Xorazm shevasida ushbu so‘zning **uyanık** va **oyanık** kabi shakllari mavjud.

Masalan,

Turk tilida: "*Uyuyor mu uyanık mı kestiremiyor, uykuyla uyanıklığın sınırlarını bulamıyordu.*" - **Attila İlhan**

Xorazm shevasida: *Oyanık yatğanımni görgan ağam yabima galib otırdı.*

Musht ma‘nosini beruvchi **yumruk** so‘zi xorazm shevasida ham bir xil shaklda talaffuz qilinadi.

Masalan,

⁶⁴ www.sozluk.gov.tr

Turk tilida: "*Bir karış mesafeden incek yumrukla, bir metre mesafeden çakılacak yumruğun tesirleri arasında büyük fark vardır.*" - **Aka Gündüz**

Xorazm shevasida: *Hekim polvon bir yumruk bilan rakibini yıkıttı.*

Yumurta soʻzi turk tili va xorazm shevasida tuhum maʼnosini anglatadi. Talaffuzida ham farq mavjud emas.

Masalan,

Turk tilida: "*İki sarılı yumurta yumurtlayan bu canım legornlar iki üç gün ara ile birer birer helak olup gitmişlerdi.*" - **Haldun Taner**

Xorazm shevasida: *Ânam her gün azanda bizara yumurta taşap barar adi.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978.
2. EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezmi-Oğuzcası. A. 2006
3. SAFEROGLU, Alunet, *Türk Dili Tarihi* I, II, İstanbul: Enderun Kitabevi.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. – Т., 1966.
5. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик қурилиши. –Т.: Фан, 1976
6. www.sozluk.gov.tr

ЭРКИНЛИК- ИНСОННИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ СИФАТИДА



<https://doi.org/zenodo.10557904>

ЖАЛИЛОВ Бахтиёр Норкулович

Қариш муҳандислик иқтисодиёт институти

АННОТАЦИЯ

Бугунги глобаллашув жараёнида инсон қадр масаласи тобора долзарблик касб этиб бормоқда. Зеро инсон қадрини улуглаш, унинг жамият ҳаётидаги роли жуда катта аҳамият касб этмоқда

Калит сўзлар: *Инсон, фуқароларнинг ҳуқуқлари, манфаатлари, глобализация ва интеграцион жараёнлар, фан, техника, технология, замонавий коммуникациялар*

АННОТАЦИЯ

В ходе сегодняшней глобализации все более актуальным становится вопрос человеческого достоинства. Очень важно прославление человеческого достоинства, его роль в жизни общества

Ключевые слова: *процесс глобализации, проблема человека, права, интересы граждан, процессы глобализации и интеграции, наука, технологии, современные коммуникации*

ABSTRACT

In the course of today's globalization, the issue of human dignity is becoming more and more relevant. Because glorifying the value of a person, his role in the life of society is becoming very important

Keywords: *the process of globalization, the issue of migration, the rights, interests of citizens, globalization and integration processes, science, technology, modern communications.*

КИРИШ

Кишилик жамияти ўзининг тарихий ривожланиши ва интеллектуал тараққиёти жараёнида эркинликка интилиб яшаган. Бу омил ўз навбатида инсоният оламида турли диний таъйиқ ва хурофотлардан ҳоли бўлган дастлабки уйғониш даврининг юзага келиши учун тўртки бўлди. Бу ходисани Марказий Осиё ва Ғарбий Европа мамлакатларининг илк ўрта асрлардаги тарихий жараёнларида юз берган воқеликлар асносида кўришимиз мумкин. Бу даврга келиб, ўз эркинлигини англаб етган ва мустақил тафаккурга эга бўлган инсонлар илм-фаннинг ривожланиши йўлида инкилоб ясадилар. Бу инкилоб

дунё халқларининг ҳаётида ва турмуш тарзида табиий заруратга айланган умуминсоний қадрият эди. Буюк олмон файласуфи Гегель тасаввурича, алоҳида шахснинг эркинлиги ва маънавий юксалиши нисбий қадрият бўлиб, миллат ва давлатнинг фаровонлиги – мутлоқ қадриятдир. Шоҳ давлати учун ҳаётини қурбон қилар экан, у ўзининг ахлоқий бурчини бажаради. Ўлим олдидаги қурқув, дея таъкидлайди файласуф, миллат эркинлиги ва халқ мустақиллигини ҳалокат ёқасига олиб келиши мумкин, бу ўз навбатида ахлоқий ҳалокатдир. Мустақилликни йўқотиш, бошқа халқлар зулми остида эзилиш нафақат миллатнинг, балки ҳар бир алоҳида шахснинг шаъни топталишидир.⁶⁵ Албатта, инсон онгли мавжудот сифатида дунёга келибдики, унинг ўзгаларга қарам бўлмасдан, ўз хоҳиши бўйича яшашга бўлган интилиши ҳам юзага келган. Бу интилиш қанчалик кучаймасин, барибир унинг «абсолют» амалга ошиши муаммолигича қолиб келмоқда. Аслида, унинг ўз хоҳиши бўйича яшаш истаги инсоният таракқиётининг идеали сифатида давом этаверади. Ҳатто, бугун демократия батамом қарор топган, фуқароларнинг эркинлиги тўла таъминланган, жаҳоннинг бир қатор мамлакатларида ҳам уларнинг хоҳиш-истаклари абсолют амалга ошган, деб айта олмаймиз ва бундай бўлиши ҳам мумкин эмас. Чунки инсон дунёга келган кундан бошлаб, то охирги нафасигача она, ота, оила, миллат, халқ, давлат ва жамият тизимида яшайди, улар билан тегишли муносабатларда бўлади, ўз манфаатлари эвазига «абсолют» эркинлигининг аксарият кўп қисмидан «воз» кечишга мажбур бўлади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Аслида, инсоннинг абсолют эркинликка эга бўлиши унинг ҳеч ким билан алоқаси йўқлигини, жонли дунёдан ажралиб қолишини, шу тариқа моддий, маънавий, ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий манфаатлари қондирилиши имкониятларидан маҳрум бўлганлигини ҳам билдиради. Ўз эркинлигининг маълум қисмидан воз кечиши эвазига у турли муносабатларга кириша олади. Ана шулар қаторида унинг юқорида тилга олинган тизим (она, ота, оила, жамоа, миллат, халқ, давлат ва жамият) билан бўладиган муносабатлари алоҳида ўрин эгаллайди. Бу тизимда содир бўладиган муносабатлар орқали улар билан ўзаро мувозанатда яшайди. Бу мувозанат бўлмас экан инсон бу ёруғ оламда тинч, осойишта ва фаровон яшай олмайди.⁶⁶ Юқоридаги фикрларлар мажмуасидан шу нарсага амин бўламизки, инсон ўзининг эркинлигини табиатдан, жамиятдан ва инсонлар бағридан ташқарида амалга ошира олмайди.

⁶⁵ Қаранг: Г.В.Ф. Гегель. Философия права. -М.: 1990. –С. 360.

⁶⁶ Қаранг: Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. -Тошкент: “Академия”, 2005. -155-бет.

Чунки, бутун тарих давомида жамоавийлик анъанаси асосида яшаб келган инсоният қавми бу ақидадан ҳеч қачон воз кеча олмайди, истаймизми йўқми, бу табиий ҳол.

Шунга кўра, битта сабаб билан қатор оқибатларни юзага келтирса бўлади. Бунда, **биринчидан**, инсон эркинлиги нафақат ташқи омиллар билан балки, ички интилишлар, эҳтиёжлар билан ҳам тақоза қилинади; **иккинчидан**, эркинликка интилувчи шахс ўзига кўрсатилаётган ҳар бир таъсирга фикран турлича, ўз имконияти даражасида жавоб бераолади; **учинчидан**, шахснинг мақсадга мувофиқ фаолияти жараёнида унинг эркинлиги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ахлоқий ва маънавий соҳаларда намоён бўлади. Шундай қилиб шахс эркинликнинг субъектив англаб олишдан тортиб, то уни объектив амалга оширишгача бўлган турли босқичларни босиб ўтади. Дейлик, уруғчилик жамоси, умуман ибтидоий тузум даври, қулдорлик, уйғониш даври (IX-XI асрлар), ўрта асрлар, янги ва энг янги давр ҳамда ҳозирги кунга қадар инсоният ўз эркинлигига эҳтиёж сезиб яшайди. Чунончи, шахс ўз фаолияти жараёнида эркинликка оид мақсадини илгаридан белгилаб олиш имкониятига эга. Чунки ҳар қандай аниқ вазиятда ҳам шахснинг эркинлигига оид бир нечта имкониятлар мавжуд бўлади. Бундай бўлмаган шароитларда, яъни оқилона муқобиллик этишмай турганда ҳам шахс ўз эркинлиги доирасида юз бериши мумкин бўлган салбий оқибатлардан ўзини четга тортади.

Эътибор қиладиган бўлсак, шахс танлов эркинлигини инсоният дунёсида тутган ўрнини жонли табиатдаги объектив сараланиш билан қиёс этиш мумкин. Танлов эркинлиги туфайли инсоният жамият ривожланишининг истаган босқичида ва истаган жойида яратилган моддий ва маънавий қадриятлари ўрганилиши, ўзлаштирилиши ва ижодий такомиллаштирилиши мумкин. Инсон шахсининг бу жихати фақат индивидуал табиатга эга бўлмай, балки ялпи ижтимоий жиҳатларда ҳам кўринади. Яъни, шахсларгина эмас, балки катта ёки кичик эл-элатлар, миллатлар ва халқлар ҳам ўз тақдирларига тегишли ҳолларнинг барчасида ижтимоий танлов эркинлигига эгадирлар. Ижтимоий танлов ўз навбатида зарурият асосида юзага келувчи воқелиқдир. Жамиятда кишилар ўртасидаги ижтимоий, ахлоқий жараёнлар, эркинликка оид муносабатлар турли ижтимоий қатлам ва гуруҳлар ўртасида ташкил топадиган манфаатлар кураши эркинликка асосланган воситалар орқали амалга оширилиб келинади. Инсонлар ўртасидаги бундай муносабатларнинг асосий вазифаси шахслараро ўзаро зиддиятларни бартараф этиш йўллари аниқлаш, томонлар учун мақбул бўлган шароитларни белгилашга оид муаммолар ечимини ташкил этишдан иборат. Бундай услублар мавжуд шахснинг

эркинлигига нисбатан танланган воситаларнинг реал ёки идеаллиги билан белгиланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Kattakulovna, T. S., Khudoiberdievich, T. B., Evatovich, R. A., Norkulovich, J. B., & Buriniyozovna, E. S. Increasing protection of the rights and interests of youth in Uzbekistan.[Electronic Resource]. URL: [https://philosophicalreadings.org/2021-13-4/\(date of access: 15.06. 2022\)](https://philosophicalreadings.org/2021-13-4/(date%20of%20access%3A%2015.06.2022)).
2. Бахтиёр, Ж. Н. (2017). У. Состояние и перспективы развития социологии в Узбекистане. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 4, No. 4, p. 9). ROST.
3. Norkulovich, J. B. (2023). ISSUES OF FORMATION OF UNIVERSAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURAL CENTERS. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 1(5), 226-230.
4. Norqulovich, J. B. (2023). Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz. *Miasto Przyszłości*, 41, 107-109.
5. Jalilov, B. N. (2023). SOG ‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA’SIR KO ‘RSATUVCHI OMILLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(10), 276-282.
6. Mamasaliyev, M. M. (2022). AMIR TEMUR DAVRIDA MARKAZLASHGAN BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 1120-1129.
7. Rizoqulovich, R. R., & Halimovna, T. R. S. (2021). QADIMGI DUNYO ILK TARG ‘IBOT SISTEMALARINING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 130-137.
8. Жалилов, Б. Н. (2023). МИГРАЦИОН ИНҚИРОЗНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА ОҚИБАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 1307-1311.
9. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(10), 122-124.
10. Ochilova Nigora Ruzimuratovna. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ўрни. Results of National Scientific Research Volume 1| Issue 7 2022 SJIF- 4.431 ISSN: 2181-3639. P-339-343
11. Манзаров, Ю. Х. (2020). Роль пропаганды народного творчества и искусства в воспитании молодежи. In *30 лет Конвенции о правах ребенка*:

современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей (pp. 226-232).

12. Манзаров, Ю. Х. (2021). Новый Узбекистан на пути третьего ренессанса. *Academy*, (5 (68)), 34-38.

13. Манзаров, Ю. (2017). ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 28-30.

IBN SINO BILISH NAZARIYASINING MOHIYATI VA UNDA MANTIQ ILMINING TUTGAN O'RNI



<https://doi.org/zenodo.10557915>

BO'RIYEV Isroil Ismoilovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot

instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqola buyuk mutafakkirlardan biri Ibn Sinoning ilmiy ijodi tadqiqiga bag'ishlangan. Tasavvuf ta'limoti tarixida o'zining munosib o'rnini egallagan komil inson tahlili asosida olimning so'fiyona qarashlari yoritildi.

Tayanch so'zlar: Komil inson, Ruh, Materiya va shakl, Metafizika, Korben, Dastlabki ong, Muqaddas Ruh, "Shifo" va "Najot", Inson, mohiyat va borliq.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена исследованию научного творчества одного из великих мыслителей Ибн Сино. На основе анализа известных произведений ученого, занимающих особое место в истории суфийского учения освещены взгляды ученого на мусульманскую мистику.

Ключевые слова: Совершенный Человек, Дух, Материя и Форма, Метафизика, Корбен, Изначальное Сознание, Святой Дух, «Исцеление» и «Спасение», Человек, Сущность и Бытие.

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the scientific work of Ibn Sina, one of the great thinkers from. Based on the analysis of the perfect human being, who has taken his rightful place in the history of Sufism, the scientist's Sufi views were illuminated.

Keywords: Perfect Man, Spirit, Matter and Form, Metaphysics, Korben, primordial Consciousness, Holy Spirit, "Healing" and "Salvation", Man, Essence and Being.

KIRISH

Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlarida va faoliyatida bahsga doir ko'pgina o'ziga xos jihatlarni kuzatish mumkin. Bu borada mashhur allomalar Abu Rayxon Beruniy bilan Ibn Sino o'rtasidagi bahsni misol keltirish mumkin. Bahslashuvchi tomonlarning o'zaro hurmati, masalaning mohiyatini to'g'ri anglagani, haqiqatga ershish uchun harakatning hokisorligi ushbu bahs jarayonining yuksak g'oyalarga xizmat qilgani bilan nihoyatda ibratlidir.

Bilish muammosi Abu Ali ibn Sinoning diqqat markazida turgan. Olim asarlarining jami 450 ta katta qismi falsafa muammolariga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da, afsuski, ularning ko'pchiligi (masalan, "Adolat" nomli falsafiy ensiklopediyasi, "Sharq falsafasi", "Yaxshi ish va gunoh" asarlari bizgacha yetib kelmagan. Bilish masalalari ibn Sinoning "Qushlar tili", "Donishnoma", "Tib qonunlari" kabi (100ga yaqin) asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida, o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makonidir. Shu jihatdan uni bilishdagi ahamiyati, qadri beqiyos, inson esa hamma ilmlarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo izlaydi va topadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Sino ijodida ham Beruniy kabi naturfalsafa yo'nalishi ustuvordir. Masalan, "Tib qonunlari"da 1300 dan ortiqroq kasallikni davolash uchun zarur bo'lgan dori-darmonlardan tashqari, tabiat va inson, odam zotining tanasi, miya faoliyati, ruhiy jarayonlar haqida chuqur ilmiy qarashlar bayon qilingan. "Shifo kitobi"da esa tabiatshunoslikning boshqa sohalari, xususan, geologiya, kimyo, matematika, astronomiya, biologiya, minerologiya kabi yo'nalishlarda muhim fikrlar bildirilgan. Olim o'zining bilish sohasidagi falsafiy qarashlarini metafizika, fizika, logika kabi uch asosiy qismga bo'lib ifodalagan. Umumiy bilish masalalari alloma tomonidan nazariy va amaliy sohalarga ajratib tavsiflangan. Ibn Sino bilishda hissiy bilish, sezgilar va sezgi a'zolarining ahamiyatini ta'kidlagan. Uningcha, tashqi va ishki sezgilar mavjud, tashqi sezgilar odamni olam bilan bog'laydi, ular besh xilga bo'linadi: ko'rish, eshitish, ta'm-maza bilish, hid va teri sezgisi. Ichki sezgilar qabul etish, xotirada saqlash va tasavvur etish uchun xizmat qilib, tashqi sezgilar asosida shakllanadi. Ibn Sino sezgi va hissiy qabullashdan tashqari aql, tafakkur va tajribaning bilishdagi ahamiyatiga o'z diqqatini qaratgan. Mantiqiy bilish, uning mohiyati va xususiyatlari to'g'risida qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Ibn Sinoning O'rta asr ilmining barcha sohalarini qamrab olgan 18 tomlik "Kitob osh-Shifo", 5 tomlik "Tib qonulari" asarlari o'z davri bilimlarining qomusidir. Ibn Sino inson, uning o'z-o'zini idora qilishi haqidagi fanlar (insonshunoslik) ahamiyatini alohida ta'kidlaydi¹. Afsuski, Sharq falsafasida asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan bu yo'nalishdagi fanlarga sobiq ittifoq davrida etarli e'tibor berilmadi. Holbuki, bu borada "Insonshunoslik" fanini rivojlantirish zaruriyati allaqachon yetilgan edi. Ibn Sino ma'naviy-axloqiy bilimlarning ahamiyatiga ham katta e'tibor bergan. Uningcha, odamzot bilimi boshqalar bilan o'zaro munosabati, hamkorligi, yaxshi axloqiy fazilatlarga ega bo'lish uchun intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishida namoyon bo'ladi. Bilim, faylasuf nazarida, rohat-farog'atga va

lazzatlanishga olib kelishi, bilimsizlik esa, azoblanish va uqubatga olib borishi bilan tavsiflanadi. Ibn Sino “Axloq ilmi haqida risola”sida “iffat”, “shijoat”, “hikmat”, “adolat”, “sahiylik” kabi ijtimoiy-ma’naviy xislatlarni ta’riflaydi.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari metafizika, fizika, logika-mantiqda bo‘lib, metafizika-ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarni talqin etadi; fizika-tabiatshunoslik masalalari, jism, moddani o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z ichiga oladi; mantiq-to‘g‘ri fikrlash san’ati, aqliy bilish shakllarini o‘rganadi.

Umumiy falsafiy masalalar nazariy va amaliyga bo‘linib, o‘z navbatida, ularning har biri qator ilmlarni o‘z ichiga oladi.

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta’limotini Forobiy ta’limotining davomi, rivoji deb ta’riflash mumkin.

U vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud-vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang‘ich-birinchi sababi-ya’ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir. Birinchi yagona vujudan so‘nggi kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli-tuman shakllari boshlang‘ich yagoona vujudning ifodalanishidir. Asta-sekin kelib chiquvchi borliq shakllari, ya’ni so‘nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati shaklida o‘zaro bog‘liqdir.

Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o‘tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo‘limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substantsiya) va oraz (aktsidentsiya) ga ajratadi. Javhar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u soda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang‘ich unsurlar-olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaklning birligidan tashkil topib tabiat, o‘simlik, hayvonot, inson shaklida mavjuddir.² Falsafa fanini Ibn Sino ikki katta bo‘limga ajratadi:

1) nazariy falsafa – metafizika (oily fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan)dan iboratdir.

2)Amaliy falsafa – siyosat, huquq, uy ishlarini o‘rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya’ni etikadan tashkil topadi.

Metafizika oliy ilm sifatida mutloq vujudni o‘rganish, yaratuvchini bilishni o‘z ichiga oladi. Falsafa fanini ifodalashda Ibn Sino Arastuga asoslanadi.

Matematika miqdoriy munosabatlarni - o‘lchov va sonlarni o‘rganadi. U turli tarmoqlarga, chunonchi, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, optika,

mexanika, osmon jismlari harakatini ilmiy-asbob-uskunalarni o'rganuvchi fan kabi tarmoqlarga ega.

Tibbiyot, astrologiya, fiziognomika, kimyo kabi ilmlar ham tabiatshunoslikka kiradi.

Logika – mantiq ham falsafiy ilm bo'lib, u bilimning asosiy vositasi, asbobidir. Ibn Sinoning ilmlar tasnifi, ta'rifi va tarkibi haqidagi fikrlari o'rta asrda falsafaning rivoji, uning tabiatshunoslik va boshqa ilmlar bilan uzviy aloqasini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Zahr ad-Din Bayhaqiy “Sivan al-hikma” va uning takmili “Tatimma”da dunyo e'tirof etgan “... to'rt faylasuf bo'lgan – ikkitasi islomgacha. Bu – Aristotolis va Iskandar G'afrudisiyg'. Ikkitasi esa islom paydo bo'lgandan so'ng. Bu – Abu Nasr G'al-Forobiyg', Alloh, uning ruhini shod qilsin va Abu Ali ibn Sino, Alloh unga o'z rahmatini yog'dirsin ... “, deb yozgan edi.

Ibn Sino Sharq aristotelizmi, ya'ni mashshoiyun falsafasining Forobiy bilan birgalikda quruvchisidir. U Forobiyning “Vojib ul-vujud” va “Mumkin-ul-vujud” ta'limotini yanada rivojlantirib, Alloh va olam shu darajada mohiyatan bog'liqlik, ma'lum ma'noda moddiy olamning o'zi “o'zga tufayli bo'lsa ham, faqat mumkin-ul-vujud” emas, balki “vojib-ul-vujud” bo'la oladi debon, chuqur falsafiy g'oyani ilgari surgan.

Ba'zi falsafa tarixi tadqiqotchilari olimning borliq haqidagi ta'limotining tashqi, sunniy islom aqidaviy ta'limotiga formal-mantiqiy mos kelishini ta'minlash maqsadida Abu Nasr Forobiy tomonidan kiritilgan “Vojib-ul-vujud” va “Mumkin-ul-vujud”, deb Borliq (Vujud)ni go'yoki ikki qismdan iborat bir butunlik deb talqin etilishiga asoslanib, ibn Sinoning Borliq haqidagi ta'limotini panteizm – “So'l panteizm” deb talqin etganlar (Akad. M.Hayrullayev).

Aslida esa, o'sha davrning aqidaviy-mafkuraviy taqozosi, zaruriyati sifatida Forobiy tomonidan sun'iy uyg'unlashtirish maqsadida kiritilgan “Vojib-ul-vujud” va “Mumkin-ul-vujud” kontseptsiyasi Ibn Sino merosi va dunyoqarashida, tadqiqotchilarning kuzatish va xulosalariga ko'ra, bir tomondan to'la va izchil ma'nodagi kreasion ta'limot deb, boshqa tomondan esa kreasion kontseptsiyaning cheklangan shakli, aniqrog'i izchil deistic borliq kontseptsiyasi deb baholanmoqda.

Zero, “Vojib-ul-vujud” va “Mumkin-ul-vujud” kontseptsiyasida, professor E.Ahmedov ilk bor asosli, falsafiy-mantiqiy aniqlaganidek, Borliqning Forobiy, Ibn Sino ko'rsatgan ikki qism o'rtasida faqat funktsional aloqa, bog'liqlik, sabab-oqibat mavjud, xolos. Birinchidan, Borliqning “Yo'qlik”dan Alloh tomonidan “Birinci turtki” sifatida “yaratilganligi”, “ijod qilinganligi”; ikkinchidan, Alloh birlamchi, hal qiluvchi sabab, olam “Mumkin-ul-vujud” esa oqibat ekanligi; uchinchidan, “Vojib-

ul-vujud” va “Mumkin-ul-vujud” Forobiy, Ibn Sino ta’limotida o’nta kosmik doira – kosmik Aql (Intellekt) vositasida bir-biridan qat’iy uzib, ajratilgan. Demak, falsafiy jihatdan olganda bu borliq haqidagi eng izchil deistik kontseptsiyadir, deb xulosa chiqarish mumkin.

Ayni paytda, Ibn Sino va Forobiyning borliq-materiya, makon, zamon harakati mavjudligi haqidagi relyatsion kontseptsiyasi (V.V.Sokolova, B.Rojanskaya, B.G.Kuznetsov, B.O.To‘rayev) hozirgi zamondagi borliqning kontinium kontseptsiya vujudga kelishi uchun ilk ibtido, gnoseologik manbaa bo‘lganligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ibn Sino ta’limotining aosiy qismi bilish nazariyasi, fanlar klassifikatsiyasiga bag‘ishlangan. Relyatsion kontseptsiyaga asoslangan holda, donishmand bilish muammolarini hal qilishda sensualizm va ratsionalizmga bir xilda qat’iy va ijobiy munosabatda bo‘lgan bo‘lsa-da, oxir-oqibatda u ratsionalizm tamoyiliga yetakchi o‘rin ajratganligini ko‘rish mumkin. Lekin Arastu formal mantig‘i, xususan sillogizm nazariyasini izchil, fundamental qo‘llash, oxir-oqibatda Ibn Sinoning haqiqatning ob‘ektiv ilmiy qimmatini relyativistik talqin etishga, sensualizm, ratsionalizmga o‘rin ajratishiga olib kelgan edi. Bunga hayotining so‘nggi yillarida “Payg‘ambarlik falsafasi”ni asoslashda Arastu mantiq ilmidagi “O‘rta termin – M” funksiyasini mantiqiy-gnoseologik talqinini chuqurlashtirish yo‘li bilan erishgan.

“Hujjat-ul-Islom” Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Muniqiz min az-zalol”, “Xatolardan qutqarguvchi” asarida ko‘rsatganidek, Forobiy va Ibn Sino ta’limoti – olamni qadim deyish; Alloh, Olamni umuman kulli bilgani holda, undagi juz’iylik, ya’ni inson yashaydigan “Taxti Qamar”, “Oy doirasi tushub turuvchi Yer yuzi” dunyosi, undagi qonunlarni bilmaydi deyish; vafot etgandan so‘ng insonning narigi dunyoda jazo va savob olishi jismonan emas, ruhan, ma’naviy-majoziy deb, xulosa chiqarishga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. T. Meros. 1993. 5-bet.
2. Буриев И. И. Вопросы национального воспитания студенческой молодёжи // Молодой ученый. – 2018. – №. 9. – С. 146-147.
3. Буриев И. И., Мамасалиев М. М. Патриотическое воспитание молодого поколения // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 37-39.
4. Бўриев И. И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА ҒАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. – 2020. – Т. 3. – №. 11 (32). – С. 12-17.
5. Osman Chanine. Ontologie et théologie chez Avicenne. P. 132.

6. Бахтиёр Ж. Н. У. Состояние и перспективы развития социологии в Узбекистане //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 4. – №. 4. – С. 9.
7. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.
8. Рўзибоев, Д. А. Ў. (2022). XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 943-952.
9. Ro‘Ziboyev, D. A. Z. O. (2022). QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O‘RNI VA SOVET HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1008-1016.
10. Рўзибоев, Д. А. (2021, November). 1946-1953 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИГИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
11. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. *Вестник науки*, 3(11), 5-8.
12. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).
13. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TAVATABAI. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 106-109).
14. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 204-206).
15. Мамасалиев, М. М., & Нематов, Д. С. (2019). ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-4), 70-72.

16. Mamasaliev, M. M., & Elboeva, S. B. (2019). RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL DOCTRINES OF SARVEPALLI RADHAKRISHNAN. *Theoretical & Applied Science*, (11), 339-342.
17. Мамасалиев, М. М., & Бўриев, И. И. (2019). ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ УЧАЩИХСЯ-ОДНО ИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 188-190).
18. Очилова, Н. Р., & Мамасалиев, М. М. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *Проблемы науки*, 43.
19. Mirzoulug‘Mirsaidovich, M., & Buriniyozovna, E. S. (2021). OLIY TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 100-404.
Шундай экан, биз халқимизнинг асрлар оша безавол яшаб келаётган маънавий- мафкуравий кадриятларининг юксалиши учун барча анъана, урф-одат ва маросимларимизни эъзозлашимиз, ёшларимизни юксак инсоний кадриятлар билан вояга етказишимиз даркор. Ўзбек халқининг бой ва бетакрор маънавий-мафкуравий кадриятлари кўп бўлиб, шахс эстетик маданиятининг шаклланишида улар доимо ҳаётининг маъносини ташкил этиб келади. Бу маънавий меросларимизнинг ўзига хос кўриниши шахснинг турмуш эстетикасига бўлган завқий муносабатида ўзини намоён этади. Шахснинг турмуш эстетикаси оила муҳити негизида ривожланиб боради. Ҳар қайси оила муҳитида бола ёшлигиданоқ ўз ота-онасини турмушини кўриб, ўз ҳаётини худди шундай эстетик маданият тарзда бўлишини хаёлидан кўп маротаба ўтказди. Бу муҳитда бўладиган барча воқеаларни синчковлик билан кузатиб, ўзининг ҳаётга бўлган қизиқишини кучайтира боради. Чунки, инсон боласи шу муҳитда аста-секин воқеликка нисбатан эстетик муносабатларини камол топтиради. Ҳар бир кунини қизиқарли ғояларини ёдга олиб, кўплаб дўстлар даврасида бўлгиси, беғубор осмондан учиб ўтаётган самолётга мингиси, дарров катта инсон бўлиб қолгиси келади. Бундай ўй- хаёлларни боланинг ота-онасига ҳар бир берадиган саволида юзага келиши табиий.

Ўз фарзандининг хилма-хил ғоялар оламига интилишини кўрган ота-она унга ҳаётдаги барча воқеа ва ҳодисалар бирин-кетин содир бўлишини, бир кун келиб болакай ҳам катта инсон бўлиб халқига хизмат қилишини келажакда юксак маданиятли шахс бўлиб етилишини тушунтиради. Ана ўшанда турмуш шароитлари елкасига тушиши ва гўзал оилани бошқаришини айтади.

АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Мамашокиров С, Ўтамуродов А. Эзгу мақсад йўлида. –Т.: Мухаррир, 2008. 17-бет
2. Гафарли М.С, Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. –Т.: Ўзбекистон, 2001. 41-бет.
3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. 11-бет.
4. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. –Т.: Академия. 2001. 8-бет.
5. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
6. Рустамов Р. СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 118. – С. 41-49.
7. Rustamov R. R., Manzarov Y. X. Changes in advocacy systems today //Deutsche Internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft. – 2020. – №. 2. – С. 7-9.
8. Rustamov, R. R., & Turaeva, S. H. (2021). Medieval Western and Eastern Propaganda: A Comparative Analysis. *Theoretical & Applied Science*, (8), 72-74.
9. Rizoqulovich, R. R., & Halimovna, T. R. S. (2021). QADIMGI DUNYO ILK TARG 'IBOT SISTEMALARINING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 130-137.
10. Rustamov, R. R. (2018). MODERN PROPAGANDA TECHNOLOGY AND THEIR MAIN PURPOSE. *Научное знание современности*, (10), 35-38.
11. Rustamov, R. R. (2018). ATTRIBUTIVE CHANGES IN THE INFORMATION SPACE SYSTEM IN THE CONTEXT OF GEOPOLITICAL COMPETITION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 170-173.
12. Курбонова, М. Б., & Мамасалиев, М. М. (2020). СТРУКТУРА СОЦИАЛЬНОГО СТАТУСА МОЛОДЕЖНОГО СООБЩЕСТВА. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 210-213).

13. Mamasaliyev, M. M. (2023). Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy. *Miasto Przyszłości*, 35, 210-215.
14. Мамасалиев, М. (2023). АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 170-175.
15. Mamasaliyev, M. M. (2022). AMIR TEMUR DAVRIDA MARKAZLASHGAN BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 1120-1129.
16. Манзаров, Ю. Х. (2020). Роль пропаганды народного творчества и искусства в воспитании молодежи. In *30 лет Конвенции о правах ребенка: современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей* (pp. 226-232).
17. Манзаров, Ю. Х. (2021). Новый Узбекистан на пути третьего ренессанса. *Academy*, (5 (68)), 34-38.
18. Манзаров, Ю. (2017). ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 28-30.

ЗАМОНАВИЙ ТАРҒИБОТ УСЛУБЛАРИ

<https://doi.org/zenodo.10558007>

РУСТАМОВ Рамз Ризоқулович

ҚарМИИ доценти

АННОТАЦИЯ

Муаллифлар ушбу мақолада янги асрга келиб, барча тарғибот типларининг характери тубдан ўзгариши, тарғиботнинг турли ижтимоий гуруҳлар ва сиёсий кучлар мақсади йўлида умумсайёравий миқёсда қўлланиладиган қудратли воситага айланганлиги ва тарғибот системасидаги бу ўзгаришлар қатор ижтимоий жараёнлар, тенденциялар, омиллар таъсирида содир бўлаётганлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: тарғибот, тарғибот системалари, геополитик кучлар, глобаллашув, Тарғибот услублари, тарғибот воситалари.

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторы утверждают, что к новому веку характер всех видов пропаганды коренным образом изменился, что пропаганда стала мощным инструментом, используемым в глобальном масштабе в интересах различных социальных групп и политических сил, и что эти изменения в системе пропаганды происходят под влиянием ряда социальных процессов, тенденций и факторов.

Ключевые слова: пропаганда, системы пропаганды, геополитические силы, глобализация, методы пропаганды, средства пропаганды.

ABSTRACT

In this article, the authors argue that by the new century, the character of all types of propaganda has fundamentally changed, that propaganda has become a powerful tool used on a global scale for the purpose of various social groups and political forces, and that these changes in the propaganda system are taking place under the influence of a number of social processes, trends, and factors.

Key words: propaganda, propaganda systems, geopolitical forces, globalization, propaganda methods, propaganda tools.

КИРИШ

Замонавий тарғибот системалари –тарғиботни амалга ошираётган субъектларни, уларнинг мақсадларига хизмат қилаётган институтларни, иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва мафкуравий маконда маълум ғоя, таълимот,

фикр ёхуд аргументни тарқатиш мақсадида қўлланилаётган тарғибот услублари, усуллари, принципларини умумлашган тарзда ифодаловчи тушунчадир.

Улар орасида турли иқтисодий мақсадларга мўлжалланган, ижтимоий вазифаларга бўйсундирилган, сиёсий соҳада қўлланилаётган тарғибот системалари мавжуд.

Бугунги кунда кўпгина замонавий тарғибот системалари *икки асосий вазифани* бажаришга сафарбар қилинган:

1. Тарғибот мамлакат аҳолиси орасида мақбул жамоатчилик фикрини шакллантириши ва ҳаётий позицияни қарор топтириши лозим. Янги асрга қадар бу вазифани бажариш жиддий қийинчиликлар туғдирмасди. Бунинг учун аҳолининг тегишли ахборот манбаларидан фойдаланишини таъминлаш, мақсадга мувофиқ бўлмаган ахборотларни тарқатаётган муқобил каналларни ёпишнинг ўзи кифоя эди. Бироқ жаҳонда оммавий коммуникация воситаларининг мисли кўрилмаган даражада ривож топиши, глобаллашув жараёнларининг жадаллашуви бу борадаги вазиятни тубдан ўзгартирди. Эндиликда аҳоли орасида мақбул жамоатчилик фикрини шакллантириш ва ҳаётий позицияни қарор топтириш учун энг самарали услублардан моҳирона фойдаланишнинг ўзи етарли эмас. Бундан ташқари, аҳолини муҳолиф кучларнинг тарғибот системаси таъсиридан ҳимоялаш зарурияти ҳам кундан-кунга ошиб бормоқда.

2. Тарғибот маълум бир ижтимоий-сиёсий позицияни муҳолиф мамлакат аҳолисига етказиши, уни ўз қарашларидан воз кечишга ундаши керак. Жаҳондаги етакчи иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва мафкуравий қудратга айланишни мақсад қилиб қўйган ҳар қандай геополитик куч ўз позицияларини, мафкуравий принципларини тарғиб қилишга алоҳида эътибор беради. Бироқ бу борада ҳам вазият мураккаб тус олмоқда. Чунки муҳолиф геополитик кучларнинг ҳам ўз тарғибот ва контртарғибот системаси мавжуд, бу система ҳам замонавий услуб ва усуллари, омил ва воситалари ёрдамида тарғибот ишларини кенг қўламда амалга оширмоқда. Бундай вазиятда тарғибот таъсирчанлигини ва ишонарлилигини ошириш ҳақиқатан ҳам муҳим, долзарб муаммога айланади. Бу муаммонинг ечими эса қатъий сиёсий иродага, салоҳиятли илмий потенциалга, салмоқли моддий-молиявий ресурсга бориб тақалади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Замонавий тарғибот системалари мустақкам назарий-услубий таъминотга эгалар. Шунинг учун ҳам улар ўз фаолиятларини турли-туман услубга таянган ҳолда олиб бормоқдалар.²Бу услубларни тарғиботчилар олдида қўйилган вазифаларга мутаносиб равишда икки гуруҳга бўлиш мумкин. *Биринчи гуруҳ услублари* одатда мамлакат аҳолиси орасида мақбул жамоатчилик фикрини шакллантириш ва ҳаётий позицияни қарор топтириш мақсадида қўлланилади. Уларнинг энг кенг қўлланилаётганлари қуйидагилардан иборат:

1. “Мос қиёфа”. Ушбу услуб одатда телекўрсатув ёки Интернет орқали узатиладиган видеоматериаллар ёрдамидаги тарғиботда қўлланилади. Унга кўра, диктор қиёфаси узатилаётган ахборот мазмунига мос бўлмоғи лозим. Бу ҳолни оддий телекўрсатувларда ҳам кўп бора кузатганмиз. Одатда диктор позитив маълумотни ёруғ чехра билан, негатив ахборотни эса ташвишли қиёфа билан ўқиб беришга тиришади. Диктор қиёфасининг у узатаётган ахборотга мос бўлиши маълумотнинг тез ва мақсадга мувофиқ руҳда ўзлаштирилишига замин ҳозирлайди.

2. “Тафовутлаш”. Услуб тарғиботни амалга ошираётган субъектни ёрқин рангларда, мухолиф кучларни эса салбий контекстда талқин қилишни тавсия этади. Чунки, маълумки, оқ ранг қора фонда янада оқроқ кўринади. Мухолиф қанчалик салбий позициядан ёритилса, тарғибот субъекти шунчалик прогрессив, адолатпарвар кучдек кўринаверади. Тарғиботда ушбу услуб кенг қўлланилади. Ҳар бир геополитик куч ўз ҳалқига ўзини унинг орзу умидлари билан яшаётган субъект сифатида кўрсатишга интилади, оппонентларни эса вазиятни издан чиқариб юборишга уринаётган гуруҳ тарзида намойиш этади. Тарқатилажак ахборотлар ҳам шу контекстда танланади. Одатда “ролларнинг тақсимланишига” қараб тарғиботдан манфаатдор гуруҳларни аниқласа бўлади.

3. “Муаммони белгилаш”. Тарғибот кишиларни у ёки бу тарзда, шаклда фикрлашга мажбурлай олмайди. Бироқ уларни қайси муаммо устида фикрла-ши кераклигини белгилаб берса бўлади. Бунинг учун аудиторияга тўғри “қун тартиби” тақдим этилса кифоя. Муаммони белгилаш – бу маълум воқеа ёки жараёнга доир ахборотларни танлаш ва уни жамият ҳаёти учун муҳим янгилик каби узатиш, маъқул бўлмаган маълумотларни эса назардан четда қолдириш демакдир. Бир муаммо тўғрисидаги ахборотлар кўпайтирилаверса ва узлуксиз узатилаверса, аҳоли айнан шу муаммони ижтимоий аҳамиятга молик

² Қаранг: Аронсон Э., Пратканис Э. Современные технологии влияния и убеждения.- М.: Прайм-Еврознак, 2008; Василова Д. Использование методов скрытой пропаганды и теленовостей.- М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2012; Сороченко В. Энциклопедия методов пропаганды.- М.: Hippo Publishing, 2010 ва б.

вазифа сифатида қабул қила бошлайди ва унинг устида фикрлашга одатланади. Бугунги кунда барча замонавий тарғибот системалари ушбу услубдан самарали фойдаланмоқдалар.

4. “Такрорлаш”. Етказилиши зарур бўлган гапни кўп бора ва тинимсиз такрорлаш керак. Одатда муттасил такрорланган ахборот нафақат хотирада мустаҳкам ўрнашиб олади, балки охир-оқибатда тўғри деб қабул қилинади. Фикрни бир неча оддий ифодада мужассам қилиш ва уни узлуксиз равишда такрорлаш аҳолини хотиржам ва мантиқий фикрлашдан мосуво қилади. Гео-политик кучлар маълум сиёсатни амалга ошириш арафасида (масалан, ҳарбий мақсадларга мўлжалланган маблағлар миқдорини ошириш зарурияти юзага келганда) зарур жамоатчилик фикрини шакллантириш учун ушбу услубга мурожаат қиладилар.

5. “Муаммони яшириш”. Ҳар қандай геополитик куч ўз ютуқларини кенг ёритишни, муаммолари ва мағлубиятларини эса сояда қолдиришни хуш кўради. Юзага келган муаммони яширишнинг оддий йўли унинг ўрнига бошқа воқеалар тўғрисида маълумот бериш, кишиларни асосий муаммодан чалғитишдан иборат. Ахборот маконида ушбу услубнинг қўлланилишини осон илғаб олса бўлади: одатда, айтайлик, “Еuronews” каналида хабар берилган воқеа “Россия-24” ёки “CNN” каналида ёритилмайди. Бир доменда кенг шарҳланган воқеа бошқа доменда ўзга хабарлар ортида қолдириб кетилади.

6. “Таҳдидлар ўйлаб топиш”. Аҳолини кўрқув остида бирлаштириш бирмунча осон. Ваҳимага тушган кишилар ўзларига маъқул бўлмаган вазиятдан қутулиш учун ҳар қандай саъй-ҳаракатни қўллаб-қувватлашга тайёр бўладилар. Буни бугунги геополитик кучлар яхши ўзлаштирган кўринадилар. Улар томонидан ўз аҳолиси орасида амалга оширилаётган тарғиботда бирор бир “глобал таҳдид” мисли кўрилмаган даражада кучайтирилади ва шунинг билан оммавий кўрқув юзага келтирилади. Бунда вазиятда халқ негатив энергиясини ўзга объектларга йўналтириш, унинг онгини маълум мақсадларда манипуляция қилиш осон кечади.

7. “Хулоса чиқаришга ҳалақит бериш”. Деструктив тарғибот шахснинг мустақил фикрлашидан, мантиқий мулоҳаза юритиш орқали тўғри хулоса чиқаришидан манфаатдор эмас. Шунинг учун ҳам турли геополитик кучларнинг мақсадларига хизмат қилаётган оммавий ахборот воситалари ўз материалларини мантиқий изчилликда беришни маъқул деб билмайдилар. Фикрни чалғитиш учун телекўрсатувлар рекламалар билан бўлиниб туради, мақолалар орасида кроссвордлар ва бошқа материаллар нашр қилинади, эшиттиришлар кўшиқлар билан алмашиб турилади ва ҳоказо. Бу йўл билан

кишига мустақил хулоса чиқариш учун мутлақо имкон қолдирилмайди ва таклиф этилган тайёр хулосани қабул қилишга ундалади.

8. “Тескари алоқа”. Аудиторияга узатилаётган ахборотнинг ишонарлиги ва таъсирчанлигини оширишда тескари алоқанинг аҳамияти ниҳоятда катта. Ахборотнинг бирор бир тасодифий респондент томонидан маъқулланиши кишиларда катта таассурот қолдиради. Бугунги тарғибот каналлари бу услубдан кенг фойдаланадилар. Бироқ, масаланинг нозик томони шундаки, бундай респондент тарғиботчи томонидан аввалдан танлаб олинади. Табиийки, маъқул бўлмаган ижтимоий позицияда турган респондент эфирга яқин йўлатилмайди.

9. “Оддий талқин”. Муаммолар ёки мағлубиятлар ҳақида аҳолини хабардор қилиш зарурияти юзага келганда энг катта муаммо ҳам оддийгина, одатий ҳолдек етказилади. Бунинг натижасида бўлиб ўтган воқеанинг ижтимоий аҳамияти пасайтирилади, халқ уни жиддий эътиборга лойиқ бўлмаган муаммо сифатида қабул қилади.

10. Ахборот блокадаси. Ҳар бир геополитик куч ўз таъсири остидаги тарғибот каналларини, оммавий ахборот воситаларини маълум ахборотларни тарқатишга, номақбул маълумотларни эса чегириб ташлашга мажбур қиладилар. Номақбул маълумот сифатида бирор бир шахснинг сиёсий фаолияти, бирор давлат томонидан амалга оширилган сиёсий ҳаракатлар, айрим сиёсий воқеалар, аналитик материаллар ва хулосалар баҳоланиши мумкин.

Тарғибот услубларининг иккинчи гуруҳи маълум геополитик кучга хос ижтимоий-сиёсий позицияни муҳолиф мамлакат аҳолисига етказиш, уни ўз қарашларидан воз кечишга ундаш мақсадида қўлланилади. Ушбу услубларнинг энг кенг қўлланилаётганлари қуйидагилардан иборат:

1. “Номаълум манба”. Услубдан аслида ёлғон бўлган ахборотни асослаш учун фойдаланилади. Одатда бундай ахборотлар “Экспертларнинг хулосасига кўра”, “Фалон вазирликдаги манбанинг хабар беришича” тарзида бошланади. Аниқ манба эса кўрсатилмайди. Бундай йўл билан ахборот гўё асосга, исботга эгадек қилиб тақдим этилади.

2. “Ўғрини ушла”. Услубдан етказилган ахборотнинг ёлғонлиги маълум бўлиб қолганида фойдаланилади. Бунда ахборотни узатган манбанинг ўзи ҳаммадан аввал айюҳаннос солиб, ёлғон ахборотни етказган айбдорларни излай бошлайди ва кишилар эътиборини бошқа объектга буриб юборади.

3. “Илдамлик эффекти”. Янгиликни ҳаммадан олдин билиш ва етказиш – ҳозирги тарғибот манбаларининг асосий услубларидан бири. Шу йўл билан биринчи бўлиб ахборотни зарурий ракурсада ёритиш имкони туғилади.

Киши-ларнинг воқеага муносабати эса одатда илк қабул қилинган маълумотлар асо-сида шаклланади. Кейинги етказилган маълумотлар биринчисига мос бўлмаса, танқидий руҳда баҳоланади.

4. “Иштирокчи эффекти”. Воқеа содир бўлган жойлардан тайёрланган репортаж унинг ишонарлилигини оширади. Шунинг учун ҳам бугун мухолиф кучларнинг ғайриинсоний ҳатти-ҳаракатларини “фош қилувчи” инсценировкалар тайёрлаш, унинг фонида репортажлар уюштириш геополитик мақсадларга хизмат қиладиган тарғибот системалари учун одатий ҳолга айланган.

5. “Фактни констатация қилиш”. Услуб кишиларда зарурий кайфиятни шакллантириш мақсадида қўлланилади. Бунда содир бўлиши исталган воқеа ҳақиқатда содир бўлгандек баён этилади. “Фалон мамлакат иқтисоди инкирозга юз тутди”, “фалон давлатнинг сиёсати уни жар ёқасига келтириб қўйди” қабилидаги янгиликлар шу мақсадларга хизмат қилади.

6. “Ёлғон аналогия”. Ёлғондакам ўхшатишлар қилиш, мухолифларни тарихдаги салбий кучларга қиёслаш ҳам деструктив тарғиботнинг одатий услубига айланган. Бунда ўхшатилаётган томонларнинг умумий жиҳатлари ниҳоятда камлигига эътибор берилмайди. Кишиларда мухолиф ҳақида салбий муносабат шакллантирилса кифоя.

7. “Гувоҳлар”. Бу услуб ҳам материалнинг, унинг талқинининг ишонар-лилиги даражасини ошириш мақсадида ишлатилади. Мақбул позицияни қўл-лаб-қувватловчи воқеа “гувоҳи” топилади ва унинг интервьюси тайёрланади. Интервью аввал етказилган ахборот талқинининг ҳаққонийлилигини исбот-лашга хизмат қилади.

8. “Тарих талқини”. Тарихий воқеаларни ўзича талқин қилиш, тарихни ўз мақсад ва манфаатларига мос равишда “қайта ёзиб чиқишга” интилиш ҳам типик услубга айланди. Бу услуб тактик эмас, стратегик мақсадларга хизмат қилади: унинг ёрдамида кишиларда аста-секинлик билан мақбул дунёқараш шакллантирила боради.

9. “Имконият”. Геополитик мақсадларга хизмат қиладиган тарғибот во-ситалари бирор жараён ёки воқеани ёритаётганда ўз тарафдорларига кўпроқ имконият яратиб берадилар. Натижада ахборот маконида бир позиция тарафдорларининг қўли баланд келади, иккинчи тараф учун ўз нуқтаи назарини баён қилиш имкони камаяди. Шу тариқа зарурий фикрни тарғиб қилиш имкониятлари кенгаяди.

10. “Тушунчаларни алмаштириш”. Услубдан содир бўлаётган воқеалар характерини ўзгартириб талқин қилишда фойдаланилади. Бунинг учун юз берган воқеа, унинг иштирокчилари бошқа тушунчалар билан номланади.

Масалан, “экстремистлар” тушунчаси “оппозицион кучлар” тушунчаси билан, “террористик ҳаракатлар” тушунчаси “озодлик ҳаракати” тушунчаси билан, “тартибсизлик” тушунчаси “норозилик намойиши” тушунчаси билан, “ёлланган жангари” тушунчаси “кўнгилли” тушунчаси билан алмаштирилади.

11. “Синов”. Айрим тарғибот манбалари бирор фикр, нуқтаи-назарни тарғиб қилишдан аввал уни кичикроқ бир ҳудудда тарқатиб, аҳолининг қандай қабул қилишини ўрганадилар. Шу йўл билан фикрнинг маҳаллий менталитетга мос ёки мос эмаслиги аниқланади. Сўнгра ўзгартиришлар киритилган ва “тахрир қилинган” фикр оммавий тарзда тарғиб қилина бошланади.

12. “Рухий фалажлик”. Кишиларни фалаж қилиб қўядиган, лол қолдира-диган фалокат, террористик акт, қотиллик саҳналарининг намойиш қилиниши ҳам одатий ҳолга айланди. Аслида бундан аниқ сиёсий мақсадлар кўзланади: мазкур саҳналар намойишидан сўнг жамоатчилик фикри унинг ташкилотчиси сифатида кўрсатилаётган кучларни салбий руҳда баҳолай бошлайди.

13. “Рейтингни белгилаш”. Деструктив тарғибот манбаларининг яна бир найранги турли муносабатлар билан мамлакатларнинг рейтингини аниқлаш-дан иборат. Кейинги йилларда турли социологик тадқиқотлар ўтказиб, мамлакатларнинг гоҳ демократик кадриятлар бўйича, гоҳ фуқаролар хавфсизлигининг таъминланганлиги бўйича, гоҳ коррупция ҳолатларининг бартараф этилганлиги бўйича, гоҳ виждон эркинлигининг таъминлаганлиги бўйича рейтингини аниқлашга интилинмоқда. Аслида бу ҳам маълум норма ва принципларни сингдиришдан бошқа нарса эмас.

14. “Оламшумуллик ва шошиличлик”. Айрим фикр ёки нуқтаи назарни жамоатчиликка керакли ракурса сингдириш учун аввал ундаги руҳий ҳимояни бузиш, уни ташвишлантириш зарур бўлади. Бунинг учун аввал бирор бир ахборот ниҳоятда оламшумул характерга эга, шошилич етказилиши зарур бўлган маълумот сифатида узатилади. Шундан сўнг ташвишга тушган аудиторияга ундан қутилиш чораси сифатида зарурий фикр тақдим этилади.

15. “Ахборот тўлқини”. Кишиларда қатъий ижтимоий позицияни шакллантириш учун зарурий ахборотлар бирваракайига бир неча ахборот манбаларидан узатилади. Шу йўл билан ахборот тўлқини ташкил этилади. Бундан мақсад кишилар орасида маълум ахборотнинг кенг муҳокама этилишига эришишдан иборат.

16. “Гапларни бир матнга бирлаштириш”. Баъзан турли жойларда бўлган воқеалар битта матнда жамланади. Масалан, фалон шаҳарда отишма бўлиб ўтгани, унда гранатометлардан фойдаланилгани, тасодифан болалар

боғчаси ўққа тутилгани ва икки бола ҳалок бўлгани бир ахборот матнида баён қилинади. Натижада болаларнинг ўлимига отишма сабаб бўлган, деган хулоса келиб чиқади. Аслида эса отишма мутлақо бошқа пайтда, бошқа жойда юз берган, болалар эса бошқа сабаб билан ҳалок бўлган. Лекин, бундан қатъий назар, ахборот ўз мақсадига эришади.

Албатта, тарғибот услубларининг бундай таснифланиши шартли характерга эга, чунки мамлакат ичкарисидаги тарғибот жараёнида қўлланилган услублар айрим ҳолларда геополитик маконда ҳам ишлатилиши, аксинча, муҳолиф геополитик кучларга қарши ишлатишга мўлжалланган услублар мамлакат ичкарисида ҳам иш бериши мумкин. Лекин мазкур услубларнинг тадбиқ этилиши частотасига қарайдиган бўлсак, уларнинг баъзилари кўпроқ ички тарғибот мобайнида, бошқалари эса ташқи тарғибот давомида ишлатилаётганига амин бўламиз. Биз услубларни шу мезонга асосланган ҳолда таснифладик.

Хулоса қиладиган бўлсак, янги асрга келиб замонавий тарғибот системалари давлатнинг мутасадди органлари томонидан мувофиқлаштириладиган мураккаб институтлар, механизмлар, марказлар, воситаларни ўзида мужассам қилган, етарли миқдордаги маблағ билан таъминладиган системага айланди. Бугунги кунда у мақбул жамоатчилик фикрини шакллантириш ва ҳаётий позицияни қарор топтириш, муҳолиф мамлакат аҳолисига маълум геополитик позицияни етказиш вазифаларига бўйсундирилган. Ушбу вазифаларни бажариш учун замонавий тарғибот системаси такомиллашган тарғибот услублари ва усуллари мажмуидан, таъсирчан воситалардан кенг фойдаланмоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Аронсон Э., Пратканис Э. Современные технологии влияния и убеждения.- М.: Прайм-Еврознак, 2008; Василова Д. Использование методов скрытой пропаганды и теленовостях.- М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2012; Сороченко В. Энциклопедия методов пропаганды.- М.: Hippo Publishing, 2010 ва б.
2. Бернейс Э. Пропаганда.- М.: Hippo Publishing LTD, 2010.
3. Rustamov R. R., Elboyeva S. B. THE EVOLUTION OF THE SYSTEM OF SPIRITUAL PROPAGANDA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 218-221.

4. Чориев, С. А., & Рустамов, Р. Р. (2022). ДУНЁ ТАРҒИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 48-59.
5. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
6. Рустамов Р. СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА //Scientific Collection «InterConf». – 2022. – №. 118. – С. 41-49.
7. Rustamov R. R., Manzarov Y. X. Changes in advocacy systems today //Deutsche Internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft. – 2020. – №. 2. – С. 7-
8. Rustamov R. R., Turaeva S. H. Medieval Western and Eastern Propaganda: A Comparative Analysis //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 8. – С. 72-74.
9. Rustamov Ramz Rizoqulovich, To‘Rayeva Sanobar Halimovna QADIMGI DUNYO ILK TARG‘IBOT SISTEMALARINING SHAKLLANISHI // ORIENSS. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qadimgi-dunyo-ilk-targ-ibot-sistemalarining-shakllanishi> (дата обращения: 22.01.2024).
10. Rustamov R. R. MODERN PROPAGANDA TECHNOLOGY AND THEIR MAIN PURPOSE //Научное знание современности. – 2018. – №. 10. – С. 35-38.
11. Rustamov R. R. ATTRIBUTIVE CHANGES IN THE INFORMATION SPACE SYSTEM IN THE CONTEXT OF GEOPOLITICAL COMPETITION //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 3. – С. 170-173.
12. Курбонова М. Б., Мамасалиев М. М. СТРУКТУРА СОЦИАЛЬНОГО СТАТУСА МОЛОДЕЖНОГО СООБЩЕСТВА //ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. – 2020. – С. 210-213.
13. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 210-215.
14. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.
15. Mamasaliyev M. M. AMIR TEMUR DAVRIDA MARKAZLASHGAN BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5-2. – С. 1120-1129.

16. Манзаров, Ю. Х. (2020). Роль пропаганды народного творчества и искусства в воспитании молодежи. In *30 лет Конвенции о правах ребенка: современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей* (pp. 226-232). Российский государственный профессионально-педагогический университет.
17. Манзаров Ю. Х. Новый Узбекистан на пути третьего ренессанса //Academy. – 2021. – №. 5 (68). – С. 34-38.
18. Манзаров Ю. ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2017. – №. 4. – С. 28-30.

ГРУНТ ЎЗАНЛИ КАНАЛЛАРДАГИ СУВНИНГ НОСТАЦИОНАР ХАРАКАТИДА ОҚИЗИҚЛАР ТАШИЛИШИНING ХИСОБИ



<https://doi.org/zenodo.10558017>

РАҲИМОВ Ашраф Расул ўғли,

т.ф.ф.д.(PhD)., доцент.

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Статсионар оқимларда чўкинди оқимини аниқлаш учун Аккерса-Уайта боғлиқликларига асосланиб, чўкиндининг қуйи ва тўхтатилган бўлинишини ҳисобга олган ҳолда, чўкиндиларни ташишининг ўзини ҳисоблаш билан боғлиқ бўлган турғун бўлмаган оқим билан чўкиндиларни ҳисоблаш усули таклиф этилади.

Калит сўзлар: *чўкинди, туб ва осилган чўкинди, турғун оқим, тўлқин, ўлчовсиз параметрлар, ўтувчи оқим.*

АННОТАЦИЯ

На основе зависимостей Аккерса-Уайта для определения расхода наносов в стационарных потоках предложен метод расчета наносов нестационарный потоком с учетом разделение наносов на донные и взвешенные, которое относится к расчету непосредственно транспорта наносов.

Ключевые слова: *нанос, донные и взвешенные наносы, нестационарный поток, волна, безразмерные параметры, попутное течение.*

Ҳозирги кунда жаҳон амалиётида ер ўзанли каналларнинг нобарқарор оқими ҳолатларида оқизиқлар транспорти натижасида содир бўладиган деформацияларнинг ҳисоб усуллари такомиллаштириш масаласи очик ўзанлар гидравликасининг муҳим масалаларидан бўлиб келмоқда.

Ўзан оқимиға тўғри ва қарама-қарши йўналган тўлқинларнинг (нобарқарор ёки аралаш оқимлар) оқизиқларни транспорт қилиш масаласи бир қатор тадқиқотчиларни ўзига жалб қилган ва улар ўзларининг тадқиқот натижаларига кўра маҳлум бир ҳисоб усуллари таклиф этишган [4, 5, 7, 8].

Биз бу масаланинг ечимини топишга биринчилардан бўлиб Бэгнольд томонидан илгари сурилган аралаш оқимда оқизиқлар сарфининг оқимнинг локал қувватига пропорционаллиги ҳақидаги гипотезасидан фойдаланамиз. Бэгнольд гипотезасини қуйидаги кўринишда акс эттирган [11, 2, 9,10]:

$$q_s = \alpha P_T, \quad (1)$$

бу ерда q_s -бирлик вақт ичида бир бирлик эндан оқиб ўтадиган оқизиклар сарфи; P_T -аралаш оқимнинг локал транспорт қилиш қуввати; α - пропорционаллик коэффициентлари.

Канал барқарор оқимида шамол тўлқинлари таъсир қилган шароитда оқизиклар ташилишининг ҳисоб усулини қараб чиқамиз. Ҳисоб усулининг асоси сифатида оддий оқимнинг оқизикларни ташилишини ҳисоби учун таклиф этилган Аккерс ва Уайт усулини танлаймиз, чунки бу усулдан кўпчилик ғарбий мамлакатлардаги гидротехник иншоотларни лойиҳалашда фойдаланилган ва фойдаланиб келинмоқда [2]. Шу сабабли бу усул сифатли ва синалган усуллардан бири бўлиб саналади. Бундан ташқари бу усулни оқимга тўлқинлар таъсир қилган шароитда ҳам умумлаштирилган ҳолда фойдаланса бўлади.

Аккерс ва Уайт усули тўғридан-тўғри оқизиклар ташилиши, яъни оқизиклар таркибининг ўлчамсиз ҳисоби усулига киради. Оқизиклар миқдори оқизикларнинг ҳаракатда бўлиш имкониятини белгилайди. Бир йўналишли оқим учун бу катталиқ оқизиклар массаси сарфининг сувнинг массаси сарфига нисбатига тенгдир. Буни оқимга тўлқинларнинг таъсири бўлгандаги ҳолат учун қуйидагича ёзамиз:

$$q_s = x \cdot U_T \cdot d \cdot \rho \cdot g \quad (2)$$

Ташувчи U_T тезликни аниқлашда юқорида айтиб ўтилган Бэгнольд гипотезасидан фойдаланамиз. Агар оддий қарашни, яъни оқизикларнинг q_s солиштирма сарфи оқимнинг қувватига пропорционал бўлади деб қабул қилсак, унда турбулент оқим учун қуйидагича бўлади:

$$q_s \sim U_T$$

Оқизикларни ташувчи тезлик U_T ҳозирги қарашларга кўра оқизикларнинг тўлқинли ташилиши массанинг чизиқли бўлмаган тўлқинли ташилиши ва туб ости тўлқинли оқимлари билан аниқланади, яъни

$$U_T = U_t + U_s \quad (3)$$

$$U_s = 2\bar{U}_T + U \quad (4)$$

$$U_t = 0 \quad (5)$$

$$U_t = U_s \quad (6)$$

$$\frac{U_t}{U} = \alpha_1 \frac{5}{4} \pi \left(\frac{h}{UT_a} + \frac{h}{\lambda} \right) \left(\frac{h}{\lambda} \right) sh^{-2} \frac{2\pi d}{\lambda} \pm 1 \quad (7)$$

Бу ерда (7) тенгламадаги юқори (+) белги йўлдош оқим учун, пастки (-) белги қарши оқимларга тегишли. Бунда ҳар доим $U > 0$ қабул қилиш қулай бўлади. Агар бир йўналишли оқим бўлмаса ($U = 0$), унда оқизикларни ташувчи

тезлик бўлиб фақат тўлқинли стационар тезлик саналади ва у қуйидаги кўринишни олади:

$$U_T = \bar{U}_v = \frac{5}{4} \left(\frac{\pi h}{T} \right) \left(\frac{\pi h}{L} \right) s h^{-2} \frac{2\pi h}{L} \quad (8)$$

Олдин бир йўналишли оқимлар учун Аккерс-Уайт усулининг асосий шартларини қараб чиқамиз, кейин эса фақат тўлқинли ва оқимга тўлқинлар таъсиридаги оқимлар учун бу усулдан фойдаланиш масаласини қараб чиқамиз. Бу усулда оқизикларнинг ўлчамсиз параметри деган қуйидаги катталиқ қабул қилинади:

$$D_{gr} = D \left[\frac{g(s-1)}{v^2} \right]^{1/3} \quad (9)$$

бу ерда $S = \rho_s / \rho_w$ - оқизиклар ва сувнинг нисбати; v - сувнинг кинематик қовушоқлик коэффициенти.

Кейин оқизиклар туб ости ва муаллақ оқизикларга ажратилади.

Йирик оқизиклар

$$D_{gr} \geq 60 \quad (10)$$

шартга кўра туб остида ҳаракатланади. Оқизик заррачалари туб остида силжитувчи кучлар

$$\tau_{cg} = \rho \frac{U^2}{C_{hcg}^2} \quad (11)$$

таъсирида думалайди. Бунда C_h - Шези коэффициенти бўлиб, у

$$C_{hcg} = 5,75 \log \frac{11d}{D} \quad (12)$$

формуладан аниқланади.

$D_{gr} \leq 1$ бўлган майда оқизиклар муаллақ ҳолатни эгаллаб ҳаракатланадилар.

Оқизикларни муаллақ ҳолатга олиб келувчи турбулентлик туб ости тўлиқ кучланишининг функцияси бўлади, яъни

$$\tau_{cg} = \rho \frac{U^2}{C_{hcg}^2}, \quad (13)$$

бу ерда C_{chg} - Шези коэффициенти бўлиб, грядларнинг баландлиги орқали аниқланади, яъни

$$C_{hcg} = 5,75 \log \frac{11d}{r} \quad (14)$$

Туб остидаги тўлиқ кучланиш туб ости сиртининг маҳаллий параллел ва нормал компонентларини ўз ичига олади.

Оқизиклар ҳаракатга келтирувчи бирлик сиртнинг қуввати қуйидагича аниқланади:

$$P_{cg} = \tau_{cg} U \quad (15)$$

$$P_{ig} = \tau_{ig} U \quad (16)$$

Шундай қилиб, Аккерс-Уайт усулида формулаларни икки боғланиши мавжуд бўлиб, бири йирик ҳамда иккинчиси майда оқизикларга тегишли.

Ушбу

$$1 < D_{gr} < 60 \quad (17)$$

эга бўлган оралиқ зона n даража кўрсаткични киритилиши ёрдамида ҳисобга олинади. Аккерс-Уайт силжитиш параметри қуйидагикўринишда бўлади:

$$F_{gr} = \frac{U^n U^{1-n}}{\sqrt{gD(s-1)}}, \quad (18)$$

бу ерда силжитувчи куч оддий йўл билан аниқланади, яъни

$$U_* = \sqrt{\tau / \rho} \quad (19)$$

Оқизиклар ҳаракатининг бошланиши F_{grc} параметрнинг критик қиймати билан аниқланади, агар $F_{gr} < F_{grc}$ бўлса, унда оқизикларнинг ҳаракати бўлмайди.

Ниҳоят, оқизикларнинг миқдори учун қуйидаги формула таклиф қилинади:

$$X = C \left(\frac{F_{gr}}{F_{grc} - 1} \right)^m \frac{SD}{d} \left(-\frac{\rho^{1/2} P_{fg}}{\tau_{fg}^{3/2}} \right)^n \left(\frac{P_{cg}}{\tau_{cg} U} \right)^{1-n}, \quad (20)$$

бу ерда C, F_{grc}, m, n катталиқ 800 лаборатория ва 200 дала тажрибалари маълумотлари асосида текширилган:

$$\log C = 2,86 D_{gr} - (\log D_{gr})^2 - 3,53 \quad 2,95 \cdot 10^{-4} \leq C \leq 0,025 \quad (21)$$

$$F_{grc} = \frac{0,23}{\sqrt{D_{gr}}} + 0,14, \quad 0,17 \leq F_{grc} \leq 0,37 \quad (22)$$

$$m = \frac{9,66}{D_{gr}} + 1,34, \quad 1,5 \leq m \leq 11,0 \quad (23)$$

$$n = 1 - 0,56 \log D_{gr}; \quad 0 \leq n \leq 1 \quad (24)$$

Аkkerс-Уайт томонидан олинган (21)...(24) эмпирик боғланишларининг катта афзалликлари сифатида ҳосил қилинган уларнинг чегараларини белгилаймиз. Бу чегаралардан фойдаланишда уларни ҳисобга олиш керак. Яъни, агар $C \cdot F_{grc} \cdot m \cdot n$ ҳисобланган қийматлар белгиланган чегараларда бўлса, унда ишончли амалга оширилиши мумкин. Бу қийматлар белгиланган чегарадан ташқарига чиқсалар, унда фойдаланишда хатоликлар бўлиши мумкин. Керак бўлганда бундай чегараларни кўрсатиш аҳамиятсиз ва етарли даражада маълум, аммо кўпинча гидравликада ҳисобга олинмайди.

Шундай қилиб, бу ишда аралаш оқимлар шароити учун таклиф этилган такомиллашган усулнинг моҳияти шундан иборатки, бунда ўлчамсиз оқизиқлар микдори учун олинган ифодада силжитувчи кучланиш ва оқимнинг оқизиқларни маҳаллий ташиш қувватларининг янги қийматларини бир йўналишли ва тўлқинли оқимларнинг хусусиятларини инобатга олган ҳолда фойдаланилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Боровский В.П. Волновая модель профиля скорости. // Мелиорация и водное хозяйство. 2007, №4, с.55-59.
2. Бровченко И. А., Мадерич В. С. «Двумерная Лагранжева модель переноса много фракционных наносов в прибрежной зоне моря». Прикладная гидромеханика. 2005. Том 6 (78), № 1, 1-9.
3. Чекин А.Л. Математика и информатика. Часть 1. Учебное пособие – М.:МПУ, 2019. 236 с.
4. Штеренлихт Д.В. Гидравлика. – Лань, М., 2015, 640 с.
5. Эшев С.С., Рахимов А.Р., Гайимназаров И.Х. Влиянии волновых потоков на деформаций русел каналов: Монография. – Т.: Издательство «Voriz nashriyot», 2021, 189 с.
6. Darbyshire, J. (1952). The generation of waves by wind. *Proceedings of the Royal Society of London. Series A. Mathematical and Physical Sciences*, 215(1122), 299-328.
7. Eshev, S., Khazratov, A., Rahimov, A., & Latipov, S. (2020). Influence of wind waves on the flow in flowing reservoirs. *IJUM Engineering Journal*, 21(2), 125-132.
8. Rasul o'g'li, R. A. (2023). CALCULATION OF PARAMETERS OF LIVING SECTION OF IRRIGATION CHANNELS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
9. Rahimov Ashraf Rasul o'g'li. SUV OQIMINING NOBARQAROR HARAKATIDAGI GRUNTLI KANALLARNING DEFORMATSIYASINI TADQIQOTLASH. Dissertatsiya. 2021.

O‘ZANDAGI SHAMOL TA‘SIRIDA SODIR BO‘LADIGAN TO‘LQINLARNING PARAMETRLARINI HISOBLASH



<https://doi.org/zenodo.10558030>

RAHIMOV Ashraf Rasul o‘g‘li

texnika fanlari falsafa doktori, (PhD), dotsent,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,

Qarshi sh., O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida Statsionar oqimlarda cho‘kindi oqimini aniqlash uslubi ko‘rib chiqilgan. Cho‘kindining tub va muallaq holatini hisobga olgan holda, cho‘kindining o‘zini tashishni hisoblash bilan bog‘liq bo‘lgan turg‘un b‘lmagan oqim bilan cho‘kindilarni hisoblash usuli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *cho‘kindi, tub va muallaq cho‘kindi, turg‘un oqim, to‘lqin, o‘lchovsiz parametrlar, o‘tuvchi oqim.*

ABSTRACT

In the course of this research, the method of determining sediment flow in stationary streams was considered. Taking into account the bottom and suspended state of the sediment, the method of calculating sediments with an unsteady flow related to the calculation of the transport of the sediment itself was analyzed.

Key words: *sediment, bottom and suspended sediment, steady flow, wave, immeasurable parameters, passing current.*

Shamol to‘lqinlari generatsiyasi va transformatsiyasini tadqiqotlash hamda ularni qirg‘oqlar va gidrotexnik inshootlarga ta‘siri masalasi murakkab va muhim masala bo‘lib hisoblanadi. Bu masalaning yechimi katta kanal va suv omborlarni loyihalash, qurish hamda sanoat qurilishi uchun qirg‘oq zonasini o‘zlashtirishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ladi.

To‘lqinlarning elementlarini to‘g‘ri prognozlash qirg‘oq kamarining shakllanishini, kanal va inshootlarning siljishini, daryo va suv omborlari suv olish inshootlarini hamda boshqa obyektlarining samarali rostdash ishlarini amalga oshiradi.

Qo‘zg‘almas suvdagi shamol to‘lqinlarining parametrlarini muhandislik hisoblari asosida birinchilardan bo‘lib Y.M.Krilov, S.S.Strekalov va boshqa olimlar tomonidan olingan bog‘lanishlari yotadi:

Chuqur suv havzasi uchun:

$$\frac{g\bar{h}}{W^2} = 0,0042 \left(\frac{9x}{W^2} \right)^{1/3}; \quad (1)$$

$$\frac{g\bar{h}}{W^2} = 0,0013 \left(\frac{gt}{W} \right)^{5/12}; \quad (2)$$

$$\frac{g\bar{T}}{W} = 18,7 \left(\frac{g\bar{h}}{W^2} \right)^{3/5}, \quad (3)$$

bu yerda \bar{h} - to‘lqinlarning o‘rtacha balandligi (m); \bar{T} va t – to‘lqinlarning o‘rtacha davri va jadallashish vaqti (s); W - suv sathidan 10 m balandlikdagi shamolning tezligi (m/s); x - jadallashish uzunligi.

Agar \bar{h} va \bar{T} parametrlarni W, x, t dan (1) - (3) gacha yaqqol holda ifodalasak, unda ular quyidagi ko‘rinishni oladilar:

$$\bar{h} = 9,1 \cdot 10^{-3} \sqrt[3]{xW^4}; \quad (4)$$

$$h = 1,04 \cdot 10^{-2,12} \sqrt[5]{t^5 W^{12}}; \quad (5)$$

$$\bar{T} = 7,5 \sqrt[5]{\frac{\bar{h}^3}{W}} \quad (6)$$

(4)-(6) tengliklarni hisobga olib quyidagicha yozish mumkin:

$$\bar{T} = 0,45 \cdot \sqrt[5]{xW^3} \quad (7)$$

$$\bar{T} = 0,48 \cdot \sqrt[5]{tW^3} \quad (8)$$

(1)-(8) bog‘lanishlar “QN va Q” lari asosida keltirilgan va ular quyidagi ko‘rinishda foydalaniladi:

$$\frac{g\bar{H}}{W^2} = 0,16 \left\{ 1 - \left[\frac{1}{1 + 6,0 \cdot 10^{-3} \left(\frac{gx}{W^2} \right)^{0,5}} \right] \right\} \cdot th \left\{ 0,615 \frac{\left(\frac{gx}{W^2} \right)^{0,8}}{\left[1 - \frac{1}{1 + 6,0 \cdot 10^{-3} \left(\frac{gx}{W^2} \right)^{0,5}} \right]^2} \right\} \quad (9)$$

To‘lqinlarning \bar{T} o‘rtacha davrini aniqlash uchun quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$\frac{g\bar{T}}{W} = 3,1 \cdot 2\pi \left(\frac{g\bar{h}}{W^2} \right)^{0,615} \quad (10)$$

Sayoz suvli havzalardagi to‘lqinlarning chegaraviy o‘shish shartlarida to‘lqinlarning o‘rtacha davriy kattaligi shamolning tezligiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki faqat oqim chuqurligi bilan aniqlanadi:

$$\bar{T} = 4,6 \sqrt{\frac{u}{h}}. \quad (11)$$

Bu ko‘rsatilgan shartlardagi o‘lchovsiz to‘lqinlarning balandligi bilan o‘lchovsiz chuqurliklar orasidagi bog‘lanish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\frac{g\bar{h}}{W^2} = 0,1 \cdot \left(g \frac{d}{W^2} \right)^{0,8} \quad (12)$$

Keltirilgan (9)-(11) bog‘lanishlar ko‘p qator tajriba ma’lumotlariga mos keladi, biroq bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, bu bog‘lanish bo‘yicha hisoblashning aniqligi shamol tezligi kattaligining aniqlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Shamol to‘lqinlari rivojlanishining spektral modelini energiya balansining tenglamasi kabi yozish mumkin:

$$\frac{dS}{dt} = \frac{\partial S}{\partial t} + x_\alpha \frac{\partial S}{\partial x_\alpha} + K_\alpha \frac{\partial S}{\partial K_\alpha} = \sum_{n=1}^N G_n(K_\alpha, x_\alpha, W_\alpha, S, t), \quad (13)$$

bu yerda G_n – generatsiya mexanizmini va to‘lqinlar dissipatsiyasini ifodalaydi. Mos ravishda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar noma’lum (masalan, barqaror kuzatuvlardan) deb hisoblanadi.

Barnet modelini qaraymiz:

$$\frac{ds}{dt} = (L + \beta S) [1 - \mu(S, S_p)] + \Gamma(S) - T(S)S, \quad (14)$$

bu yerda L - Fillips mexanizmi; β - Maylz mexanizmi; $(1 - \mu)$ ko‘paytma to‘lqin buzilishini hisobga oladi va S ning o‘shishini spektr kattaligiga teng bo‘lgan S_p bilan chegaralaydi; $\Gamma(S)$ va $T(S)$ - chiziqli bo‘lmagan o‘zaro ta’sir etuvchilar.

(13) tenglamaning uchinchi qo‘shuvchisini (refraksiya) hisobga olmasa ham bo‘ladi. Modelni soddalashtirish uchun yig‘indi parametrlar kiritiladi:

$$\frac{ds}{dt} = (\gamma_1 \alpha + \gamma_2 \beta S)(1 - \mu) + \gamma_3 \Gamma - \gamma_4 TS = \sum_{n=1}^4 \gamma_n G_n, \quad (15)$$

bu yerda γ_n - eksperimentdan aniqlanadigan identifikasion koeffitsiyent. Ularning kuzatuvdan kuzatuvgacha bo‘lgan o‘zgarishlari modelning kamchiligini kompensasiyalaydi. Boshlang‘ich pallada og‘irlik $\gamma_n - 1$ bo‘ladi. Vaqtga bog‘lanish $\gamma_n(t)$ xarakteriga ko‘ra (15) modelga moslik darajasi to‘g‘risida mulohaza qilish mumkin. Bu model doirasida, to‘lqin rivojlanish jarayoni mexanizmlarining relaksasiyasi spektral zichlik kattaligining o‘zgarish vaqti xarakteriga nisbatan ancha sekin sodir bo‘ladi deb taxmin qilinadi. Bu holatlar fazoda va vaqt bo‘yicha γ_n koeffitsiyentning kuchsiz o‘zgarishini ta’minlaydi.

Shamol to‘lqinlari haqiqiy spektrining maksimal chastotasi quyidagi bog‘lanish bo‘yicha aniqlanadi:

$$\frac{u_* f_m}{g} = 0,939 \left(\frac{gX}{u_*^2} \right)^{-0,354}, \quad (16)$$

bu yerda u_* – shamolning ishqalanish tezligi bo‘lib, u

$$W_{10} \cong 25u_* \quad (17)$$

ifodadan aniqlanadi; X – to‘lqinlar jadallashishining ekvivalent uzunligi bo‘lib,

u

$$X = x \frac{\int_{x_n}^x \frac{dx}{C_{g0}(x)}}{\int_{x_n}^x \frac{dx}{C_{ga}(x)}}, \quad (18)$$

tenglikdan aniqlanadi. Bunda x – jadallashish uzunligi.

$C_{g0}(x)$ - oqim bo‘lmagan holatda shamol tezligiga to‘g‘ri keladigan maksimal spektrga mos bo‘lgan spektral komponentlarning guruh tezligi; $C_{ga}(x)$ - oqim bo‘lgan holatda shu spektral komponentlarning absolyut guruh tezligi; x_n - jadallashish boshlanishi.

$C_{g0}(x)$ ni aniqlash uchun quyidagi bog‘lanishdan foydalaniladi:

$$C_{g0} = \frac{C_0}{2} \left(1 + \frac{2K_0 d}{sh 2K_0 d} \right); \quad (19)$$

$$K_0 = \frac{\omega_{om}^2}{gthK_0 d}; \quad (20)$$

$$\omega_{om} = \frac{5,9g}{u_*} \left(\frac{gx}{u_*^2} \right)^{-0,354}; \quad (21)$$

$$C_0^2 = \frac{g}{K_0} thK_0 d, \quad (22)$$

bu yerda C_0 – oqim bo‘lmagan holatdagi spektr maksimal chastotasiga mos bo‘lgan spektral komponentlarning davriy tezligi; K_0 - to‘lqinlar soni; ω_{om} - spektr maksimumining aylanish chastotasi.

Absolyut guruxlar tezligi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$C_{ga}(x) = C_{g0}(x) + u, \quad (23)$$

Bunda “ u ” tezlik to‘g‘ri oqimda “+”, teskari oqimda esa “-” bo‘ladi.

To‘g‘ri oqimda jadallashishning boshlanishi

$$X_H = \frac{10u_*^2}{g}, \quad (24)$$

teskari oqimda esa

$$C_{go}(x) = |u| \quad (25)$$

shartdan aniqlanadi.

Bunda shamol to'liqlarining oqim teskari yo'nalishiga yo'nalgan $x < x_H$ bo'lgan holatida to'liqlar hosil bo'lmaydi.

$\bar{\omega}$ - haqiqiy spektrning maksimal chastotasidan o'rtacha chastotasiga o'tish quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\bar{\omega} = 1,05\omega_m, \quad \omega_m = 2\pi f_m \quad (26)$$

To'liqlarning $h_{1/3}$ balandligi (to'liqlar eng katta balandligining uchdan bir qismi) quyidagi bog'lanishdan aniqlanadi:

$$g \frac{h_{1/3}}{u_*^2} = 0,0222 \left(g \frac{X}{u_*^2} \right)^{0,667}, \quad (27)$$

bu yerda X – ekvivalent jadallashish uzunligi (1.19) ifodaga muvofiq aniqlanadi.

To'liqlarning $h_{1/3}$ balandligidan \bar{h} o'rtacha balandligiga o'tish

$$\bar{h} = 0,627h_{1/3} \quad (28)$$

bog'lanishga ko'ra olib boriladi.

(16) va (27) bog'lanishlar sifat jihatidan oqimlardagi shamol to'liqlarining generatsiyasi bo'yicha boshqa ma'lum bo'lgan laboratoriya va dala sharoitidagi olingan natijalarga mosligini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Tub oqiziqalar sarfi oqimning asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lib, u o'zanda sodir bo'ladigan deformatsiyalarning o'lchamlarini va jadallashishini aniqlaydi. Shuning uchun ko'pgina muhandislik masalalarini yechimidagisuv o'zanining monitoringini va muhofaza etilishini ta'minlashda bu xarakteristikalarni aniqlashning ishonchli usullariga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtda mavjud hisob usullarining ko'pligiga qaramasdan, ularda suv obyektlarining o'ziga xos xususiyatlari (ularning o'lchamlari, rel'efining tabiati, tub oqiziqalarning granulometrik tarkibi va h.k.) yetarli darajada hisobga olinmaydi. Tabiiyki bunday holatlar hisob usulining samarasini ancha kamaytiradi.

2. Mavjud adabiyotlarda oqiziqalarning faqat barqaror oqim ta'siridagi harakati yaxshi yoritilgan. Bu masala gidravlikada azaldan o'rganilib kelinmoqda va bunga oid ko'pchilik mualliflarning nazariy, eksperimental va naturalardagi tadqiqot ma'lumotlari mavjud. Oqimning oqiziqalarni transport qilish jarayoni to'lasincha o'rganilmaganligiga qaramasdan, ba'zi bir holatlarda qoniqarli baholashlarga erishilgan deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Боровский В.П. Волновая модель профиля скорости. // Мелиорация и водное хозяйство. 2007, №4, с.55-59.
2. Бровченко И. А., Мадерич В. С. «Двумерная Лагранжева модель переноса много фракционных наносов в прибрежной зоне моря». Прикладная гидромеханика. 2005. Том 6 (78), № 1, 1-9.
3. Чалов Р.С. Русловые процессы (русловедение). –Инфра-М. М., 2017, 568 с.
4. Чекин А.Л. Математика и информатика. Часть 1. Учебное пособие– М.:МПУ, 2019. 236 с.
5. Штеренлихт Д.В. Гидравлика. – Лань, М., 2015, 640 с.
6. Эшев, С. С., Рахимов, А. Р., & Гайимназаров, И. Х. (2021). Влиянии волновых потоков на деформаций русел каналов: Монография. Т.: Издательство «Voriz nashriyot».
7. Eshev S.S., Rahimov A.R., IG‘oyibnazarov.X., Latipov Sh.A.. Generation of Wind Waves in Large Streams. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 01, 2020. -Pp. 518-525.
8. Eshev S.S., Hazratov A.N., Rahimov A.R., Latipov Sh.A. Influence of wind waves on the flow in flowing reservoirs. IIUM Engineering Journal, Vol. 21, No. 2. 2020 <https://doi.org/10.31436/iiumej.v21i2.1329>. -Pp. 125-132. (05.00.00; № 6)
9. Rahimov Ashraf Rasul o‘g‘li. CALCULATION OF PARAMETERS OF LIVING SECTION OF IRRIGATION CHANNELS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development. 2023/12/23.
10. Rahimov Ashraf Rasul o‘g‘li. SUV OQIMINING NOBARQAROR HARAKATIDAGI GRUNTLI KANALLARNING DEFORMATSIYASINI TADQIQOTLASH. Dissertatsiya. 2021.

MASNU' SO'ZLAR JILVASI VA JOZIBASI

<https://doi.org/zenodo.10627803>**БАРАТОВА Севара Мусохоновна,***ЎзРФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори**институтини кичик илмий ходими,**Тел: 93-5384422**E-mail-baratovasevara07@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Havola qilinayotgan maqolada mumtoz lirika va epik poeziyada poetik so'zning o'rni va ularning timsol yaratishdagi mavqeyi yuzasidan yozuvchi mahorati ochib berilgan. Ayrim namunalar orqali poetik so'zning emotsional-ekspressivlik darajasiga e'tibor qaratilgan. Xususan, Boburning ayrim baytlari, masnu' she'rlaridan bittasi tahlil qilinishi o'laroq, tahlil davomida aytilgan fikrlardan masnu' she'rlarda so'zlarning shakliy jilvasi hamda mazmuniy jozibasi yuqori darajada bo'lishi dalillangan.

Kalit so'zlar: *So'z, ibora, kalom, kalima, poetik so'z, san'at, san'atkor, masnu', pardoz, ma'no, shakl, mahorat, badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlar, ko'chma ma'no, tashbeh, metafora (istiora), tardu aks, lug'aviy ma'no.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль поэтического слова в классической лирике и эпической поэзии, а также раскрывается мастерство писателя с точки зрения его влияния на создание образа. На примерах анализируется эмоционально-экспрессивный уровень поэтического слова. В частности, на основе анализа некоторых двустиший и одного из стихотворений-маснуъ Бабура доказано, что слова в стихотворениях, упомянутых в нашем исследовании, обладают высоким уровнем формальной красоты и смысловой привлекательности.

Ключевые слова: *слово, выражение, «калям», «калима», поэтическое слово, искусство, художник, «маснуъ», украшение, значение, форма, мастерство, средства художественного образа, художественные искусства, переносный смысл, уподобление, метафора, «тарди акс», буквальный смысл.*

Mumtoz she'riyatda so'z o'zining shakliy jilvakorligi va ma'naviy jozibadorligi bilan she'rga yuklangan g'oyani ta'sirchan va musiqiylikka yo'g'rilgan

holatda chiqishida alohida rol o'ynaydi. Bu vazifani, shubhasiz, tanlangan so'z-timsollar, ularning badiiy san'atlar qobig'idagi shakllari bajaradi. Mumtoz lirik yoki epik she'rning birortasi yo'qki, ularda so'z o'zining ma'naviy, estetik-emotsional vazifasini yuqori darajada ado etmagan bo'lsin. Shuning uchun Hazrati Alisher Navoiy so'zni o'likka qaytadan jon bag'ishlaydigan yaratiqqa o'xshatgan. [Navoiy. 1, 445] Bir she'rda yoki bir bayt yoki misrada ba'zan bittagina, ba'zida bir necha badiiy tasvir vositalari kelib, ular muallifning badiiy niyatini emotsional-ekspressivlik fonida ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shuning uchun uni poetik so'z deb ta'riflash rasm bo'lgan. Chunonchi, Alisher Navoiyning qaysi bir she'rini olib ko'rmaylik, ularda ko'chim, ramziylik, so'zlar mag'ziga singdirilgan ko'pma'nolilikni kuzatamiz, shaklda esa so'zlar o'quvchi nazarida tutgan holatni emas, balki uning ixtiyoriga bo'ysunmagan vaziyatda boshqa vazifalarni o'tashga yo'naltiriladi – tasviriy-ta'siriy vositalar hayratlanarli darajada kishini o'ziga rom etadi. Yoki So'fi Olloyorning “Sabot ul-ujizin” manzumi baytlari boshdan-oxirigacha badiiy tasvir vositalari bilan ziynatlangan. Ularda tajnis, metafora, tazod va hakoza so'zlar shu darajada uyushtirilib, bir nishonga yo'naltirilganki, bularning ko'magi o'laroq bir baytning o'zidan o'quvchi o'ziga tegishli fikrni to'kis oladi va yuqori darajada ta'sirlanadi. Bir baytga nazar tashlaylik. So'fi Olloyor yozadi:

Belning quvvati borida olib bel,

Ko'ngil bog'in sug'or, kelmay turib sel.[So'fi Olloyor, 3, 113.]

